

Bosh ilmiy-metodik
markaz

2022

O‘quv-uslubiy majmua

**TA’LIM SIFATINI TA’MINLASHDA
XALQARO TAJRIBALAR**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH
BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

“Ta'lim sifati menejmenti” yo‘nalishi uchun

**“TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA XALQARO
TAJRIBALAR”**

moduli bo'yicha

O'QUV-USLUBIY MAJMUА

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Ta’lim sifati menejmenti” qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishi o‘quv reja va dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: **F.Nazarova** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
A.Djuraev-Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Taqrizchi: **F.M.Zokirova** - pedagogika fanlari doktori, professor

O‘quv -uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy-metodik Kengashining
qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2022 yil “24” dekkardagi 6/4-sonli bayonnomasi)

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR.....	5
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI.....	18
III. NAZARIY MATERIALLAR.....	214
IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....	96
V. GLOSSARIY	129
VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	132

I. ISHCHI DASTUR

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi"da oliy ta'lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o'qitish usullarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, mamlakatimizda oliy ta'lim sohasini jadal rivojlantirish, xususan har bir ta'lim tizimida zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, rivojlangan xorijiy tajribani o'rghanish, har tomonlama bilimli, yetuk, ilg'or kommunikatsiya tizimlarini yaxshi o'zlashtirgan, jahon standartlari darajasida sog'lom fikrlaydigan kadrlarni shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilib va barcha fanlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

Mamlakatimizning istiqboldagi rivojlanishini belgilab bergen "2017-2021 yillarda harakatlar strategiyasi"ni amalga oshirishda O'zbekistonning tinchlik, xavfsizlik va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, xalqaro integratsiyada ham faol hamkorligi yanada kuchaymoqda. Hayotimizga kirib kelayotgan ko'plab xalqaro zamonaviy tajribalar, texnologiyalar zamonaviy boshqaruva mutaxassislarini talab qilmoqda. Shu boisdan ham oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etishda "Ta'lim sifatini ta'minlashda xalqaro tajribalar" modulini mukammal o'rghanish muhim ahamiyatga ega.

Modulning maqsadi va vazifalari

"Ta'lim sifatini ta'minlashda xalqaro tajribalar" modulining maqsadi - qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarini xorijiy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifati nazoratining me'yoriy-huquqiy asoslarini tadqiq etish asosida xalqaro tajribalarini qo'llash, sifatni baholashning xalqaro metodlari, xorijiy va mahalliy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifatini ichki nazoratining qiyosiy tahlilini amalga oshirish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

"Ta'lim sifatini ta'minlashda xalqaro tajribalar" modulining vazifalari:

- xalqaro tajribalar asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etish va uning sifatini ta'minlashning innovatsion metodlarini tahlil qilish;
- ta'lim sifatini ta'minlashda xalqaro tajribalar asosida talabalarning mustaqil ishini rejalashtirish;
- xalqaro tajribalar asosida pedagoglar faoliyatini hamda o'quv

jarayonining uslubiy ta'minotini tahlil qilish;

- oliy ta'limga tegishli bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amaliyatga tatbiq etishning xalqaro tajribasidan samarali foydalanish.

Modul bo'yicha tinglovchilar ning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

“Ta’lim sifatini ta’minlashda xalqaro tajribalar” modulini o’zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

tinglovchi:

- Amerika Qo’shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Xitoy, Koreya, shuningdek, rivojlangan mamlakatlar oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayoni sifati nazoratining me’yoriy-huquqiy asoslari;
- ta’lim jarayonlarini tashkil etish va uning sifatini ta’minlashning innovatsion metodlari xorij tajribasi;
- o‘quv jarayonining uslubiy ta’minotini tayyorlash tamoyillari;
- xorij tajribasi asosida ta’lim natijalarini baholash usullari;
- xorijiy oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sohasini boshqarishning huquqiy asoslari, ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmuni;
- ta’lim muassasalarida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishning xorij tajribasi haqidagi **bilimlarga ega bo‘lishi**;
- xalqaro tajribalarni ta’lim tizimida qo’llash asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etish;
- ta’lim sifatini ta’minlashda xalqaro tajribalarni qo’llay olish;
- sifatni ta’minlash sohasida milliy va xalqaro darajalarda o’zaro hamkorlikni rag’batlantirish **ko’nikma va malakalarini egallashi**;
- xalkaro tajribalarni ta’lim tizimida qo’llash asosida o‘quv-tarbiya jarayonini loyihalashtirish va tashkil etish;
- ta’lim jarayoni sifatini nazorat qilish bo'yicha xorijiy tajribalarni tahlil qilish;
- xorijiy va mahalliy OTMlarida ta’lim jarayoni sifati nazoratini qiyosiy tahlil qilish;
- ta’lim jarayoni sifatini nazorat qilish bo'yicha xorijiy tajribalarni mahalliy OTMlarga tadbiq etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish **kompetensiyalariga ega bo‘lishi lozim**.

Modulni tashkil etish va o’tkazish bo'yicha tavsiyalar

“Ta’lim sifatini ta’minlashda xalqaro tajribalar” moduli ma’ruza va amaliy mashg’ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o’qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot-

kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, blis-so'rovlardan, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishslash, va boshqa interfaol ta'lim metodlarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

"Ta'lim sifatini ta'minlashda xalqaro tajribalar" moduli bo'yicha mashg'ulotlar o'quv rejasidagi "Ta'lim sifati innovatsion menejmenti", "Universitet 3.0 modeli va ta'lim sifatini ta'minlash masalalari" kabi modullar bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar ta'lim sifatini ta'minlashda xorij OTMlarida ta'lim va tarbiya jarayonlarini normativ-huquqiy asoslari, sifatni baholashning xalqaro metodlari, baholashning asosiy tamoyillari bo'yicha tushunchalarni, hamda xorijiy va mahalliy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifatini ichki nazoratining qiyosiy tahlilini amalga oshirishga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya o‘quv yuklamasi		
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg‘ulot
1.	Ta’lim sifatini ta’minlashda xalqaro tajribalar. Ta’lim tizimini tashkil etish va boshqarishning asosiy xususiyatlari. Mamlakatimizda ta’lim tizimini isloh etishda xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganishning o‘rni. Ta’lim sifatini ta’minlashda rivojlangan xorijiy davlatlar bilan hamkorlik masalalari.	2	2	
2.	Ta’lim sifatini baholashda rivojlangan mamlakatlar tajribasini tatbiq etish omillari. Oliy ta’lim sifatini baholashning xalqaro metodlari. Xalqaro talim tizimida sifatni baholash modellari va ularni qo’llash usullari. Ta’lim tizimini tashkil etish va sifatini oshirishda halqaro standartlarning ahamiyati.	2	2	
3.	Rivojlangan xorijiy davlatlarda oliy ta’lim sifatini boshqarish tizimi. QAA – oliy ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘yicha Agentlik. Sifat kodeksi. Oliy ta’lim sifatini baholashning asosiy maqsadlari. Ta’lim sohasidagi xalqaro tashkilotlar.	4		4
4.	Xalqaro loyihalarni rejalashtirish. Xalqaro loyihalar. Loyihalarning muhim komponentlari. Mamlakatimiz OTMlaridagi eng yirik xalqaro loyihalar.	4		4
	Jami:	12	4	8

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: TA'LIM SIFATINI TA'MINLAshDA XALQARO TAJRIBALAR. (2 soat)

Reja:

Ta'lim tizimini tashkil etish va boshqarishning asosiy xususiyatlari. Mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh etishda xorijiy davlatlar tajribasini o'rghanishning o'rni. Ta'lim sifatini ta'minlashda rivojlangan xorijiy davlatlar bilan hamkorlik masalalari.

2-MAVZU: TA'LIM SIFATINI BAHOLASHDA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASINI TATBIQ ETISH OMILLARI.

(2 soat)

Oliy ta'lim sifatini baholashning xalqaro metodlari. Xalqaro talim tizimida sifatni baholash modellari va ularni qo'llash usullari. Ta'lim tizimini tashkil etish va sifatini oshirishda halqaro standartlarning ahamiyati.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: RIVOJLANGAN XORIJIY DAVLATLARDA OLIY TA'LIM SIFATINI BOShQARISH TIZIMI. (4 soat)

QAA – oliy ta'lim sifatini nazorat qilish bo'yicha Agentlik. Sifat kodeksi. Oliy ta'lim sifatini baholashning asosiy maqsadlari. Ta'lim sohasidagi xalqaro tashkilotlar

2-MAVZU: XALQARO LOYIHALARNI REJALASHTIRISH. (4 soat)

Xalqaro loyihalar. Loyihalarning muhim komponentlari. Mamlakatimiz OTMlaridagi eng yirik xalqaro loyihalar. Xalqaro loyihalarni rejalahtirish.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);

- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.:O'zbekiston, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi 4947-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5729-sonli Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagи «Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 343-sonli Qarori.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2001 yil 16 avgustdagи “343-sonli qororiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish haqida”gi 3-sonli qarori.

III. Maxsus adabiyotlar:

16. Apakaev P.A., Merlina N.I., Matveeva O.A. Sistemno-funksionalnyu analiz podxodov k ponyatiyu «kachestvo obrazovaniya» // Sovremennye problemy nauki i obrazovaniya. – 2012. – № 3. – S. 16-19.

17. Mirzaxmedov B.X., Norkulova K.T. Oliy ta’lim muassasalarida ilmiytadqiqot faoliyatini boshqarish va samaradorligini oshirish masalalari// “Oliy ta’lim tizimidailmiy-tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etish va natijaviyligini oshirishning dolzarb masalalari” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ma’ruzalar to‘plami, Toshkent, 11 dekabr, 2014 yil, 44-49 b.

18. Ryabov L.P. AQSh, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya kabi rivojlangan davlatlar oliy ta’lim tizimidagi innovatsion jarayonlar va ijobjiy o‘zgarishlar tahlili. –M.: 2011.

19. Erkaeva G.P. Ta’lim sifatini oshirishda xorijiy hamkorlik // Ta`kbv, fan va innovatciya. Toshkent. 2015. №3. 27-30 b.

20. American Association for Higher Education and Accreditation (AAHEA) Standarts.

21. Andreas Houecht (2006) Quality Assurance in UK Higher Education. Springler. Higher Educaation. 51. 541-563.

22. Campbell C., C.Rozniyai. Quality assurance and dvelopment od course Programes. Bucharest. – 2002. - UNESCO Series. - P. 14-15.

23. Cheng Y.C., Tam W.M. (19970 Multy Models of Quality in Education. Quality Assurance in Education, University of Oslo. - 5. – P. 22-31.

24. Csizmadiya T. Quality Management in Hungarian higher education. The International Journal for Quality and Standarts. - 2002. -P. 14-17.

25. Diana G., What is Quality in Higher Education? Sicity for Research into Higher Education. - Ltd. London. – P. 1-21.

26. European Higher Education Area and Bologna Process.

27. Houecht A.. Quality Assurance in UK Higher Education. - Springler. - Higher Educaation. - 51. –R. 541-563.

28. International Organization for Standardization (2006). The ISO survey of certifications 2005. Genève: ISO Central Secretariat.

29. International Organization for Standardization. (2009a). ISO 9001: 2008 handbook for educational organizations –What to do: Advice from IWA 2 working group (2nd ed.). Switzerland: Author.

30. Quality Assurance and Accreditation. UNESCO [ISBN 92-9069-178-6].
31. Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European Higher Education Area (ESG).
32. The European Commission on New modes of learning and teaching in higher education. October, 2014. Luxembourg: Publications Office of the European Union. – 2014. – 68 pp.
33. Tibor Csizmadiya (2006) Quality Management in Hungarian higher education. The International Journal for Quality and Standards. P. 14-17.
34. U.S. Department of Education. Accreditation: Universities and Higher Education. Souncil for the Advancement of Standards (CAS) Professional Standards for Higher Education.
35. Vlasceanu L., L.Grunberg, D.Parlea. Quality Assurance and Accreditation: Glossary of Basic Terms and Definitions. -Bucharest: UNESCO [ISBN 92-9069-178-6].
36. World Bank. (1994). Higher Education: Lessons of Experience. Washington D.C. pp 66-76.

IV. Internet saytlari:


37. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
38. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
39. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
40. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali ZiyoNET
41. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI

“Nima uchun?” texnologiyasi.


Nima uchun sxemasi mavjud muammoni keltirib chiqargan sabablarini aniqlashga yordam beruvchi sxemadir. Sabab-oqibat qonuniga asosan muammoni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlamay turib muammoni hal etish qiyin. Muammoni yechimini topish uchun uni keltirib chiqargan sabablarni aniqlash va yo‘qotish talab etiladi. Tinglovchilarda sabab-oqibat qonuniyati asosida fikr yuritishni tarbiyalash muhim. Ushbu sxema tinglovchilarda aynan ana shu xususiyatni rivojlantiradi. Tinglovchilarda tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.



“Nima uchun”? sxemasiga asosan tinglovchilar faoliyatini tashkil etish ketma-ketligi


1-bosqich

Tinglovchilarni “Nima uchun”? sxemasini tuzish qoidalari bilan tanishtirish




2-bosqich

Yakka tartibda (juftlikda) muammo shakllantiriladi. Nima uchun? so‘rog‘i bilan strelka chiziladi va savolga javob yoziladi. Qayta-qayta “nima uchun” degan savol berib boriladi. Muammoni keltirib chiqargan ildiz yashiringan sababi topilguncha davom ettiriladi.



3-bosqich


Tinglovchilar kichik guruhlarga birlashtiriladi, o‘z sxemalarini taqqoslashga va qo‘sishma kiritishga imkon yaratiladi. Umumiy sxema jamlanadi.



4-bosqich

Natijalar taqdimoti uyushtiriladi. Faoliyat natijalari baholanadi.

«Nima uchun?» texnologiyasining sxemadagi ko‘rinishi



“Nima uchun”? sxemasini tuzish qoidalari

1. Qanday pictogrammadan foydalanishni o‘zingiz hal etasiz.
2. Mulohazalarning sxematik ko‘rinishi qanday bo‘lishini o‘zingiz hal etasiz.
3. Har bir strelka fikr yo‘nalishini ko‘rsatishi lozim.

“VEER” texnologiyasi.

Bu texnologiya murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan.

Texnologianing mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir yo‘la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobjiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foya va zararlari belgilanadi.

Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘z g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki

shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

“VEER” texnologiyasi umumiyligi mavzuni ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarning har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

“VEER” texnologiyasi mavzuni o‘rganishning turli bosqichlarida qo‘llanilishi mumkin:

- boshida: o‘z bilimlarini erkin faollashtirish;
- mavzuni o‘rganish jarayonida; uning asosiyalarini anglab yetish;
- yakunlash bosqichida; olingen bilimlarni tartibga solish.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

Aspekt (nuqtai nazar) bilan predmet, hodisa, tushuncha tekshiriladi.

Afzallik - biror narsa bilan qiyoslangandagi ustunlik, imtiyoz.

Fazilat-ijobiy sifat.

Nuqson-nomukammallik, qoidalarga, mezonlarga nomuvofiqlik.

Xulosa-muayyan bir fikrga, mantiqiy, qoidalar bo‘yicha dalildan natajaga kelish.

FSMU texnologiyasi.

- (F) - fikringizni bayon eting.
- (S) - sababini ko‘rsating.
- (M) - misol (dalil) keltiring.
- (U) - umumlashtiring.

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, babs- munozaralar o‘tkazishda yoki o‘quv-seminar yakunida (tinglovchilarning o‘quv seminari haqidagi fikrlarini bilish maqsadida) yoki o‘quv rejasi asosida biron bo‘lim o‘rganib bo‘lingach qo‘llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda tinglovchilarning, o‘quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egalaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatini o‘rgatadi.

Ushbu texnologiyaning asosiy maqsadi tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog‘ozga o‘z fikrlarini aniq va qisqa ifoda etib, tasdiqlovchi dallillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o‘tkaziladi:

1-bosqich.

-o‘qituvchi tinglovchilar bilan birga babs mavzusini yoki muhokama etilishi kerak bo‘lgan muammoni, yoki o‘rganilgan bo‘limni belgilab oladi;

-o‘qituvchi o‘quv mashg‘ulotida avval har bir tinglovchi yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi va nihoyat dars oxirida

jamoa bo‘lib ishlanishi haqida tinglovchilarga ma’lumot beradi:

-mashg‘ulot davomida har bir talaba o‘z fikrini erkin holda to‘liq bayon etishi mumkin ekanligi eslatib o‘tiladi.

2- bosqich.

Har bir tinglovchiga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog‘ozlar tarqatiladi:

F- fikringizni bayon eting.

S - fikringizni bayon etishga sabab ko‘rsating.

M - ko‘rsatilgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U - fikringizni umumlashtiring.

Har bir tinglovchi yakka tartibda tarqatilgan qozozdagi FSMU ning 4 bosqichini o‘z fikrlarini yozma bayon etgan holda to‘latadi.

3 - bosqich.

-Har bir tinglovchi o‘z qog‘ozlarini to‘latib bo‘lgach, O‘qituvchi ularni kichik guruhlarga bo‘linishlarini iltimos qiladi yoki o‘zi turli guruhlarga bo‘lish usullaridan foydalangan holda tinglovchilarni kichik guruhlarga bo‘lib yuboradi:

-o‘qituvchi har bir guruhda FSMU texnologiyasining 4 bosqich yozilgan katta formatdagi qog‘ozlarni tarqatadi:

-o‘qituvchi kichik guruhlarga har birlari yozgan qog‘ozlardan fikr va dallillarni katta formatdagi umumlashtirgan holda 4 bosqich bo‘yicha yozishlarini taklif etadi.

4 - bosqich.

-Kichik guruhlarda avval har bir tinglovchi o‘zi yozgan har bir bosqichdagи fikrlari bilan guruh a’zolarini tanishtirib o‘tadi. Guruh a’zolarining barcha fikrlari o‘rganilgach, kichik guruh a’zolari ularni umumlashtirishga kirishadi:

-guruh a’zolari FSMUNing 4 bosqichini har biri bo‘yicha umumlashtirib, uni himoya qilishga tayyorgarlik ko‘radilar:

-fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir tinglovchi o‘z fikrlarini himoya etishi, isbotlashi mumkin.

5- bosqich.

-Kichik guruhlarda umumlashtirilgan fikrlarini himoya qiladilar:

Guruh vakili har bir bosqichni alohida o‘qiydi iloji boricha izoh bermagan holda. Ba’zi bo‘limlarni isbotlash ya’ni guruhning aynan nima uchun shu fikrga kelganini aytib o‘tishi mumkin.

6 - bosqich.

-o‘qituvchi mashg‘ulotga yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o‘z munosabatini bildiradi;

-quyidagi savollar bilan tinglovchilarga murojat qiladi:

- ushbu texnologiyadan nimalarni bilib oldingiz va nimalarga o'rgandingiz?
- ushbu texnologiyani o'quv jarayonida qo'llanilishi qanday samara berdi?
- ushbu texnologiyani qo'llanilishi tinglovchilarda qanday hislatlarni tarbiyalaydi, nimalarni shakllantiradi, ularning qanday fazilatlarini rivojlantiradi?
- ushbu texnologiyaning o'quv jarayonining qaysi bosqichida qo'llanilgani ma'qul va nima uchun?
- ushbu texnologiyani dars jarayonida qo'llanilishi tinglovchilarga nima beradi va nimaga o'rgatadi?
- ushbu texnologiyani yana qanday tartibda yoki qanday shaklda o'tkazish mumkin?
- ushbu treningda asosiy vazifa nimadan iborat va hokazolar.

III. NAZARIY MATERIALLAR

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-MAVZU. TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA XALQARO TAJRIBALAR (2 soat)

Reja:

- 1. Ta'lim tizimini tashkil etish va boshqarishning asosiy xususiyatlari.**
- 2. Mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh etishda xorijiy davlatlar tajribasini o'rganishning o'rni.**
- 3. Ta'lim sifatini ta'minlashda rivojlangan xorijiy davlatlar bilan hamkorlik masalalari.**

1.1. Ta'lim tizimini tashkil etish va sifatni boshqarishning asosiy xususiyatlari.

Bugungi kunda dunyo hamjamiyati ta'lim sifati samaradorligini oshirish masalasini hal qilishga kirishgan bo'lib, bu o'rinda yetakchi g'arb davlatlari OTM tizimida muvaffaqiyatli natijalarini ko'rmokdamiz. Chunki, sifat yakuniy natijaga ta'sir etuvchi eng asosiy va muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Sifat – talab ko'rsatkichlarini ifodalovchi umumiy tavsif birligi deb xisoblaymiz. Zamonaviy sifat menejmenti esa bu- qo'yilgan vazifalarni bajarilishini ta'minlashda rahbar va xodimlar samarali faoliyat olib borishiga ko'p boglik buladi. Bu yerda menejmet katta axamiyatga ega, chunki tashkilotni muvofiqlashgan holda idora etish va boshqarish faoliyati deb e'tirof etiladi. Tizim esa - o'zaro xarakatlanuvchi va o'zaro bog'liq bo'lган elementlar birligi deb karaymiz. Ta'lim muassasasi sifat menejmenti ta'limni tashkil qilish va ta'min etish, boshqarish jarayonini qamrab olgan kompleks tizim bo'lib, asosan o'quv jarayonini nazarda tutadi

Xozirgi vakta «Ta'lim sifati» atamasiga olimlar turlicha taxil va ta'riflar berishadi, bunda oliy ta'lim ishtirokchilarining manfaatlari, ta'lim-tarbiya jarayonlari, yakuniy ma'lumotlari, maqsad va vazifalari, baholanadigan akademik sohaning xususiyatlari yoki tavsifi, oliy ta'limning tarixiy rivojlanish davri va x.k.. Shuning uchun ta'lim sifati atamasida sifatni eng yuqori ko'rsatkichi sifatida, maqsadga to'liq erishilgan faoliyat shakllanishi va takomillashtirilgan faoliyat shaklini aks ettirishadi. Chunki «ta'lim sifati» ta'lim sohasidagi islohotlarning tarixiy davriga bog'liq holda o'z afzalliklari va kamchiliklarini e'tiborga olish lozim. Ta'lim sifatining absolyut tushunchasida ta'lim muassasasining statusi, mavqeい va ustunligini aks etishi nazarda tutiladi. Oliy

ta’lim sifati ta’lim standartiga mosligi, ta’lim xizmati iste’molchilarining rasmiy talablariga mos kelishi lozim.

Ta’lim sifatini ta’minlash – bu kadrlarni kasbiy jihatdan tayyorlashning zaruriy darajasi uchun eng maqbul sharoitlarning yaratilishiga qaratilgan rejali, oldindan mo’ljallab qo‘yilgan va texnologik jihatdan ta’minlab qo‘yilgan boshqaruvdir.

Ta’lim tizimi boshqaruvining umumiyligi funksiyalari ierarxiyaning barcha pog‘onalarida muassasa faoliyatini boshqaruv jarayonining asosiy bosqichlari mohiyatini aks ettiradi:

- rejalashtirish;
- tashkil etish;
- muvofiqlashtirish;
- nazorat.
- rag‘batlantirish;

Ta’lim ijtimoiy hayotning muhim sohasi hisoblanadi. Aynan, ta’lim jamiyatning intellektual, madaniy, ma’naviy holatini shakllantiradi. Ta’limning mazmun-mohiyati va uning yo‘naltirilganligini ta’lim standartlari va dasturlarida aks ettiriladi.

Ta’lim sifati avvalo, ta’lim oluvchiga turli metodikalar yordamida bilimni yetkazuvchi (professor-o‘qituvchilar tarkibi)ning sifati bilan aniqlanadi. Sifat maqsadlarga mos kelish darajasi sifatida hozirgi kundagi eng ko‘p ishlatiladigan kategoriyalardan biri hisoblanadi. Buning asosida hozirda xalqaro amaliyotda quyidagi beshta asosiy yondashuv ajratib ko‘rsatiladi:

- An’anaviy yondashuv quyidagicha tarkib topgan: ta’lim sifatini ta’minlash-demak, uni nufuzli qilish, sababi bunday OTMni tugatgan bitiruvchi mehnat bozorida bir muncha yuqori pozitsiyani egallaydi;
- Ilmiy standartlarga mos kelishdan kelib chiqadi;
- Menejerlik yondashuvi o‘zida, sifatli ta’lim deb mijoz qoniq-qandagi holatni namoyon etadi;
- Iste’molchi, bu yerda iste’molchi sifatni aniqlaydi va natijada uning har qanday istagi bajariladi. Asosiysi OTM buning uchun modiy raxbat oladi;
- Demokratik yondashuvda OTM o‘zi joylashgan hududga, jamiyatga foyda keltiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ta’lim sifatini ta’minlash borasida quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega:

- Davlat ta’lim standartlari, tarmoq ta’lim standartlari, o‘quv reja va dasturlar mazmunini mehnat bozori talablari asosida, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalaridagi texnika va texnologiyaning rivojlanishiga monand ravishda takomillashtirib borish;

- o'quv rejalaridagi turdosh fanlarni integratsiyalash orqali o'quv yuklamalari ko'lami va hajmini optimallashtirish;
- ta'lim muassasalarida virtual o'quv-laboratoriya, zamonaviy axborot kommunikatsiya, elektron-texnik va masofadan o'qitish imkoniyatlarini kengaytirish, elektron darslik va qo'llanmalar yaratish, ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish;
- malakaviy amaliyotlarni huquqiy ko'rinishidan qat'iy nazar barcha korxonalarda o'tilishiga sharoitlar yaratuvchi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va ularni tegishli darajada tasdiqlash.

Ta'lim tizimini boshqarish deganda – ta'lim sohasida davlat siyosatini shakllantirish; uning qonuniy asoslarini yaratish; ta'lim jarayonini standartlashtirish; moliyaviy rejalashtirish va ta'minlash; ta'lim muassasalarini samarali boshqarish va nazorat qilish; ta'lim sifatini baholash tizimi tushuniladi.

Oliy ta'lim sohasida boshqaruv ma'muriyat, professor-o'qituvchilar jamoasi, oliy ta'lim muassasasida ta'lim olayotgan shaxslar, ota-onalar, jamoatchilik va boshqa turli tashkilotlarning kadr, moddiy-texnik, tashkiliy, pedagogik va boshqa vazifalarni hal qilish asosidagi ishtiroki, o'zaro hamkorligini ko'zda tutadi. Boshqacha aytganda, oliy ta'lim sohasida boshqaruv faoliyati o'z ichiga tahlil, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, ijroni tashkil etish, nazorat va rahbarlik kabi tarkibiy qismlarni qamrab oladi. Mamlakatimizda oliy ta'lim sohasida boshqaruv tuzilmasi uch bo'g'indan iborat: 1) oliy ta'lim muassasasi doirasidagi boshqaruv; 2) mahalliy boshqaruv; 3) davlat miqyosidagi boshqaruv.

Hozirgi vaqtida mamlakatda ta'lim darajasi qancha yuqori bo'lsa, uning iqtisodiyoti shuncha samarali rivojlanishi, ishsizlik darajasi past va umrning uzoqlik darajasi shuncha yuqori bo'lishi shak-shubhasiz bir hol sifatida qaraladi. Bundan tashqari, aholi bilim darajasining yuqoriligi jamiyat hayotining boshqa sohalariga, masalan, davlat boshqaruvining sifatiga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'lim sohasida boshqaruvni isloh etishning asosiy tendensiyalari ta'limni boshqarish modellari doirasida rivojlanmoqda. Xususan, Fransiya Milliy Assambleyasi tomonidan 2004 yilda Yevropa Ittifoqi uchun tayyorlangan ma'ruzada ta'limni boshqarishning ikkita modeli farqlanishi qayd etilgan: boshqaruvning markazlashgan modeli (Fransiya) va federal model (AQSh). Birinchi modelga ko'ra, ta'lim tizimini boshqarishning barcha dastaklari davlatga tegishli bo'lsa, ikkinchi modelga binoan, vakolatlarning kattagina qismi (ta'lim muassasalarini saqlash, moliyalashtirishning ayrim masalalari, akkreditatsiya qilish va boshqa masalalar) mintaqaviy va mahalliy hokimiyat vakolatiga mansub bo'ladi.

Jahon banki tomonidan tayyorlangan ma'ruzada esa, ta'lim sohasida

vakolatlarni ta’lim sohasidagi markaziy davlat idorasi(vazirliklar)dan quyiga o’tkazishning uchta asosiy modeli taklif qilingan:

birinchidan, vakolatlar boshqaruvning joylardagi organlariga (boshqarmalar, bo‘limlar) o’tkazilishi mumkin (AQSh, Germaniya, Kanada); bunda ta’lim sohasidagi markaziy organ davlat ta’lim siyosatini amalga oshirishni muvofiqlashtirish funksiyasini amalga oshiradilar;

ikkinchidan, vakolatlar ixtisoslashtirilgan agentliklarga o’tkazilishi mumkin (bunda agentlik garchand davlatga tegishli bo‘lsada, rasman vazirlikning bir qismi bo‘lmaydi, u o‘zining boshqaruv apparatiga ega bo‘ladi va vazirlikning alohida funksiyalarini bajaradi). Bunday ta’limni boshqarish tizimi ko‘proq, Avstraliya va Buyuk Britaniya kabi davlatlar uchun xos bo‘lib, ular davlat va jamoatchilik ishtirokidagi tashkilotlari miqdori ko‘pligi bilan tavsiflanadi. Masalan, Buyuk Britaniyada Oliy maktabni moliyalashtirish bo‘yicha Kengashdan tashqari, o‘qitish sifatini baholash va monitoring qilish (Sifatni ta’minlash agentligi), statistik ma’lumotlarni to‘plash (Oliy maktab statistikasi bo‘yicha agentlik) uchun mas’ul bo‘lgan tashkilot va alohida tahliliy tadqiqotlar bo‘yicha mustaqil organ (Oliy maktab tahliliy instituti) faoliyat ko‘rsatadi;

uchinchidan, vakolatlar bevosita universitetlarga taqdim etiladi. Bunda markaziy organ strategik boshqaruvni amalga oshirish bilan cheklanadi. Bunday tizim milliy tizimlarda kichik doiralarda qo‘llaniladi.

Ayni damda Fransyaning Grenobl shahridagi II universitet xodimi N.Mons ta’lim sohasida menejment konsepsiyasini boshqacha asosda shakllantiradi hamda markazlashtirishdan chetlashish prinsipiiga asosan o‘zining tasnifini taklif qiladi: 1) vakolatlarni “minimal” o’tkazishga asoslangan mamlakatlar (la décentralisation minimale – Fransiya, Portugaliya, Gresiya, Luksemburg, Yaponiya, Koreya kabi davlatlarda qo‘llaniladi, ularda oliy ta’lim sohasida lavozimga tayinlash, ta’lim muassasasi attestatsiyasi, aniq fanlar bo‘yicha talaba va o‘qituvchilarga o‘quv yuklamalari hajmini belgilash va boshqa shu kabi masalalar ta’lim sohasidagi markaziy organ (ta’lim sohasidagi vazirlik) tomonidan belgilanadi); 2) vakolatlarni “o‘rtacha, mutanosib” o’tkazishga asoslangan mamlakatlar (la décentralisation collaborative – Skandinaviya davlatlari, Polsha, Chexiya kabi davlatlarda qo‘llaniladi, ularda davlat ta’lim standartlarini belgilab beradi: majburiy o‘quv kurslarini o‘rnatadi, ularning o‘quv hajmini, ish haqi miqdorini belgilaydi va b.q.; ayni damda ta’lim sub’ektlari mahalliy darajada pedagogik strategiyani tanlashda, kadrlarni olishda erkin bo‘ladi); 3) vakolatlarni “qat’iy” quyi bo‘g‘inlarga o’tkazgan mamlakatlar (la décentralisation volontariste – Vengriya, Yangi Zelandiya, Ispaniya kabi davlatlarda qo‘llaniladi, ta’lim sohasini boshqarishni markazlashtirish siyosatidan butkul voz kechganlar, ushbu

davlatlarda davlatning faqatgina muvofiqlashtirish va nazorat qilish funksiyalari saqlanib qolgan; mahalliy hokimiyat organlari esa, ta'lim tizimi sohasida bevosita tezkor boshqaruvni amalga oshiradilar, shu maqsadda tegishli qarorlar qabul qiladilar; oliv ta'lim muassasalari bu sohada yuqori darajada mustaqil bo'ladilar); 4) federal tuzilishga ega davlatlarda ta'lim sohasidagi hokimiyat vakolatlarini o'tkazish (AQSh, Braziliya, Germaniya, Kanada, Shveysariya). Ushbu tizim mazkur davlatlarda bir vaqtning o'zida markazlashtirish va markazlashtirishdan chekinish tendensiyalari amal qilishi bilan tavsiflanadi. Xorijiy mamlakatlarda islohotlar asosan ta'lim muassasasi erkinligi va mustaqilligini kuchaytirishga qaratilgan.

1.2. Mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh etishda xorijiy davlatlar tajribasini o'rghanishning o'rni.

Horijiy davlatlar oliv ta'lim tizimi rivojlanish tendensiyalarining qiyosiy tahlili natijasida, yetakchi davlatlarning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishi, milliy, tarixiy an'analari asosida shakllangan jihatlarini o'rghanish katta amaliy ahamiyatga ega. Ta'lim standartlarini mukammal ishlab chikarish va yagona ta'lim makonlarini shakllantirish tajribasi Yevropa Ittifoqida o'z ifodasini topmoqda. Ta'lim mazmunining ma'lum bir makonda bir hil standartlar asosida shakllantirilishi asosida mutaxassislar sifat darajasida tayyorlash imkoniyatini berib, ularning raqobatdosh bo'lishiga imkoniyat yaratadi.

Yevropadagi oliv ta'lim muassasalari katta tarixga ega ta'lim muassasalaridan hisoblanadi. XII—XIII asrlarda ko'plab Yevropa mamlakatlarida (Italiya, Ispaniya, Fransiya, Angliya) dastlabki universitetlar ochila boshlandi. Ularda faqat uchta fakultet mavjud edi, bular ilohiyot, tibbiyat va yuridik fakultetlari. Dastlabki universitetlarda o'qish davomiyligi 5-6 yilni tashkil etgan.

Yevropadagi ta'lim tizimida Buyuk Britaniya OTMlari alohida o'rin tutadi. Buyuk Britaniyaning ta'lim tizimidagi eng katta boyligi, bu uning universitetlaridir. ularning tarixiga, asos solingan vaqtiga bog'liq holda, shartli ravishda ularni uch guruhga ajratish mumkin. Ulardan birinchisi, O'rta asrlarning 1096 va 1209 yillarda tashkil topgan va bugungi kunda butun dunyoga mashhur Oksford va Kembridj universitetlaridir. Bu guruhga Shotlandiyaning Sent-Endryus, Glazgo, Aberdin va Edinburg universitetlarini ham kiritish mumkin.

Ikkinci guruhga XIX asrlarda London, Manchester, Liverpul, Bristol, Reding va bir qator ishlab chiqarish revolyusiyalari sodir bo'lgan shaharlarda tashkil etilgan qizil g'ishtli universitetlarni misol qilish mumkin. ularning binolari asosan g'ishtlardan qurbanlar. "Qizil g'ishtli" universitetlaridan bir nechasi Britaniya oliv ta'limi reytingida yetakchi hisoblanadi.

Nihoyat, XX asrlarda, ikkinchi jahon urushidan keyin tashkil etilgan, binosi shisha va beton materiallaridan qurilgan “shishali” universitetlarni keltirish mumkin. Bunday universitetlar Nottingem, Sasseks, Uorvik, Kent, Kil, Ekseter, Esseks shaharlarida tashkil etilgan. Ular orasida xalqaro mavqeyga ega bo‘lganlari ham mavjud, masalan Uorvik (University of Warwick). Sanab o‘tilgan universitetlar yil sayin yuqori reyting natijalarini ko‘rsatib bormoqda.

1.2.(a) Buyuk Britaniyaning ta’lim tizimi

Yevropa Ittifokida oliv ta’lim bo‘yicha yagona makonning shakllanishi va rivojlanishiga xukumatlararo kelishilgan va imzolangan, ta’lim tizimi mobillikni ta’minlovchi BOLONYa DEKLARATSIYASI sabab bo‘ldi. Shuni ta’qidlash lozimki, Buyuk Britaniya doimo ta’lim sohasida Yevropa davlatlari o‘rtasidagi integratsiya va kooperatsiyaning faol ishtirokchisi bo‘lib kelgan.

1988 yilda imzolangan Sorbona Deklaratsiyasining to‘rt ishtirokchila-ridan biri Buyuk Britaniya edi. Bolonya jarayoni va Deklaratsiyaning asosiy maksadi yuqori ta’lim sifatiga erishishga karatilgan bo‘lib, ta’lim muassasalari aro bahslar, debatlar, ta’lim sifatini ta’minlash, akkreditatsiya o‘tkazish masalalari bo‘yicha, sifat kafolati bo‘yicha, Britaniya Agentligi muhim faoliyat olib bordi. (Quality Assurance Agency for Higher Education QAA) mustaqil organ oliv ta’lim muassasalari va kolledjlar tomonidan moliyalashtiriladi. Bu agentlik oliv ta’lim sifatini ta’minlash bo‘yicha Yevropa Assotsiatsiyasi tarkibiga kiradi. (European Association for Quality Assurance in Higher Education, ENQA).

Britaniya Yevropa Ittifoqining oliv ta’lim sifati bo‘yicha kafolat- langan tamoyillari va ichki, tashqi standartlari bilan keng ma’noda keli- shuvni ifoda etsada, o‘zining ta’lim tizimida boshqa YeI davlatlaridan farqli sifat nazorati tizimini joriy etgan.

Jahon oliv ta’limining qiyosiy tahlillariga ko‘ra Britaniya oliv ta’limi eng yaxshi tizim hisoblanadi. Oksford va Kembridj universitetlari o‘z nufuzi va mavqeい bilan butun dunyoga tanilgan. Britaniya hukumati oliv ta’limda horijiy talabalarning tahsil olishini rag‘batlantiradi. Hozirda ta’lim olayotgan 2mln. talabandan 300 ming nafari horijlik talabalardir.

Britaniyada 90 ta universitet va 64 ta boshqa turdagи oliv ta’lim muassasalari mavjud. Britaniya universitetlariga o‘qishga kirish uchun “A-levels” imtixonlarini topshirish kerak bo‘ladi. Shotlandiyada bu imtixon – “Scottish highers” deb ataladi. Ularga Yevropa dasturi International Baccalaureate bo‘yicha muvaffaqiyatli 2 yil tayyorgarlikdan so‘ng universitetga o‘qishga qabul qilinishi mumkin. “A-levels” keng qo‘llaniladigan, klassik britaniya dasturi bo‘lib hisoblanadi. Britaniya universitetlari bu dasturga asosan talaba 20-30 ta fandan 4 tasini tanlaydi. 4 fandan chuqurlashtirilgan bilim oladi, bu fanlardan universitetga

kirish imtihoni topshiriladi. Abiturientlar tomonidan mutahassislik oldindan tanlanadi.

Shotlandiyada “Scottish highers” dasturi asosida 1 yil ta’lim olinadi va bu tayyorgarlik Buyuk Britaniyaning barcha 1993 yilda mamlakat hukumati tomonidan TA’LIM VA KADRLAR TAYYORLASH bo‘yicha MILLIY maslahat kengashi tashqil etildi. (National Advisory Council for Educationand Training Targets – NACETT).

Buyuk Britaniya ta’lim tizimini boshqarish, moliyalash va ta’lim siyosatini o’tkazish to‘rt davlat departamenti tomonidan belgilanadi. Ular quyidagilar:

1. Ta’lim va bandlik departamenti (Department for Education and Employment – DFEE) Angliyada;
2. Ta’lim departamenti (Welsh Office Education Department – WOED) Uelsda;
3. Ta’lim va sanoat departamenti (Scottish Office Education and Industry Department – SOEID) Shotlandiyada;
4. Ta’lim departamenti (Department of Education for Northern Ireland – DENI) Shimoliy Irlandiyada.

Buyuk Britaniyada ta’lim tizimining monitoringiga juda katta ahami- yat beriladi. Angliya ta’lim tizimining Markaziy boshkaruv organi – Fan va Ta’lim Departamenti hisoblanadi. (Her Magesty's Inspectorate – HMI) – ta’lim sifatini nazorat qiluvchi Qirollik inspesiyasi an’anaviy ravishda hukumat organlariga maktab va kollejlardagi ta’lim sifati tug‘risida hisobot beradi. Angliyada vazirlikka tegishli bo‘lmagan ta’lim standartlari bo‘yicha hukumat departamenti (OFSTED) maktablarni iinspeksiya nazoratidan o’tkazadi va ta’lim sifati, standartlarga rioya qilinishi, ta’lim bosqichlari talablariga moslik to‘g‘risida hisobot tayyorlaydi.

Yevropa oliv ta’lim bo‘limi (UK HE Europe Unit) sifat kafolati bo‘yicha ta’lim agentligi orqali universitetlardagi ta’lim sifati bo‘yicha monitoring o’tkazadi. Oliy ta’lim sifati ustidan nazorat o’tkazib, Yevropa Ittifokida ta’lim sifati bo‘yicha ishlanmalar ustida ishlaydi. Agentlikning maqsadi oliv ta’lim darajasini berishda sifatni kafolatlash va kadrlar tayyorlashni standartlar asosida amalga oshirish, nazorat qilish.

Yevropa mamlakatlarida oliv ta’limi sfatini baholash juda qiyin jarayon bo‘lib, bir necha bosqichdan iborat. Bu jarayon avval o‘z-o‘zini baholashdan boshlanadi (auto- evaluation, self-assessment). Bu bosqichda OTM barcha faoliyat yunalishlari bo‘yicha mikdoriy ko‘rsatkichlarni to‘plab tahlil qiladi. Ma’lumotlar (Higher Education Management Statistics, HEMS), OTMlarni tegishli hizmat bo‘limidan olinadi. Bu bo‘lim davlat miqiyosida faoliyat

ko‘rsatadi. Shu bilan birga o‘quv yurti oliy ta’lim muassasalarini moliyalash Kengashiga Higher Education Funding Council (HEFC), anketa to‘ldirib berishi kerak. Axborotlar tahlili asosida SWOT-tahlilni o‘tkazadi. Strengths (kuchli tomonlari), Weaknesses (kuchsiz tomonlari), Opportunities (imkoniyatlar), Threats (havf – xatarlar). Yakuniy hisobot tayyorlanib, ta’lim muassassasi ekspert baholanishidan 10 hafta avval inspeksiyaga topshiriladi.

Ekspertlar oliy o‘quv yurtida ob’ektiv baholashni amalga oshirish uchun barchani, talabalardan tortib, professor o‘qituvchilar, ma’muriy personal, ilmiy tadqiqotchilarni savolnomalar asosida so‘rovnama qiladi. So‘ngra ikki hafta ichida o‘quv yurtiga yakuniy hisobot tayyorlab yuboradi. Hisobot bo‘yicha ta’lim muassasasi tushintirishlar berishi yoki ko‘rsatilgan kamchiliklarga nisbatan e’tiroz berishi mumkin. Shundan so‘nggina hamma narsa oydin bo‘lishi uchun hisobot tegishli ta’lim nashrlarida chop etiladi.

Buyuk Britaniyaning milliy sifat tizimini belgilashda talabalar ham ishtirok etadilar. Hozirda Sifat bo‘yicha Agentlikning Direktorlar boshqaruvi kengashida talabalar vakili nazoratchi sifatida ishtirok etadi. Bu vakil “Talabalar Milliy Ittifoqi” tomonidan tayinlanadi. Talabalar ta’lim jarayoni sifatini baholash va auditida muhim rolni o‘ynashadi. Angliya va Irlandiyada talabalar yozma ravishda o‘z fikr muloxazalari va takliflarini berishadi. Talabalar uchun maxsus «Institutsional audit bo‘yicha – talabalar vakiliga qo‘llanma» beriladi. Auditning barcha bosqichlari majlis va kengashlarida talabalar vakili qatnashadi.

Buyuk Britaniyaning ta’lim tizimi bir necha yuz yillar davomida rivojlanib kelgan va bugungi kunda aniq bir sifat standartiga bo‘ysunadi. Buyuk Britaniyada ta’lim 5 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan barcha fuqarolar uchun majburiydir.

Buyuk Britaniyada ta’limning ikkita sektori mavjud: davlat (bepul ta’lim) va xususiy (pullik o‘quv yurtlari, xususiy maktablar).

Ta’lim tizimini globallashuvida yevropa mamlakatlarining o‘rni alohida. UNESCO va OECDning 2012 yildagi ma’lumotiga asosan mamlakatda 3,5 mln talaba ta’lim olgan, shulardan 427 mingtasi – xorijiy fuqarolar. Shuningdek 27 mingga yaqin Buyuk Britaniya talabalari xorijda o‘qiganlar.

Ta’lim tizimi

Buyuk Britaniyada ta’lim tizimida oliy maktabgacha turli xil maktablar mavjud. Bu yerda keng tarqalgan maktab turi – maktab-internatlardir (Boarding School). Bunda o‘quvchilar maktabda o‘qish bilan birga, u yerda yashaydilar. Dastlab bunday maktablar o‘rta asrlarda Britaniyada tashkil etilgan va bepul, xayriya tarzida o‘quvchilar o‘qitilgan. Ammo bugungi kunga kelib ushbu maktablar pulli maktablarga aylangan va endilikda bu maktablar dunyodagi eng qimmat va e’tiborga molik maktablar ro‘yxatiga kiradi.

Hozirda Buyuk Britaniyada maktab ta'lim tizimi shakllanib bo'lgan. Ularni quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkin:

- Maktabgacha ta'lim muassasalari – 2 dan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangandir. Bu yerda o'yinlar asosida o'qishni, yozishni, sanashni o'rGANADILAR.
- To'liq sikldagi maktablar – bu yerda 3 dan 18 yoshgacha bo'lgan bolalar ta'lim oladi.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilari uchun o'quv yurtlari

• **Primary schools** – 2 dan 11 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar o'qiydilar. Ikkinchi bosqich imtihonlari natijalari Secondary School maktablariga o'qishga kirish uchun muhim hisoblanadi.

• **Junior Schools** – 7 dan 13 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun. Bu yerda bolalar turli xil boshlang'ich umumta'lim fanlarini o'qiydilar va Common Entrance Examination imtihonini topshiradilar. Ushbu imtihonlarni ijobiy topshirish – yuqori maktabga albatta qabul qilinadi.

Yuqori maktabda ta'lim olish

• **Senior Schools** — balog'at yoshidagi 13 dan 18 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan. Bu yerda bolalar dastlab GCSE imtihonni topshirish uchun ikki yillik ta'lim jarayonidan o'tadilar, shundan keyin o'quvchilar yana ikki yillik A-Level yoki International Baccalaureate dasturni o'qiydilar:

- *Secondary school* – 11 yoshdan keyingi bolalar uchun mo'ljallangan.
- *Grammar school* – 11 yoshdan katta bo'lgan bolalar uchun chuqurlashtirilgan dastur asosida o'qitishni tashkil etishdir. Bunday maktablarda universitetga kirish uchun tayyorgarlik ko'rishlari mumkin (Sixth Form).
- Universitetga kiruvchilar uchun mo'ljallangan maktablar (Sixth Form) – 16-18 yoshli yuqori o'rta yoshdagilar uchun.

Buyuk Britaniyaning oliy ta'lim tizimi

Bugungi kunda deyarli barcha OTMlarida ta'lim tizimida bakalavriat va magistratura yo'naliishlari mavjud. Shuningdek ularda kredit tizimi keng qo'llaniladi. Buyuk Britaniyada kredit tizimi talaba tomonidan olingan bilim darajasini, talabalar almashinuvini belgilab beruvchi vosita sifatida qaraladi.

Buyuk Britaniyada o'ziga xos, bir necha bosqichdan iborat bo'lgan oliy ta'lim tizimi shakllangan. Bu yerda olingan diplom va darajalarga butun dunyo bo'yicha ish beruvchilar "sifat belgisi" sifatida qaraydilar. Ushbu mamlakat boy tarixiy an'analar va shu bilan bir vaqtida ochiq innovatsiyalarga egadir. Bu davlatda yer yuzi aholisining 1% yashaydi, ammo barcha ilmiy ishlarning 8%ini nashr etadilar. Bu mamlakatda 100 dan ortiq nobel mukofoti sovrindorlari mavjud.

Britaniyadagi OTMlarning soni 180 tadan ortiq bo‘lib, ularning kattagina qismi (102) universitetlar hisoblanadi, shuningdek ularning aksariyati – davlat tasarrufidadir. Davlat ta’lim berish siyosatini yuritishni OTM ixtiyoriga topshiradi, ta’lim berish sifatini nazorat qilishni esa, ular zimmasiga yuklangan.

Ko‘p bosqichli ta’lim modeliga muvofiq oliy ta’lim ikki bosqichda amalga oshiriladi: bakalavriat (Degree courses yoki Undergraduate courses) va magistratura (Postgraduate studies). Angliya, Uels va Shimoliy Irlandiyada odatdagidek uch yillik bakalavriatura dasturi, Shotlandiya uchun esa to‘rt yillik (tibbiyot uchun – olti yillik). Kurslarni tugallaganidan so‘ng bitiruvchiga Bachelor’s Degree darajasi beriladi (First Degree). Magistraturada o‘qish esa boshqa davlatlardagi ikki yillik magistraturadan farqli ravishda, bu yerda odatda magistraturada 1 yil o‘qish davom etadi. Magistraturadagi xorijiy talabalarning ulushi bakalavriatura dasturida o‘quvchi talabalar sonidan ko‘proq bo‘ladi va umumiy talabalar sonining 45%gacha qismini tashkil etadi.

Dastlabki akademik daraja ikki xil bo‘ladi – a’lo va oddiy. A’lo darajani berishga qaratilgan o‘quv kurslarida chekli sondagi fanlar (ko‘pgina hollarda asosiy fanlar va bir-ikkita qo‘srimcha fanlar) chuqurlashtirilgan holda o‘qitiladi. Oddiy darajani berishga qaratilgan o‘quv kurslarida esa fanlar soni ko‘proq bo‘ladi.

Buyuk Britaniyada o‘quv yili oktabr oyida boshlanadi va har biri 8-10 haftani o‘z ichiga olgan uchta chorakdan iborat bo‘ladi. Yozgi ta’til davomiyligi esa to‘rt oy – 1 iyundan 30 sentabrgacha davom etadi.

Buyuk Britaniya OTMlarida asosiy mashg‘ulot turlari ma’ruza, seminarlar, laboratoriya ishlari va tyutorlik asosida ta’lim olish kabi mashg‘ulotlar hisoblanadi. Bu yerda asosiy e’tibor talabalarning mustaqil ta’lim olishiga, ishlashiga qaratiladi. Amaliy mashg‘ulotlar o‘quv rejasidan tashqarida tashkil etiladi va o‘quv vaqtiga kiritilmaydi.

Universitetlarda imtihon tizimi hartiya asosida tashkil etiladi va ko‘pgina hollarda ikkita asosiy imtihon o‘tkaziladi – o‘quv yilining 1-kursi va 3-kurslari yakunlarida; imtihon natijalari asosida, odatda o‘zlashtirish darajasining turi va darajasi aniqlanadi. Oliy o‘quv yurti bitiruvchilarini universitet va milliy malaka akademiyasi kengashi bo‘yicha akademik daraja oladi.

Britaniya universitetlarining birinchi kursiga qabul qilinish uchun asosiy talablar to‘liq o‘rta ta’limni olganlik haqidagi A-level sertifikatiga ega bo‘lganlik yoki halqaro sertifikat *International Baccalaureate (IB)*ga ega bo‘lganlik hisoblanadi.

IB dasturi 12 yillik o‘qishga mo‘ljallangan. Ushbu tizim asosida ishlovchi maktablar dunyoning ko‘plab mamlakatlarida topiladi. IB to‘liq kursini

tamomlagan va britaniya universitetlariga o'qishga kirmoqchi bo'lgan abituriyentlardan qo'shimcha imtihon olinmaydi; abituriyent hujjatlarini va kursni tugallash imtihonlari natijalarini o'zi kirmoqchi bo'lgan OTMga (yoki bir nechta OTMlari) jo'natishi va qabul komissiyasi qarorini kutishi yetarli. Abituriyentning umumiy ballari qancha yuqori bo'lsa, o'qishga qabul qilinish ehtimolligi ham shuncha yuqori bo'ladi.

O'qishga qabul qilinishning yana bir yo'li - Foundation tayyorlov kursida o'qish. Dastur bir qator universitetlar hamkorligida tuzilgan bo'lib, xorijiy abituriyentlarni o'qishga kirishga ijobiy tayyorlaydi.

O'quv yurtining turidan qat'iy nazar universitetga tayyorlov kurslari quyidagilarga etibor qaratadilar: ingliz tilini takomillashtirishni nazarda tutish; mакtab bilimlarini takrorlash va tizimlashtirish; yangi fanlarni o'zlashtirish (biznes, menedжment, matematik statistika, falsafa va boshqalar); akademik bilimlarni o'zlashtirish (ma'ruza matnlari tayyorlar, esse yozish, qisqa ma'ruzalar tayyorlash, referatlar tayyorlash va himoya qilish va h. k.).

Universitet kollejlarning universitetlardan asosiy farqi faqat ularning hajmlaridadir. Qoidaga ko'ra ushbu o'quv yurtlari chekli sondagi fakultetlar va ko'p bo'lмаган talabalar miqdoridan tashkil topadi. Shu bilan birga, universitet kollejlarda ko'p hollarda kuchli ilmiy markazlar mavjud bo'ladi, ularning diplomlari esa juda yuqori baholanadi.

Politexnika institutlarida asosiy e'tiborni texnika mutaxassisligi bo'yicha chuqurlashtirilgan fanlarni o'qitishga qaratadi. Bugungi kunda "politexlar" va an'anaviy universitetlar o'rtasidagi farqni bartaraf etish tendensiyasi bormoqda. Buning natijasida bir qator «politexlar» universitet maqomini olgan.

Oliy ta'lim kollejlari maxsus o'quv yurtlari hisoblanadi va ular bakalavr yo'nalishi doirasida kadr tayyorlash bo'yicha yetuk muassasa hisoblanadilar. Ular odatda aniq bir yo'nalishlardan biri bo'yicha ishlaydilar. Bularga pedagogika, musiqa, teatr, dizaynerlik, rassomlik va boshqa shu kabi kollejlarni qo'shish mumkin.

Britaniyaning Boloniya jarayoniga kirganligiga qaramay bir qator oliy o'quv yurtlari kredit tizimiga o'tish uchun tayyor emasligi haqida talabnama bilan murojaat qilishgan. Bunday o'quv yurtlarida ta'lim tizimi uzoq davr mobaynida o'rnatilgan va ular uchun bu tizim eng samarali hisoblanadi. Ushbu holatni Kembridj va London iqtisodiyot maktablari (LIM) misolida alohida ko'rib o'tamiz.

Kembridj universiteti va LIM ning ta'lim tizimi

Anglyadagi OTMlardagi har bir fakultetning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda majburiy o'zlashtirilishi lozim bo'lgan fanlar mavjud va qolgan fanlarni

talabalar o‘zlarining mutaxassisliklari, qiziqishlariga mos ravishda o‘zlarini tanlaydilar. Majburiy o‘qitilishi kerak bo‘lgan fanlar ro‘yxati minimum darajaga keltirilgan.

Masalan LIMda falsafa fakultetida bakalavrlik diplomini olish uchun quyidagi fanlarni o‘zlashtirilishi talab etiladi:

Birinchi yil

- Reason, Knowledge and Values: An Introduction to Philosophy (Falsafaga kirish);
- Logic (Mantiq);
- Two outside options (ikkita qo‘sishma fan).

Ikkinchi yil:

- Philosophy of Science or Philosophy of the Social Sciences or Evidence and Scientific Method (Falsafa, Ijtimoiy fanlar falsafasi, Reallik va ilmiy bilish usullari);

- Up to three papers on the Philosophy list;

- An approved outside option (tanlangan qo‘sishma kurs).

Uchinchi yil:

- Up to four papers from the Philosophy Selection list;

- An approved outside option.

Bakalavriat yo‘nalishining birinchi yilida Xorijiy falsafa tarixi fanida (7.5, 216 s.), Mantiq (7.5, 216 s.). Ikkinchi bosqichda eng “salmoqli” fan – Bilishning ontologiyasi va nazariyasi (8, 270 s.), Xorijiy falsafa tarixi (8, 270 s.).

Talabalar shaxsiy ta’lim strategiyasini tuzish vaqtida o‘zlarining individual o‘quv rejasini tuzadilar. Ular o‘zlarini yoqtirgan va tanlagan fanlar bo‘yicha ma’ruzalarga qatnashishlari mumkin. Talabalar o‘quv jarayoni vaqtida o‘quv kurslarini almashtirish imkoniyatiga egadirlar. Fakultet talablarida ko‘rsatilgan kreditlar to‘plab bo‘linganidan so‘ng, talabalar, fakultet doirasidan tashqari fanlarni ham shaxsiy xohishlariga ko‘ra tanlab o‘qishlari mumkin.

Buyuk Britaniyaning ko‘plab o‘quv yurtlarida ta’limning fanlararo munosabat usuli qo‘llaniladi. Masalan, Kembridjda, ijtimoiy fanlar fakultetida o‘zida bir qator fanlar (masalan, «Sotsiologiya va siyosat», «Siyosat va Menedjment») elementlarini aks ettirgan kombinatsiyanashgan mutaxasisliklar mavjud. Barcha universitetlarning birinchi kursida fundamental fanlarga kirish qismlari o‘qitiladi. Ular keyingi kurslarda chuqurlashtirilgan holda o‘rganilishi mumkin.

Buyuk Britanyaning aksariyat OTMlarida o‘quv davomiyligi 3 yil bakalavriat va 1 yil magistraturada amalga oshiriladi (davomiylik mutaxasislikka va kursning intensivligiga bog‘liq bo‘ladi). LIM da 3 yil mobaynida umumiy

holda 14 ta fan o'qitiladi, shulardan 10 tasi asosiy.

Yakunda talabalar o'zlashtirishlariga ko'ra turli darajadagi diplomlarni oladilar, ya'ni talabalar yutuqlariga bog'liq holda turlicha sifatdagi diplomlar oladilar – Birinchi daraja (First Class Honours), Ikkinci Oliy Daraja (Upper Second Class Honours), Ikkinci quyi Daraja (Lower Second Class Honours), Uchinchi daraja (Third Class Honours), Tugallaganligi haqidagi oddiy diplom (Pass). Diplomlarning bunday sinflashtirilishi LIMda mavjud.

Bilimlarni baholash tizimi

Barcha imtihon, ilmiy va boshqa ijodiy ishlarni baholash 100 ballik shkala asosida olib boriladi. Shuningdek keyingi bosqichga, kursga o'tish uchun baholash tartibi quyidagicha: qoniqarsiz baholar olib tashlanadi, uchta fandan olingan natijalarning o'rtacha arifmetigi hisoblanadi va yakunda bitta natija olinadi (har bir kursda 4 ta majburiy fanlar mavjud bo'ladi). Ya'ni, to'rtta fan, modul uchun yagona baho qo'yiladi. Har bir o'quv yili uchun alohida baho qo'yiladi va ular bakalavr diplomida aks ettiriladi. Shuni ta'kidlash joizki, baholashdagi baholar turli OTMlarda turlicha hisoblanadi. Eng muhim, ijobiy baholanish uchun minimum 50 ball to'plash talab etiladi.

LIM da quyidagi baholash tizimlari mavjud:

- 0–39 ballar – umuman qoniqarsiz;
- 40-49 ballar - qoniqarsiz;
- 50-59 ballar - ijobiy;
- 60-69 ballar - yaxshi;
- 70-100 ballar – a'lo.

LIMda bakalavr diplomini olish uchun barcha o'quv rejasidagi har bir fanlardan kamida 50 ball to'plashi kerak. Kembridjda barcha fanlardan 100 ballik tizimdan umumiy holda 35 balldan kam bo'limgan ball to'planganidan keyingina bakalavr diplomini olishi mumkin.

Ushbu OTMda malakanib baholash mezoni kreditga qarab emas kompleks natijalarga asosan amalga oshiriladi. O'zlashtirish natijalari o'qilgan soatlar yoki kreditlar miqdori bilan emas, ta'limning ijobiy natijalarini olganligi bilan baholanadi.

Yakuniy attestatsiya. Kembridj – imkoniyatlar tanlovi

Talabalar har bir o'quv yili yakunida hisobot topshiradilar va ularning attestatsiya shakli turlicha ko'rinishda bo'lishi mumkin. Masalan, Kembridj universitetida talabalar birinchi kurs yakunida 4 ta yozma imtihon topshiradilar va ularning har biri 3 soatdan davom etadi. Ikkinci bosqichda ham natijalar yozma ishlar asosida baholanadi, shu bilan birga talabalar tomonidan tanlangan fanlar natijalari ham o'z ulushini qo'shadi. Yakuniy baho uchta yozma ish natijalarining

o‘rtachasidan olinadi – qolgan qismi esa imtihon asosida baholanadi. Kembridj universiteti talabalari uchinchi yil yakunida quyidagi ikkita baholash usullaridan birini tanlashi mumkin: oddiy yozma imtihon yoki 10000 ta so‘zgacha hajmdan iborat bo‘lgan (bakalavr malakaviy ishi) diplom yozish.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Buyuk Britaniya Boloniya jarayoniga qo‘shilgan dastlabki davlatlardan biri bo‘lishiga qaramasda, o‘zidagi ta’lim tizimi islohatlarini juda sekinlik bilan amalga oshirmoqda. Buning asosiy sababi sifatida, jamiyat va oliv ta’lim muassasalarining konservativ xususiyatga ega ekanligidir. Bu davlat OTMlari o‘z-o‘zini ta’minlovchi muassasalar sifatida butun olamga tanilgan.

1.2. (a) Germaniya Federativ Respublikasi ta’lim tizimi

Germaniya Federativ Respublikasida ta’lim tizimi avvaldan xatti-harakatlarning kompetentliligiga yo‘naltirilgan o‘zgacha yondashuv asosida tashkil etiladi. Yondashuvning o‘ziga xosligi shundan iboratki, bunda asosiy e’tibor kasbiy ta’lim tizimining o‘quv rejalariga qaratiladi. Kompetensiyaning standart tipologiyasi ta’lim muassasalari bitiruvchilarining bo‘lg‘usi kasbiy faoliyati sohasiga yo‘naltirilganligidir. U o‘z ichiga predmetli, shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni oladi.

Germaniyada ta’lim tizimi – hukumatning alohida burchi hisoblanadi.

Maktab ta’limi

Germaniyada maktab ta’limi bepul va umumiy ta’lim hisoblanadi. Majburiy 10-yillik ta’lim shakllantirilgan. Umuman olganda maktab yoshidagi ta’lim 12-13 yilga mo‘ljallangan. Bugungi kunda Germaniyada 50 mingga yaqin maktabda 12.5 millionga yaqin o‘quvchilar ta’lim oladilar. Maktab ta’lim tizimi uch bosqichga ajratiladi: boshlang‘ich, 1-o‘rta bosqich va 2-o‘rta bosqich.

Olti yoshga to‘lgan barcha bolalar boshlang‘ich maktabda o‘qishni boshlaydilar (Grundschule). Boshlang‘ich maktabda o‘qish to‘rt yil, haftada darslar 20 dan 30 soatgacha mo‘ljallangan tizim asosida olib boriladi.

O‘rta ta’lim

Ta’limning ikkinchi bosqichi (o‘rta I) 10-sinfgacha davom etadi.

Boshlang‘ich ta’limdan keyin bolalar qobiliyatiga ko‘ra uchta turli guruhlarga ajratiladilar.

Salaxiyati past bo‘lgan, kuchsiz bolalar o‘qishni davom ettirish uchun “bosh maktab” (Hauptschule) deb ataluvchi maktabga yo‘naltiriladi, bu yerda 5 yil mobaynida o‘qitiladi. Bu yerda asosiy (bazovoe) ta’lim beriladi. O‘rtacha yuklama haftasiga 30-33 soatni tashkil etadi. Ushbu maktabni tugallagan o‘quvchi ishslashni boshlashi mumkin, yoki kasb-hunarga yo‘naltirilgan ta’lim muassasasida o‘qishni davom ettirishi mumkin. O‘rtacha natijaga erishgan

o‘quvchilar «haqiqiy maktab» (Realschule)ga yo‘naltiriladilar va u yerda 6 yil o‘qiydilar. Haqiqiy maktabni tugallaganidan so‘ng o‘quvchi ishga joylashishi mumkin, ko‘proq qobiliyatli bolalar esa 11 va 12 – sinflarni o‘qish uchun gimnaziyalarga borishlari mumkin. Gimnaziyadan keyin o‘quvchiga universitetga kirish huquqini beruvchi attestat beriladi.

O‘rta ta’limning ikkinchi bosqichi (srednee II) gimnaziyalarda 11-12-sinflarni o‘qishga qaratilgan. Gimnaziyaning o‘n uchinchi sinfi o‘quvchilari abituriyentlar hisoblanadi. O‘n uchinchi sinfda o‘quvchilar oliy o‘quv yurtiga kirishga tayyorgarlik ko‘radilar. Ushbu sinf oxirida gimnaziya o‘quvchilari asosiy maktab fanlari bo‘yicha imtihon topshiradilar (Abitur). Gimnaziyada 12 va 13-sinf o‘quvchilari o‘quv tizimi va bitiruv imtihonlari darjasini juda yuqori. Germaniyada oliy o‘quv yurtiga kirish imtihonlari o‘tkazilmaydi. Qabul attestatning o‘rtacha bahosiga, shuningdek bir qator ijtimoiy faktorlarga ko‘ra amalga oshiriladi. Agar qabul qilinuvchilar soni kvotadan ortiq bo‘lsa, eng yaxshilari olinadi va qolganlar navbatga yoziladi, ular keyingi yilda o‘qishga qabul qilinishi mumkin.

Oliy ta’lim

Oliy ta’lim tizimi OTMning turiga ko‘ra turlicha bo‘ladi. Germaniyada 250 ta OTM mavjud bo‘lib, shulardan 103 ta universitet va 176 tasi amaliy fanga yo‘naltirilgan OTMlardir. Universitetlarning deyarli barchasida ta’lim olish ham xorijiy talabalar, ham mahalliy talabalar uchun bepul hisoblanadi. 2007 yildan boshlab bir qator OTM talabalariga har semestr uchun 500 yevroga yaqin mablag‘, va yo‘l xarajati hamda kutubxonadan foydalanish uchun yana qo‘srimcha 150 yevroga yaqin miqdordagi pul mablag‘larini to‘lash belgilab qo‘yilgan. 2011 yildan so‘ng o‘qish uchun har semestrda to‘lanuvchi 500 yevro pul miqdorlari bekor qilingan. Talabalar soni 2 mln.ga yaqin, shulardan 48%ga yaqini ayollar va 250 000 xorijiy talabalar. Professor-o‘qituvchilar tarkibi 110 000 ga yaqin. Taxminan 120 000 ga yaqin nemislar xorijda ta’lim oladilar. 2010 yilga qadar boloniya jarayoni bo‘yicha barcha OTMlari o‘zlarining o‘quv dasturlarini qayta qurib chiqishlari talab etilgan. Germaniyada aksariyat OTM davlat tasarrufida, xususiyatlari esa ko‘p emas – 69 ta.

Xorijiy talabalar uchun alohida bilim va imtiyozlar talab qilinmaydi.

Germaniyada universitet o‘quv sharoiti va undagi ta’lim beruvchi professor-o‘qituvchilar darajalari reytingi doimiy aniqlab turiladi, shuningdek ushbu universitetni tugatgan talabalarini ish topa olish ehtimolligi ham aniqlanadi.

Germaniyada 25 yoshgacha bo‘lgan talabalar ota-onalari 184 yevro miqdorida “bolalar puli” (Kindergeld) mablag‘ olishlari mumkin. Talabalar esa foizsiz ta’lim kreditlarini olishlari mumkin («BAfsG»). Ushbu kredtning yarmi,

10000 yevrodan ko‘p bo‘lmagan qismi keyinchalik davlatga albatta qaytarilishi mumkin (bunday to‘lov majburiyatidan OTMni tamomlaganining birinchi yilida farzandli bo‘lgan talabalar ozod qilingan).

Kreditlar va stipendiylar turli fondlar tomonidan joriy qilinadi. Germaniyada asosan qobiliyatli talabalarga stipendiylar to‘lanadi. Xorijiy talabalarga stipendiylar assosan Germaniya Akademik Almashinish Xizmati (www.daad.ru) tomonidan amalga oshiriladi. Quyidagi yirik fondlar mavjud: Konrad Adenauer fondi (Konrad Adenauer Stiftung), Fridrix Ebert fondi (Friedrich Ebert Stiftung), NaFsg. Ushbu fondlar faqat Dissertatsiya (Promotionsstudium) yozish uchun stipendiya beradilar.

Germaniyadagi ta’lim tiziga ko‘ra talaba ma’ruza, seminar, amaliyot darslariga bepul qatnashishi mumkin va ularga qatnashish majburiy deb belgilab qo‘yilmagan. Nemis oliy maktabi barcha joyda o‘zining asosiy ta’lim prinsiplarini – akademik erkinlikni da’vat qiladi. Har bir OTM talabalarga aniq bir mustaqillik va erkinlik beradi.

Germaniyada oliy ta’limning qat’iy belgilab qo‘yilgan tizimi mavjud emas. Ya’ni o‘qish tizimi qat’iy emas – har qanday talabaga to‘la mustaqillik taqdim etilgan. Ammo bu shaxsiy javobgarlik va intizomni inkor qilmaydi. Talaba kursdoshlari bilan mashg‘ulotlarga qatnamasligi mumkin, ammo u albatta aniq bir mutaxasislikni va kerakli OTM dasturini tanlashi talab etiladi. U o‘zining dasturi bo‘yicha bilim olish davrida, umumiy talablarga ko‘ra reja tuzishi va vaqtini taqsimlashi kerak bo‘ladi.

Talabalar ma’ruza, amaliyot, seminar mashg‘ulotlariga erkin holda qatnashadilar. Aksariyat talabalar standart o‘quv muddati ichida o‘qishni tamomlamaydilar, shuning uchun, ular ajratilgan besh yildan ko‘p muddatga OTMdagi o‘qishga majburdirlar.

Germaniyada o‘quv jarayoni turlicha OTMlarida amalga oshiriladi. Bular quyidagilardan iborat:

- Universitetlar;
- Maxsus institatlarda – meditsina, pedagogia va boshqalar;
- Oliy musiqa va san’at maktablari;
- Oliy amaliy fan maktablari;
- Kasb-xunar akademiyalari.

Universitet ta’limi ikki qismga ajratiladi:

- Fundamental – bu 3 - 4 semestrli o‘qish bo‘lib, uni tugallagan talabalar “litsensiat” darajasiga ega bo‘ladi;
- Asosiy – bu 4 - 6 semestrli o‘qish hisoblanib, ijobiy tugallagan talabalar magistrlik diplomini olishi mumkin. Texnika yo‘nalishi talabalari esa –

mutaxasislik diplomini oladilar.

Nemis ta'lim tizimida katta ommboplikka ega bo'lgan maktab, bu oliy maktabdir. U yerda talabalar qisqa dastur asosida o'qitiladi. 3 - 4 yil ichida o'quvchilar muxandislik, tibbiyot, menedjment, kompyuter industriyasi, iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalar bo'yicha bilim oladilar. Bunday o'quv yurtlari "doktor" akademik darajasiga ega bo'lgan diplomlarni berish huquqiga ham egadirlar.

Kasb-xunar akademiyalarida talabalar uchinchi darajali deb nomlanuvchi bilimlarni olishlari mumkin. Bu yerda o'quv jarayoni ishlab chiqarish jarayoni bilan birgalikda olib boriladi. O'quv jarayoni yakunida bitiruvchiga ishlab chiqarish yoki iqtisodiyotning ko'plab sohalarida ishlashi uchun yaroqliligin tasdiqlovchi bakalavrlik diplomi taqdim etiladi. O'qish 3 yil davom etadi, shulardan 2 yili asosiy o'qish va 3-yili kasb-xunar bo'yicha o'qish.

Dual o'qish tizimi

Yaqin muddatlardan beri Germaniyada o'quv yurtlarida nazariy bilimlarni olish bilan bir qatorda ish beruvchi-korxonada ishslash asosida amaliy tajribalarni ham orttirib borishga yo'naltirilgan ta'lim usuli keng tarqalib bormoqda. Bu ta'lim berishning dual tizimi hisoblanadi. Germaniyada ushbu tizim an'anaviy ta'lim tizimidan farq qiladi va Federatsiya oliy ta'lim vazirligining ma'lum qilishicha, nemis maktablari bitiruvchilarining taxminan 60% Duales Studium tizimida o'qishni davom ettirish xohishini bildirganlar.

Dual ta'limda egallanishi mumkin bo'lgan mutaxasisliklar ro'yxati qonun darajasida belgilab qo'yilgan. Bugungi kunda bunday mutaxasisliklar soni 350 taga tengdir. O'zaro kesishuvchi ta'limlarni davlat qat'iy nazoratga oladi.

Duales Studium tizimi 2 - 3 yil davom etadi. Ushbu o'qish vaqtি davomida o'quvchi haftasiga 3-4 kun o'zi bilan shartnoma tuzgan firmada ishlaydi. O'quvchilar 8 dan 12 soatgacha kasbiy bilimlarni oladilar va yakunda davlat imtihonlarini topshiradilar. Agar imtihondan o'ta olmasa, uni qayta topshirishi mumkin. O'quv jarayonining ma'lum qismini xorijda o'tkazish maqsadga muvofiq deb topilmoqda.

Talaba yashashi va oziq-ovqati uchun stipendiya oladi. Har yilda ko'nikma va bilimi ortib borgan talabalarga orttirgan tajribasiga va bilimiga muvofiq yuqoriyoq stipendiya belgilab boriladi. Bundan tashqari qator ish beruvchilar qo'shimcha xarajatlar uchun ham to'lovlar joriy qilgan. Bunday to'lov larga yo'l kira haqqi bilet, kitob sotib olish, xona ijerasi, noutbuk ijerasi va boshqalar kiradi.

Ushbu ta'lim turi quyidagi ijobiylar xususiyatlarga ega:

- Ta'limning dastlabki bosqichlaridan boshlab amaliy bilim va

ko‘nikmalarga ega bo‘lib boriladi;

- O‘qish tamom bo‘lganidan so‘ng talabaninng amaliyot o‘tagan korxonasida ish topish ehtimolligi yuqori bo‘ladi.

Dunyo sivilizatsiyasiga rivojlangan Yevropa mamlakatlari qatori bir qator rivojlangan Osiyo mamlakatlari ham o‘z xissalarini qo‘sib kelmoqda. Bu mamlakatlarga Xitoy Xalq Respublikasi, Yaponiya, Janubiy Koreya Respublikasi, Singapur, davlatdarini sanash bilan birga, jadal rivojlanishni yo‘lini tanlagan Xindistonne ham keltirish mumkin. Bu davlatlarning iqtisodi rivojlangan bo‘lib, ularni ta’lim tizimlarini tahlil etish va ulardagi ijobiliy tomonlarini tanqidiy o‘rganish zarur. Chunki, yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, ta’lim tizimi, uning tashkil etilishi davlat rivojlanishining belgilovchi faktoridir.

1.2.(b). Xitoy Xalq Respublikasi ta’lim tizimi.

Modullimizda Xitoy, Janubiy Koreya va Yaponiya davlatlarini ta’lim tizimlarini taxlil qilish lozim deb hisobladik. Ma’lumki Xitoy mamlakatining tarixi juda uzoq. Dastlabki maktablar eramizdan ancha ilgari vujudga kelgan. Qadimgi xitoy faylasuf va pedagoglari eramizdan avvalgi V-IV asrlardayoq ta’lim tizimi bilan shug‘illana boshlaganlar. Ular tashkil etgan o‘qitish tizimlari, ma’lum qandaydir strukturaga ega bo‘lgan. Davlatda o‘sib borayotgan yoshlarni ta’lim tarbiya ishlarini tashkillashtirish ma’lum darajada qiyinchiliklar ham keltirib chiqargan.

Xitoyda so‘nggi 30 yil mobaynida har qaysi oila bittadan bolaga ega bo‘lishi siyosati yurgizilishi sababli o‘quvchilar soni ancha kamaydi.

Boshlang‘ich maktab o‘quv rejasiga 9 ta predmet : axloqiy tarbiya, ona tili, arifmetika, jamiyat (tarix, geografiya) tabiatshunoslik, jismoniy tarbiya, ashula va musiqa, badiiy tarbiya, mehnat talimi kiritilgan. Ana shu asosiy o‘quv predmetlaridan tashqari, haftada 6-8 soat faoliyatning har xil turlariga : mustaqil tayyorlanishga 1-2 soat , sinf majlislari o‘tkazishga 1 soat, sport uyinlariga 2-3 soat , qiziqishlar buyicha mashg‘ulotlarga 2 soat ajratiladi.

Xitoyda oliy talim jarayonida talabalar uchun ibratli shart-sharoitlar yaratilgan. Avvalo universitetlar kontingentiga mamlakatning demografik holati o‘z tasirini ko‘rsatgan. Masalan: birgina Shanxay universitetining o‘zida 26 fakultet bo‘lib, 33 000 talaba bakalavriat va magistraturada o‘qydi. Kupchilik professor-o‘qituvchilar AQSh da malaka oshirib kelishadi. Hozirgi kunda universitetda “Zamonaviy kommunikatsion va axborot texnologiyalari”, “Raqamli tizimlar xavfsizligi”, “Kompyuter grafikasi va WEV dizayn” kabi fanlar o‘qitilmoqda. Oliy talim tizimida o‘qitishning kredit tizimi joriy etilgan. Bu omil talabalarning mashg‘ulotlarga qatnashishi, mustaqil ishlashi va ilmiy izlanishga

jalb etilishiga ijobiy tasir etgan[19]. Ta'lim tizimini tashkil etishda davlat 4 bosqichdan iborat maxsus dasturni qabul qilgan. Bu xar bir davrning maqsad vazifalari alovida ko'rsatib o'tilgan va ularni moliyalashtirish yo'l yo'riqlari ham alovida belgilangan.

XXRning " Majburiy talim haqidagi Qonun "iga ko'ra talim bepul, faqat o'quv darsliklari, daftar va o'quv qurollari uchun haq olinadi, xolos. Bepul talim hisoblangan boshlang'ich talim muassasalari davlat tasarrufida bo'lib, o'quvchilar yashash manziliga ko'ra qabul qilinadi.

O'qitishning kredit tizimida bakalavr diplomiga ega bo'lish uchun jami 311 kredit yig'ishi kerak. Har bir kredit 10 soat maruza darslari davomida to'planadi. Amaliy darslardan 20 soat mashg'ulotda 1 kredit to'planadi. Talabalar o'qishni 4 yilda tugatishi shart emas. Lekin 8 yildan ortiq o'qish ham mumkin emas. Agar talabalar kreditlarning 80 % ini to'plasa, bakalavr diplomiga ega bo'ladi.

Mamlakat oliy o'quv yurtlarida davomatga alohida etibor beriladi, agar talaba 1 fan buyicha mashg'ulotlarning 1/3 qismini qoldirsa (agar kasallik varaqasi bo'lsa ham), o'z-o'zidan imtihonga kiritilmaydi va shu fan bo'yicha kreditni bajara olmaydi. Natijada talaba oliy o'quv yurtidan chetlashtiriladi va kelgusi o'quv yilida shu fanni o'qishga va kredit to'plashga majbur bo'ladi.

Talabalarga fanlarni tanlab o'rganish uchun katta imtiyozlar berilgan. Masalan:fizika fakultetining talabasi matematika va mexanika fakultetlaridan o'zini qiziqtirgan fanlarini tanlab o'qishi mumkin. Universitetlar ilmiy tekshirish muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari bilan mustahkam aloqaga ega. Universitetlarda ixtisosliklar bo'yicha kichik ishlab chiqarish korxonalari mavjud. Amaliy mashg'ulotlar bevosita ana shu korxonalarda olib boriladi. Talaba mashg'ulot davomida birorta sxema, loyiha yoki detalni o'z qo'li bilan yasab ko'rsatishi kerak. Laboratoriya mashg'ulotida tayyorlangan mahsulot umumiy texnikaviy nazoratdan o'tgach, o'quv topshirig'i bajarilgan hisoblanadi. Oxirgi kurslarda ishlab chiqarish korxonalaridan, muassasalardan vakillar kelib, suhbat asosida bo'lajak mutaxassis – talabani tanlab oladi va oliy talim muassasasiga shartnomaga asosida pul o'tkazadi. Bunday omil imkon qadar talabalarning o'zi egallayotgan ixtisoslikning malakali egasi bo'lishiga undaydi.

Mamlakatda oliy ta'lim shartli ravishda qismlarga bo'linadi. Oliy talimning muhim qismi bo'lgan va yuqori bosqichdagi o'rta talim bazasida amalga oshirilayotgan kasbiy oliy talim hozircha rivojlanishning boshlang'ich bosqichida turibdi. U 87 ta kasbiy-texnik institatlarda, qisqa muddatli kasbiy universitetlarda, maxsus texnikumlarda, qayta qurishni amalga oshirayotgan o'nlab oliy maxsus o'quv yurtlarida, kattalar uchun 188 mutaxassislik bo'yicha 133 ta oliy o'quv yurtlarida taxesil oladilar. Undan tashqari 18 ta o'rta texnikumda oliy kasbiy talim

guruhlari tashkil etilgan. Bu oliy kasbiy o‘quv muassasalari amaliy va texnologik sohadagi malakali texnik ishchilarni tayyorlaydi. Kasbiy talimni rivojlantirish dasturiga ko‘ra Xitoy yaqin kunlarda oliy kasbiy talim tizimini isloh qilish ustida kattaishlarni amalga oshirishni rejalashtirmoqda. Bunga misol qilib, chet ellardan yuqori malakali professor-o‘qituvchilarni qisqa vaqtлага ma’ruza o‘qish uchun taklif etilishi va ba’zi xollarda yuqori malakali chet ellik xodimni kontrakt asosida ishga qabul qilinishini misol sifatida keltirish mumkin.

Xitoyda oliy ta’lim 3 xil ko‘rinishga ega:

- maxsus o‘quv dasturlardan iborat kurslar (o‘qish muddati 2-3yil);
- bakalavriatura (4-5 yil);
- magistratura (2-3);

OO‘Yuni bitirgach, talabalarga ta’lim davlat attestasiyasini topshirgandan keyin mos daraja beriladi:

- bakalavr,
- magistr.

Xozirda Xitoyni ko‘pchilik universitetlarida doktorlik programmasi bo‘yicha fan doktorlar tayyorlanmoqda. Oliy ta’lim tizimi o‘z ichiga universitet, kollej va oliy kasbiy maktablarni oladi, hamda o‘zining nufuziga ko‘ra bir necha ierarxik kategoriyalarga bo‘linadi.

Xitoyda, xuddi G‘arb davlatlaridagi kabi mutaxassislarni uch bosqichli tayyorlov bosqichi mavjud:

- Bakalavriat – o‘qish muddati 4-5 yil. Bu bosqichni tugatganlar “Bakalavr” maqomi bilan tugallangan oliy ta’lim oladilar.
- Magistratura – o‘qish muddati 2-3 yil.
- Aspirantlar uchun ta’limning ikki bosqichi mavjud: aspirantura va doktorantura. Aspiranturada ta’lim oluvchilar aniq bir mutaxassislik fanlari bo‘yicha kurslarni tinglaydilar. Doktorantura – o‘qish muddati 2-3 yil, ba’zan 4 yil.


Xitoy davlatida ta’lim bo‘yicha quydagи qonunlar va qonun osti hujjatlar qabul qilingan [22]:

- “Xitoy Xalq Respublikasining ta’lim to‘g‘risida”gi;
- “Xitoy Xalq Respublikasining majburiy ta’lim olish to‘g‘risida”gi;
- “Xitoy Xalq Respublikasining oliy ta’lim to‘g‘risida”gi;
- “Xitoy Xalq Respublikasining kasbga yo‘naltirilgan ta’lim to‘g‘risida”gi;
- “Xitoy Xalq Respublikasining o‘qituvchilar to‘g‘risida”gi qonunlari.

Xitoyda ta’lim sohasidagi qonun osti hujjatlar:

- “Xitoy Xalq Respublikasida ilmiy darajalar to‘g‘risidagi yo‘riqnomasi”si;
- “Ta’limdagi muvaffaqiyatlari uchun taqdirlash to‘g‘risida”gi nizom;

- “O‘qituvchilar mandati xususida”gi nizom;
 - “Bolalar bog‘chalarini boshqarish haqida”gi nizom va boshqalar.
- Umumiy tarzda Xitoy ta’lim tizimini strukturasi 1-rasmida keltirilgan.



1-rasm. Xitoy ta'lim tizimining strukturasi.

Xitoyda oliy malumotga ega bo‘lish juda ham obro‘li sanaladi. Milliy kadrlar tizimi orasida oliy talim eng yetakchi o‘rinni egallaydi. Oliy talim olishga akademik profildagi o‘rta maktab bitiruvchilari va maxsus texnik maktab bitiruvchilari haqli. Maktab bitiruv imtixonida to‘plangan ball natijalariga ko‘ra oliy talimga kirish imtixonlariga qo‘yiladi. Universitetlariiga kirish qat’iy raqobat sharoitida o‘tadi va ba’zi universitetlarda bitta o‘ringa 200-300 kishi to‘g‘ri

keladi.

Oliy o‘quv yurtlariga kirish uchun abituriент 7 ta fan bo‘yicha maxsus imtihon topshiriladi.

Xitoyda davlat tomonidan ta’minlanadigan oliy o‘quv yurtlaridan tashqari kontrakt asosida ta’lim beruvchi oliy talim muassasalari ko‘p, lekin shartnoma asosida o‘qishga kirish ham juda qiyin. Iqtidorli yoshlar uchun tekin o‘qish imkoniyati bor. Undan tashqari, bazi hollarda talaba ishlagan muassasa o‘qish uchun pul to‘laydi. Iqtidorli talabalar davlat stipendiyasi yoki tashkilot va muassasa subsidiyalari ko‘rinishidagi imtiyozlarga ega.

Hozir aksariyat talabalar bir hil tartibda o‘qishga qabul qilinadilar va o‘qishga pul to‘laydilar. Moliyaviy yordam kerak bo‘lgan talabalarga bank krediti ajratilib, stipendiya oladilar. Faqat 1998 yilning o‘zida 8957 ta tadqiqotchiga doktor ilmiy darajasi berildi, 38051 ta kishi magistr bo‘ldi.

Xitoy o‘z Oliy o‘quv yurtlariga chet ellik talabalarni qabul qiladi, o‘z talabalarini chet elga o‘qishga va malaka oshirishga jo‘natadi. Birgina 1998 yil Xitoy 164 ta davlatdan 43084 talabani o‘qishga qabul qildi. Xitoydan chet elga o‘qishga ketgan talabalar soni 23 mlnni tashkil etdi. Xitoy Oliy o‘quv yurtlari 2/3 qismi davlat tasarruffida, qolgan 1 qismi xususiy bo‘lib, hozirgi kunda 3 mingta Oliy o‘quv yurtlarida 20 million talaba tahsil olyapti[22] .

O‘zbekiston va Xitoy ta’lim tizimining qiyosiy tahlili 5-jadvalda keltirilgan [24].

Nº	Ta’lim turi	Xitoy	O‘zbekiston
1	Maktabgacha talim	3-6 yoshgacha	2-7 yoshgacha
2	Boshlang‘ich talim	6-12 yoshgacha	7-11 yoshgacha
3	To‘liqsiz o‘rta maktab (O‘zbekistonda o‘rta ta’lim)	12-15 yoshgacha	11-16 yoshgacha
4	To‘liq o‘rta maktab (O‘zbekistonda litsey va kolledj)	15-17 yoshgacha	16-18 yoshgacha
5	Oliy o‘quv yurti (bakalavriat)	4 yil	4 yil

5-jadval. Xitoy va O‘zbekiston ta’lim turlari

Ikki davlat ta’lim tizimlaridagi ba’zi bosqichlarini va holatlarini quydagicha taqqoslash mumkin:

- Xitoya oliy talimning magistratura va doktarantura bosqichlari mavjud;
- O‘zbekistonda esa magistratura, va doktorantura bosqichlari mavjud;
- Xitoy 9 yillik majburiy talim joriy etgan;
- O‘zbekistonda 12 yillik majburiy talim mavjud;

- Xitoyda 9 yillik majburiy talim olganlar miqdori 99, 3 % ni tashkil etadi;
- O'zbekistonda bu ko'rsatkich 99, 5 % dan iborat;
- Xitoyda 9 yillik talim bepul;
- O'zbekistonda 12 yillik majburiy talim bepul;
- Xitoyda oliy o'quv yurtida faqat iqtidorli talabalargagina stipendiya beriladi;
 - O'zbekistonda esa 55 % dan ortiq ball to'plagan barcha talabalar stipendiyalar bilan taminlanadi;
 - O'qish yili aynan bizdagiday, Xitoyda ham sentabrdan boshlanadi va iyulgacha davom etadi; Xitoy talabalari uzoq qishki tatilga chiqadilar - dekabr oxiridan fevralni boshiga qadar;
 - O'zbekistonda esa qishki tatil 28 dekabrdan – 10 yanvargacha davom etadi, yozgi tatil iyul, avgust oylarida o'tadi;
 - Xitoyda kattalar uchun talim mavjud. Unda etibor savodsizlikni tugatishga ham qaratilgan;
 - O'zbekistonda kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish talimi bor.

Xitoy davlatini ta'lim sohasida olibborayotgan o'zgarishlar o'zini ijobiy natijalarini bermoqda. Bunga misol qilib Pekin universitetini dunyo universitetlari orasida birinchi 20 talik reytingiga kirishini qo'rsatish mumkin.

1.2.(b). Janubiy Koreya Respublikasi ta'lim tiizimini qiyosiy tahlili.

Keyingi yillarda Janubiy Koreya davlatini fan va texnika sohasida erishgan yutuqlarini tan olmaslik mumkin emas. Chunki ularni zamonaviy texnika va texnologiyalar ishlab chiqarish bo'yicha tutgan o'rirlari nixoyatda yuqori.

Malumki Koreya 1910 yildan to 1945- yilgacha yapon mustamlakasi hisoblangan. Koreyani yoppasiga savodsizga aylantirish siyosati natijasi o'larоq, 1944 yilgi Koreya Umumiy Arxiv qo'mitasi malumotlariga qaraganda o'sha paytda Koreyaning savodxonlik darjasи bor-yo'g'i 13, 8%ni tashkil etган. 1945 yili Ikkинчи Jahon urushi bilan birga Koreyadagi Yaponiya mustamlakachiligi ham tugadi. Endilikda Koreada tabiiyki boshqa sohalar qatori talim tizimini o'zgartirish vazifasi turardi. Buning uchun "Talimni rivojlantirish qo'mitasi" tashkil etildi va qo'mita oldiga ta'lim tizimi uchun darsliklar yaratish majburiyati qo'yildi. Talim tizimi tadqiq etilishi davom ettirilib, axloq, etika, texnikaga oid fanlar kiritildi. 1963 yillardan boshlab esa talim tizimida tabiiy va ijtimoiy fanlarga etibor kuchaydi. 1981 yili Prezident Chon Du Xvan mamlakatda shaxsiy talim berish va xususiy talim maskanlari faoliyatini qonunan taqiqlab qo'ydi. Lekin maktabda mustaqil shug'ullanish uchun imkoniyatlar yaratib berdi. 1992 yilga kelib esa boshlang'ich maktablar faoliyati yanada rivojlanishi uchun

xukumat tomonidan bir qancha imtiyozlar berilgan.

Koreya ta’lim tizimi bosqichlari quyidagilardan iborat:

- 6 yillik boshlang‘ich maktab;
- 3 yillik asosiy o‘rta maktab;
- 3 yillik yuqori maktab;
- 4 yillik kollej;
- 4 yillik universitetlar.
- shuningdek, 2 va 3 yillik maxsus va kasbiy – texnik kollejlar mavjud.

Yuqori mактабнинг 1- kursiga o‘quvchilar 17 yoshdan qabul qilinib 19 yoshgacha tahsil oladilar. Ular bir necha turlarga bo‘linadi : davlat yuqori maktablari (Koreya Talim va Texnika fanlari vazirligi, Madaniyat, Jismoniy tarbiya va sayyoхlik vazirligi boshqaradi), Umumiy yuqori maktablar (Har bir viloyatdagi yuqori tashkilotlar tomonidan boshqariladi), Shuningdek, yuqori maktablar o‘qitish fanlariga ko‘ra ham bir qancha turlarga bo‘linadi : umumiy maktablar, ixtisoslashtirilgan maktablar (qishloq xo‘jaligi, sanoat, dengiz xo‘jaligi, axborot), maxsus maktablar (litsey shaklidagi maktab), texnika maktablari, chet tili mактabi, jismoniy tarbiya mактabi, sanat maktablari. Koreya Respublikasida Talim vazirligi maxsus tashkil etgan yuqori maktablar ham bor. Bular asosan qishloq xo‘jaligi, baliqchilik, sanoat, xalqaro tillarga ixtisoslashgan bo‘ladi. Yuqori mактab o‘rta mактab kabi majburiy emas biroq 2005 yilgi malumotlarga qaraganda 97% koreys yoshlari yuqori mактabni tamomlaganlar. Bu juda yuqori ko‘rsatkichdir.

Koreyaning eng mashxur Universitetlari :

Seul Milliy Universiteti, Inxa universiteti, Koreya fan va texnologiyalar texnikasi instituti, Pusan milliy Universiteti, shuningdek xususiy universitetlardan : Koreys Universiteti, Pohang Universiteti, Yonsei Universiteti, Sogang Universiteti, Hanyang Universiteti, Sungkyunkwan Universiteti va Evha Womans EwhaWomansUniversiteti.

Seul Milliy Universitetiga (Seoul National University) 1946 yilda asos solingan bo‘lib, u bugungi kunda Osiyo va dunyo miqiyosidagi yetakchi universitetlardan biri hisoblanadi va Seul shahrida joylashgan. Xorijiy talabalar soni va almashinish dasturiga ko‘ra ushbu universitet Janubiy Koreyaning yetakchi o‘quv yurtlaridan hisoblanadi. Talabalar va professor-o‘qituvchilarning tabiiy fanlar va muhandislik sohalarida olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari dunyo miqiyosida ijobjiy e’tirof etilgan.

Universitet huzurida 16 ta kollej va 5 ta kasb-ta’lim maktablari mavjud. 2007 yilda bugungi kunda yuqori natijalar berib o‘zini oqlab kelayotgan “Uzoq muddatli taraqqiyot rejasi” qabul qilingan. Asosiy ustuvor yo‘nalishlar

quyidagilardan iborat:

- 2010 yilda ta'limga global masshtabda yuqori darajaga ko'tarish;
- 2015 yilda ilmiy-tadqiqot rejalarini dunyo miqiyosiga chiqarish;
- 2025 yilda dunyo tadqiqot universitetlari orasida yetakchi o'rinni egallash.

Dunyoning yetakchi kompaniyalari tomonidan universitetning bitiruvchilariga bo'lgan talab pasayib ketmasligi uchun universitet har yili o'z strategiyasini ishlab chiqadi.

Jahon miqiyosidagi Osiyo universitetlar reytingi «QS Asian University Rankings» bo'yicha Seul Milliy Universiteti 2012 yilda 4-o'rinni egalladi. Shuningdek shu yilda, Butun jahon yaxshi universitetlari reytingi «QS World University Rankings» bo'yicha universitet 42-o'rinni egallagan. Ma'lumotlarga ko'ra universitetda 2011 yilda 28 018 ta talaba o'qigan va shulardan 7712 tasi magistratura dasturi va 2 904 tasi doktorantura dasturi bo'yicha ta'lim olgan.

Inxa universiteti 1954 yilda Prezident Li Sin Man tashabbusi bilan koreylarning Gavay orollaridan ko'chirilishining 50 yilligi bayrami munosabati bilan, hamda Janubiy Koreya sanoati sektori rivojini oshirish orqali Osiyoda fan va texnika, kompyuter texnologiyalari, robototexnika va sun'iy tafakkur sohalarida yetakchilikka erishish maqsadida tashkil etilgan. Ushbu universitet Janubiy Koreyaning ko'p yillik tarix va salohiyatga ega universitetlari orasida yildan yilga o'zining munosib o'rnini egallab bormoqda. OTMning asosiy maqsadi «INHA Vision 2020» loyihasini amalga oshirish orqali jahoning 100 ta yetakchi OTMlari qatoriga kirishdan iboratdir. Universitet Osiyoning Shimoliy-sharqidagi Inchon shahrining moddiy-texnik markazida joylashib, yirik «Hanjin Group» logistik kompaniyasi bilan yaqin hamkorlikda logistika sohasida jadal rivojlanmoqda. Universitet axborot texnologiyalari, biotexnologiyalar va nanotexnologiyalar sohasida XXI asrda uzoq muddatga mo'ljallangan strategik rivojlantirish milliy loyihasini ishlab chiqishda faol ishtirot etib kelmoqda. Universitet hayotidagi eng muhim voqealari ularni jahoning dengiz oldi va port shaharlarida joylashgan eng yaxshi OTMlari o'z ichiga olgan «Global U8 Consortium» hamjamiyatiga qo'shilishi bo'ldi. Bu hamjamiyatga Avstraliya, Xitoy, AQSh, Isroil, Fransiya Buyuk Britaniya va Janubiy Koreya mamlakatlarining yetakchi OTMlari kirgan. Hozirgi vaqtida Inxa Sondon xalqaro shaxarchasida ikkinchi kampusni qurmoqda va ilmiy tadqiqot axborotlarni almashinish bo'yicha global tarmoqda yetakchi tarkibiy qism bo'lishni rejalashtirmoqda.

Universitetning ta’lim tizimi va sharoiti quyidagi jadvalda keltirilgan.

O‘quv jarayoni	
Fakultetlar (bakalavriat)	Texnika fakulteti, AT fakulteti, tabiiy fanlar fakulteti, iqtisod va tijorat fakulteti, biznes oliv maktabi, pedagogika fakulteti, huquq fakulteti, sotsiologiya fakulteti, gumanitar fakultet, biologiya fakulteit, tibbiyot fakulteti, Osiyo-Tinch okean logistika instituti, san’at va jismoniy tarbiya fakulteti (jami 13fakultet 56 mutaxassislik)
Institutlar (magistratura)	Markaziy institut, axborot va kommunikatsiya instituti, logistika oliv maktabi, pedagogika instituti, texnika instituti, menejment oliv maktabi, davlat boshqaruv instituti, xalqaro tijorat va logistika instituti, yurisprudensiya instituti, tibbiyot fanlari instituti (jami 10 ta fakultet va 83 mutaxassislik)

6-jadval. Inxa universiteti fakultetlari va institutlari

190 dan ortiq predmetlar ingliz tilida olib boriladi.

Yashash sharoitlari			
Bino (№) xona turi, inventar, narxlar (nonushta va kechki ovqat ichida)			
Umumiy yotoqxona №1 (1,010 o‘rin)	4 o‘rinli.	Krovat, konditsioner, telefon, internet, o‘quv qurollari	850,000 von (1 semestrga)
Umumiy yotoqxona №2 (1,150 mest)	4 o‘rinli.	Krovat, konditsioner, telefon, internet, o‘quv qurollari	900,000 von (1 semestrga)
	2 o‘rinli.	Krovat, konditsioner, telefon, internet, o‘quv qurollari	1,2870,000 von (1 semestrga)
	2 o‘rinli.	Alovida hojatxona va yuvinish xonasiga ega xona	1,440,000 von (1 semestrga)

N2-jadval. Inxa universitetida yashash sharoitlari.

Koreya davlatida oliv ta’lim tizimida o‘qish asosan kontrakt asosidatashkil etilgan. Ta’lim tizimi dunyo standartlari asosida olib borilib, kredit tizimini

tashkil etadi. Talaba biror mutaxassislik bo'yicha sertifikat olishlari uchun o'rnatilgan kredit ballarini yig'ishi zarur. Xar bir talaba mutaxassisliklar bo'yicha o'rnatilgan majburiy fanlardan tashqari ixtiyoriy fanlarni tanlashi, o'z o'quv grafiklarini o'zları belgilashi lozim. Oliy maktablarda gurux termini ishlatilmaydi. Xar bir talaba fanlarga aloxida, o'zi tanlagan grafik bo'yicha fanlarni o'rganadilar. Koreya universitetlarida "Moodle" tizimi keng yo'lga qo'yilgan. Ta'lim oluvchi darslarga to'la qatnashishi shart emas. U ba'zi mavzularni mustaqil o'rganishi mumkin.

Bu mamlakatni ta'lim tizimidagi yana bir yutug'i shundaki, ularda masofaviy ta'lim kurslari keng tashkil etilgan, ularda ta'lim olish uchun katta mablag' talab etilmaydi.

Talabalar oliy maktabga kirish imtihonisiz qabul qilinadi. Xar bir universitetni o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, iqtidorli talabalarga stipendiyalar(yoki o'qish tannarxidan chegirmalar) tashkil etadi. Bu ham talabalarni o'qishga bo'lgan qiziqishlarini ma'lum darajada ortiradi.

1.2.(b). Yaponiya ta'lim tizimini tashkil etilishi va uning tahlili.

Iqtisodiy rivojlanish darajasi jihatidan Yaponiya dunyoda Amerika Qo'shma Shtatlaridan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Jahonning ko'zga ko'ringan mutaxassistlari va iqtisodchilari Yaponiya rivojlanishidagi bu yuksalish mamlakatda talim tizimlari taraqqiyotiga berilgan yuqori darajadagi etibor samarasi, deya qayd etadilar. Buning asosi mavjud. Mamlakatda sanalgan, talim tizimlarini takomillashtirib borilishiga hukumat, xususiy kompaniyalar, jamoat tashkilotlari, ota-onalar keng miqiyosida qatnashishini etiborga olish yetarlidir.

Yapon talim tizimlarining shakllanishi 1867-1868 yillardagi mamlakat hukmdori Meydzi tomonidan amalga oshirilgan islohotlarga borib taqaladi. Bu hukmdorning o'z oldiga qo'ygan ikki qatiy shiori bo'lib, biri «Fukoku kioxsi» - boyish, mamlakatni mustahkamlash va harbiylashtirish, ikkinshisi esa «Siokusan kogio» - ilg'or G'arb ishlab chiqarish texnologiyasi asosida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish edi. Meydzi ikki maqsadni amalga oshirishning bosh omili talim tizimlarini tubdan o'zgartirish va yangilashda deb hisoblardi.

1872 yilda «Talim haqida Qonun» qabul qilinishi ta'limni rivojlanishiga muhim ta'sir ko'rsatdi. Qonunga muvofiq tez orada eski uslubdagi talim tizimi o'rnida mamlakat rivojlanishini taminlashga samarali xizmat qiluvchi yangi yo'nalishdagi 53750 ta boshlang'ish, 256 ta o'rta maktab, 8 ta universitet tashkil etildi. Bu o'quv yurtlaridagi talim shakllari marifatli G'arb talim uslublari bilan uyg'unlashtirildi. 1890 yilga kelib ilgarigi 3-4 yillik boshlang'ish maktablar qatiy 4 yillikka aylantirildi va u bepul o'qitish tizimi amalga oshirila boshlandi.

1908 yildan boshlab Yaponiyada boshlang'ish talim majburiy 6 yillikka

aylantirildi. O‘quv-tarbiya ishlari bepul amalga oshiriladigan bo‘ldi. 1893 yildan etiboran Yaponiyada kasb yo‘nalishidagi dastlabki kollejlar paydo bo‘la boshladi.

Birinchi universitet 1886 yilda Tokioda tashkil etildi. Lekin bu universitetga oliv tabaqali aslzodalarining bolalari qabul qilinardi. Asr boshida mamlakatda ayollar uchun ham universitetlar tashkil etildi. Bu bilim maskanlarida xotin-qizlar uchun faqat xo‘jalik yuritish, oila iqtisodiyotidangina talim beriladi. 1897 yilda Kiatoda ikkinchi universitet ochildi. Ikkinshi jahon urushida Yaponiya mag‘lubiyatga uchragandan keyin mamlakat maorifi tizimlariga Amerika Qo‘shma Shtatlari talim tamoyillari kirib kela boshladi.

1946 yilda qabul qilingan Konstitsiya Yaponiya fuqarolarining talim sohasidagi huquq va burchlarini belgilab berdi. Unda «Layoqatiga ko‘ra barcha fuqarolar bilim olish huquqiga ega. Barcha bolalar bepul umumiy talim olishlari shart» ekanligi belgilab qo‘yilgan.

1947 yilda qabul qilingan «Talim haqidagi Qonun» Yaponiya Konstitusiyasi ruhiga uyg‘un bo‘lib, mamlakatda talimning maqsad va vazifalarini to‘la ifoda etadi. unda, jumladan, shunday deyiladi : «Biz shaxsiy g‘ururi bor, o‘zining qobliyati va imkoniyatiga ishonuvshi, haqiqat va tinchlikni sevuvchi odamlarni tarbiyalaymiz, toki ular ko‘p qirrali madaniyat sohibi bo‘lsinlar». Shunday qilib Yaponianing Talim, fan va madaniyat vazirligi boshqaruvida hozirgi paytda qatiy markazlashgan, ilg‘or xalqaro standartlar darajasida yapon talim tizimi qaror topdi[20].

Hozirgi zamon yapon talim tizimining tarkibi quyidagicha :

- bolalar bog‘chasi;
- boshlang‘ish maktab;
- quyi o‘rta maktab;
- yuqori o‘rta maktab;
- oliv talim.

Xozirda, Yaponiyada o‘quv yili 240 kun yoki Amerika Qo‘shma Shtatlaridagidan 60 kun ko‘pdir. Darslar 7 soatli.

Yuqori bosqich o‘rta maktablarida butun o‘quv jarayonida o‘quvchilar 80 ta sinov topshirishadi. O‘quvchilar majburiy asosiy fanlardan tashqari o‘z hohishlariga ko‘ra ingliz tili, texnik talim va maxsus fanlardan o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga ega bo‘lishlari taklif etiladi.

Bu mamlakat maktablari kompyuterlar va boshqa o‘quv-texnika vositalari bilan to‘la taminlanganligiga qaramay, mutaxassislarining fikricha, asosiy etibor o‘qituvchi faoliyati va darslikka qaratilmog‘i zarur. Ularning ko‘rstishicha, o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi jonli muloqot o‘rnini har qanday takomillashgan mashina ham bosa olmaydi.

Yaponiyada deyarli barcha darsliklar xususiy bosmaxonalarda chop etiladi. Ularni chop etishga mablag‘ni vazirlik ajratadi. Yuqorida qayd etilganidek, darsliklar boshlang‘ich va quyi, o‘rta maktablarda bepul, yuqori pulli maktablarda esa pullidir. Darsliklar narxi shundayki, ularni xarid qilishga hammaning imkoniyati yetarli. Foydalanilgan darsliklar pullik bo‘lsa ham, tekin bo‘lsa ham o‘quvchining o‘zida qoldiriladi.

Yaponiyada o‘qituvchi kadrlarni tayyorlash sifatiga juda katta talablar qo‘yiladi. Bu talablar shundayki, mazkur kasbga iqtidorsiz va yo‘nalishi to‘g‘ri kelmaydigan tasodifiy kishilarning kirib qolishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘qituvchilar 4 yillik universitetlarda va 2 yillik kollejlarda tayyorlanadi. Bu o‘quv yurtlarining bitiruvchilariga birinchi va ikkinchi darajali guvohnoma beriladi. Maktab direktori bo‘lish uchun 1 darajali guvohnomaga ega bo‘lish shart.

Oliy talim doirasiga Yaponiyada universitetlarnigina kiritish mumkin. Universitetlarga katta o‘rta maktablар yoki 12 yillik oddiy dasturda faoliyat ko‘rsatuvchi maktablarning bitiruvchilari qabul qilinadilar.

Malumotlarga ko‘ra, bu mamlakatda 460 ta universitet bo‘lib, ulardan 95 tasi davlat tasarrufida, 34 tasi munitsipial, 331 tasi xususiydir. Ularda 1 million 843 ming talaba tahsil oladi. Talabalarning 77, 4 foizi yigitlar, 22, 6 foizi qizlardir. Aspiranturalarda tahsil olayotgan aspirantlarning bor yo‘g‘i 12, 9 foizi ayollar bo‘lib, ular asosan gumanitar fanlar, sanat, maorif va dorishunoslik sohasida izlanishlar olib boradilar[20].

Kichik kollejlarda esa ahvol buning tamoman aksi bo‘lib, bu yerda erlar 10, 1 foizni, ayollar 89, 9 foizni tashkil etadi. umuman olganda, qishloq xo‘jaligi muhandislikdan tashqari barcha fakultetlarda ayollar ham talim oladilar.

Universitet kafedralari tarkibiga asosan professor, dotsent va o‘qituvchilar kiradi. Xar bir kafedra 4 nafar yuqori kurs talabasini bakalavr dasturida, 4 nafarini magistr va 3 nafarini doktorantura dasturida tayyorlashga masuldir. Kafedralarga shu asosda biriktirilgan talabalar bilan ilmiy-tekshirish guruhalidagidek faoliyat ko‘rsatadilar.

Yaponiya universitetlariga kirish uchun ikki muhim bosqichdan o‘tishi lozim:

- birinchi bosqich davogarlarning turar-joyida amalga oshirilib, ular yapon, eski yapon tili, matematika, fizika, ximiya, jamiyatshunoslik, tarix va boshqa fanlar bo‘yicha test sinovlaridan o‘tadilar. Test sinovi natijalariga ko‘ra, ular qaysi universitetga munosibligi belgilab ko‘rsatiladi. Yuqori natijalarga erishgan abiturientlar Tokio universitetiga, Kioto, Osako, Sapporo universitetlariga

ketirilgan ketma ketlik asosida qabul imtihonlari topshirishlari uchun yo'llanmalar beriladi;

- ikkinchi bosqich tanlovida davogar universitet talablari asosida sinovlar topshiradi. Sinovlarni turi, formasi xar bir universitetni o'zi tomonidan belgilanadi va oldindan bu xaqida davogarga axborot beriladi.

Xususiy universitetlar esa qabul imtihonlarin, kirish imtihonlari suhbat tarzida o'tkazilib, unda ko'rsatilgan fanlarni bilishdat tashqari tez fikrlash, topqirlilik, zukkolik mahoratlari ham sinab ko'riladi.

Bir qator xususiy universitetlar o'z tarkibida maktabgacha tarbiya muassalariga ega. Unda tabiyalanuvshilar talimning barcha bosqishlarini shu universitetning o'zida o'taydilar, pirovard natijada kirish imtixonisiz universitetga qabul qilinadilar.

Universitetlarda tahsil olayotgan talabalar o'quv dasturlari kasbdan kelibchiqib quyidagicha bo'lishi mumkin:

- Jamyatshunoslik fanlari 40 %;
- Texnik falar 20 %;
- Gumanitar fanlar 14 %;
- Pedagogik fanlar 8 %;
- Qishloq xo'jalik, tibbiyot, tabiiy fanlar 3 %.

Yapon universitetlarida talabalar o'quv jarayonida 140-150 sinov birligi topshiradilar. Ularda baho mezoni – «alo», «yaxshi», «qoniqarli», «qoniqarsiz».

Yapon universitetlari asosan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlaydi. Shunga qaramay, Yaponiyada «Universitet shaxsni bilim va kasbga yo'naltiradi xolos, uni takomillashtirish, mukammallashtirish shaxsning o'ziga bog'liq», deb hisoblaydilar.

Yaponiya ta'lif tizimi strukturasi qo'ydagicha:

- Yuqori bosqich o'rta maktab 10, 11, 12 sinflarni o'z ichiga oladi, bunday maktablarning kunduzgi, sirtqi va kechki bo'limlari mavjud. O'quvchilarning 95% kunduzgi maktablarda o'qiydilar.
- Yaponiyada o'quv yili -240 kun. Yozgi ta'til iyun oyining oxirida boshlanib, avgustda tugaydi. Darslar kuniga 7 soatdan o'tiladi.

Kollejlar:

- 1-kichik kollej;
- 2-texnik kollej
- 3-maxsus kollejlarga bo'linadi.

Bu tizimni bitirgan talabalar bakalavr diplomini oladi va universitetning 3 yoki 4 kurslariga qabul qilinadi. Yuqoridagilarga asoslanib Yaponiya ta'lif tizimini quyidagi strukturasini belgilash mumkin:

- Universitetlarga kabul kilish ikki bosqichga bo'linadi: 1-bosqichi turar joyda o'tkaziladi, buning uchun eski yapon tili, matematika, fizika, kime, jamiyatshunoslik, tarix buyicha test sinovlaridan o'tiladi.
- Bu sinovlardan o'tgan o'quvchilar universitetlarga yo'llanma oladilar va yana sinovdan o'tadilar.
 - Xususiy universitetlarga esa to'g'ridan-to'g'ri test topshiriladi
 - Bir qator xususiy universitetlar o'zining uzluksiz shahobchasiga ega (bog'chadan boshlab hamma bosqichlarni qamrab oladi).
 - Universitedan talabalarni haydab yuborish mumkin emas. Lekin o'qish muddatini cho'zish mumkin (4 yillik o'qish 5-6 yilgacha cho'zilib ketishi mumkin).

Oliy ta'lim tizimi kuyidagi turlarni o'z ichiga oladi.

- To'lik sikldagi universitetlar (4 yil).
- Tezlashtirilgan universitetlar sikli (2 yil).
- Kasb ta'lim kollejlari.
- Texnika institatlari.

1.3. Ta'lim sifatini ta'minlashda rivojlangan xorijiy davlatlar bilan hamkorlik masalalari.

Hozirgi zamon ilmiy faoliyati izlanishlar ko'laming o'sishi, fanlararo va global xarakterga egaligi hamda ularning dunyo innovatsion o'sishiga ta'sirining kuchayishi bilan ajralib turadi. Rivojlangan davlatlarda fanga ajratilgan xarajatlarning muhim o'sishiga qaramasdan ularning birortasi ham ilmiy izlanishlarning to'la spektri bo'yicha har tomonlama ilmiy tadqiqotlar olib borish imkoniga ega emas. Bunday holda fan, texnologiyalar va innovatsiyalar sohasida faqatgina ilmiy emas, balki sotsial iqtisodiy rivojlanishni ham aniqlab beradigan ustuvor yo'nalishlarni tanlash muhim qiymat kasb etadi.

Rivojlangan Yevropa va Osiyo davlatlarida, jumladan, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya va boshqa davlatlarda u yoki bu ilmiy texnologik yo'nalishlarni qo'llab quvvatlash haqidagi qarorlar davlat tashkilotlari, ilmiy tadqiqot markazlari, universitetlar, konsalting kompaniyalar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari asosida qabul qilinadi. Bu ishlar dunyo miqyosdagi ilmiy texnologik rivojlanishning ustivor yo'nalishlarini aniqlashga, davlatning raqobatli ustuvorligini tahlil qilishga, fan, texnologiya va innovatsiyalarning allaqachon bajarib bo'lingan programmalari samaradorligi bahosiga qaratilgan. Davlat bilan birgalikda bunday tadqiqotlar natijalaridan, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda, boshqa manfaatdor gruppalar, shu jumladan, iqtisodning real sektori korxonalari va ilmiy jamiyatlarini

foydanishadi.

Quyida ilmiy tadqiqot ishlari va ishlanmalarning ustuvor yo‘nalishlarini tanlash Germaniya, Buyuk Britaniya va Xitoy misolida ko‘rib chiqilgan, hamda rivojlangan Yevropa va Osiyo, hamda boshqa davlatlarni ilmiy tadqiqot ishlari va ishlanmalarini moliyalashtirish tahlili keltirilgan.

Ta’lim sohasidagi xalqaro tashkilotlar:

YUNESKO – BMTning ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti. Universal xususiyatdagi hukumatlararo tashkilot: dunyoning turli mintaqalarida ta’limni rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazadi; ta’lim bo‘yicha ma’ruza, hisobotlar va axborot-tahliliy materiallarni chop etadi, hamkorlik va ta’limni rivojlantirish masalalari bo‘yicha xalqaro konferensiya o‘tkazadi.

YUNESKO tomonidan chop etiladigan hujjatlar: YuNESKOning statistik yilnomasi (dunyoning mintaqalari va davlatlari bo‘yicha fanning rivojlanishi va savodxonlik darajasi to‘g‘risida ma’lumotlar); Ta’lim bo‘yicha butunjahon ma’lumotnomasi – butun dunyo bo‘yicha milliy ta’lim tizimlari to‘g‘risida ma’lumot; Ta’lim bo‘yicha butunjahon ma’ruzasi – ta’limni rivojlantirish va moliyalashtirish bo‘yicha statistik ma’lumotlar.

Oliy ta’lim sifatini ta’minlash bo‘yicha Yevropa assotsiatsiyasi – The European Association for Quality Assurance in Higher Education - ENQA. YeI a’zo-davlatlari ta’lim muassasalari uchun standartlarni, tartib-taomillar va tavsiyalarni ishlab chiquvchi, shuningdek, Bolonya jarayonlarini tartibga soluvchi bosh tashkilot. ENQA ilg‘or tajribalarni rivojlantirish va almashish va ta’lim sohasida yagona Yevropa standartlarini ishlab chiqish maqsadida oliy ta’lim sifatini ta’minlash sohasida hamkorlikka ko‘maklashadi.

Oliy ta’lim sifati bo‘yicha Yevropa reestri – The European Quality Assurance Register for Higher Education – EQAR. Quyidagilar uchun sharoit yaratadi: oliy ta’lim muassasalariga ishonch reytingini e’lon qilish va shu orqali “akkreditatsiya fabrikalari” mavjud bo‘lishi imkoniyatlarini qisqartirish yo‘li bilan talabalar sa’y-harakatlarini birlashtiradi; ta’limda sifatni ta’minlash bo‘yicha agentliklar faoliyatini yaxshilash vositasi bo‘lib xizmat qiladi hamda ular o‘rtasida o‘zaro ishonchni mustahkamlaydi; oliy ta’lim muassasalariga ta’lim sifatini ta’minlash bo‘yicha turli agentliklarni tanlash imkoniyatini beradi.

Arab davlatlari Ligasining Ta’lim, madaaniyat va fan masalalari bo‘yicha tashkiloti – Arab League Educational Cultural and Scientific Organization – ALECSO. ALECSO ta’lim sohasida: mintaqaviy hamkorlikni rivojlantiradi; ALECSO mamlakatlarida ta’limni moliyalashtirish manbalari va mexanizmlarini rivojlantiradi; ayollar ta’limini yuksaltiradi; imkoniyati

cheklangan shaxslarni ta'lim jarayoniga jalb qiladi; mintaqalari o'rtaida universitet ta'limi ta'lim sikllarini bixillashtiradi; masofali ta'limni rivojlantiradi; ta'lim sifatini baholashning milliy institutlari, standartlari, mezonlarini ishlab chiqadi va rivojlantiradi.

Universitetlarning xalqaro assotsiatsiyasi – International Association of Universities – IAU. 120 dan ortiq mamlakatlarning oliy ta'lim muassasalarini birlashtiradi. IAU o'z faoliyatida turli faoliyat sohalari bo'yicha kadrlar tayyorlashning dolzarb masalalari bo'yicha choraklik jurnal nashr etadi. IAU tomonidan chop etiladigan Universitetlar xalqaro yillik ma'lumotnomasi butun dunyo mamlakatlarida ta'lim tashkilotlari to'g'risida ma'lumotlarni qamrab oladi. Assotsiatsiya Yevropa o'quv muassasalarida Bolonya jarayoni asosiy prinsiplarini joriy etishga ko'maklashadi.

Akademik hamkorlik Assotsiatsiyasi – Academic Cooperation Association – ACA. Assotsiatsiya faoliyatining asosiy yo'nalishlari: oliy ta'lim internatsionalizatsiyasiga ko'maklashadi; oylik elektron axborotnoma chop etish, seminar va konferensiyalar o'tkazish orqali Yevropa va xalqaro tashkilotlar ishtirokida bo'lib o'tgan eng dolzarb o'zgarishlar haqida xabardor qiladi; oliy ta'lim internatsionalizatsiyalash sohasida hamkorlikni kengaytirish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazadi va ular natijasi bo'yicha nashrlar chop etadi; oliy ta'lim sohasida xalqaro hamkorlik masalalari bo'yicha maslahatlashuvlar o'tkazadi.

**2-MAVZU: TA'LIM SIFATINI BAXOLASHDA RIVOJLANGAN
MAMLAKATLAR TAJRIBASINI TATBIQ ETISH OMILLARI
(2 soat)**

Reja:

- 1. Oliy ta'lism sifatini baholashning xalqaro metodlari.**
- 2. Xalqaro talim tizimida sifatni baholash modellari va ularni qo'llash usullari.**
- 3. Ta'lism tizimini tashkil etish va sifatini oshirishda xalqaro standartlarning ahamiyati.**

1. Oliy ta'lism sifatini baholashning xalqaro metodlari.

Xalqaro darajada bu muammoga nisbatan e'tibor Yevropa davlatlarida ta'lism to'g'risidagi hujjatlarni, t'lim sifatini baholashning yagona tizimi orqali o'zaro tan olish tendensiyasi kuzatilmoqda. Mazkur yo'nalishdagi ishlarni amalga oshirishda Yevropa davlatlari, shuningdek boshqa davlatlar ham bir qator umumiy muammolarni hal etishlari zarur:

- davlat va ta'lism muassasalarini o'rtaida ta'lism sifatini ta'minlash bo'yicha mas'uliyatni taqsimlash;
- OTMlarda talabalarni va nashr qilingan ishlar natijasini, ichki baholashni ham qo'shgan holda ta'lism sifatini baxolashning milliy tizimini ishlab chiqish;
- nazorat -baholash materiallari, jarayonlar, ularni sertifikatsiyalash, dastur va ta'lism muassasalarini akkreditatsiyalash, ta'lism sifatini baholash sohasida xalqaro tadqiqotlarni o'tkazishning qiyosiy tizimlarini ishlab chiqishni ta'minlash.

Yuqorida sanab o'tilgan muammolardan yaqin kunlarda bizning mamlakatimizda ham hal etilishi kutilayotgan vazifalarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- Yevropa, shuningdek dunyo mehnat bozorida milliy oliy ta'lism tizimining raqobatbardoshligini ta'minlash;
- ta'lism sohasi samaradorligini baholashning mezonlari(yuklama, ta'limda erishilgan yutuqlar, kompetentlik darajasi) to'plamini ishlab chiqish;
- barcha darajada ta'lism sifatini baholashning milliy tizimini yaratish va baholash tamoyillarini asoslab berish.

Mahalliy va xorijlik olimlar va amaliyotchilar ta'lism sifatini oshirish muammosini tadqiq etishar ekan, ta'lism sifati tushunchasi, baholash mezonlari tushunchalarini asoslab berish, yuqori sifatni ta'minlashga imkon beradigan

omillarni aniqlash, ta'lism sifatini boshqarish va monitoringi masalalarini o'rghanish ustida ish olib bormoqdalar.

Халқаро амалиётда сифатнинг беш асосий йўналиши

биринчи:

- таълимнинг сифатини таъминлаш – олий ўкув юртининг нуфузини ошириш, чунки бунда олий ўкув юртининг битирувчisi меҳнат бозорида кулайрок мавкега эга бўлади;

иккинчи:

- таълим стандартларига мувофиқлик;

учинчи:

- мижозни каноатлантирувчи таълимгина сифатли хисобланиши мумкин;

тўртинчи:

- истеъмолчи сифатни белгилайди ва унинг ҳар кандай талаби бўйича мутахассисни танлаб олади. Энг муҳими, олий ўкув юрти бунга пул олади;

бешинчи:

- олий ўкув муассасаси жамиятга, ўзи жойлашган миңтақага фойда келтиради.

-rasm. Xalqaro amaliyotda sifatning besh asosiy yo‘nalishi.

Англия таълим тизими сифатини таъминловчи хусусиятлари

Профессионал билимларни ҳаётий масалаларда ривожлантириш зарурлиги

Маълум бир малака ва билим оширишни давлат ва худудий даражадаги эхтиёждан келиб чиқилиши

Иш берувчи билан дойимий алоқадорлиги

Келишилган ва мувофиқлаштирилган тарзда иш берувчilar сўровига жавоб бериш

Иш берувчilar зарурати ва сўровларига хозиржавоблик

-rasm. Angliya ta'lim tizimi sifatini ta'minlovchi xususiyatlari.

Jahon tajribasida oliy ta'lismni baholash tizimini ikki turga bo‘lish mumkin:

1. Oliy ta'lism muassasalari rivojlanishini muvofiqlashtiruvchi davlat boshqaruvining vakolatli organi mavjud bo‘lgan mamlakatlardagi oliy ta'lismni

baholash tizimi. Oliy ta'limni baholashning bu tizimi hukumat tomonidan moliyalashtiriluvchi davlat organlarining ustuvorligiga asoslanadi. Bunda o'z-o'zini baholashga e'tibor pastroq bo'lib, asosiy urg'u davlat organlari yoki jamoat tashkilotlari tomonidan o'tkaziladigan samarali tashqi baholashga qaratilgan bo'ladi. Bunday baholash tizimlari ko'pincha hukumat nazorati, litsenziyalash, davlat akkreditatsiyasi, turli oliy ta'lim muassasalarini solishtirish, moliyaviy resurslarni taqsimlash va universitetlarga ta'sir o'tkazish bilan bog'liq. Oliy ta'limning davlat boshqaruvi organlari mavjud bo'lgan mamlakatlar qatoriga Yevropaning Germaniya, Fransiya, shuningdek, yevropacha oliy ta'lim an'analarini qabul qilgan MDH mamlakatlari kiradi.

2. Oliy ta'limni davlat boshqaruvi organlari mavjud bo'lmagan mamlakatlardagi oliy ta'limni baholash tizimi. Oliy ta'limni baholashning bu tizimida universitetlar faoliyatini yaxshilashga, ichki tahlilga asoslangan oliy ta'lim muassasalarida o'z-o'zini baholash, yoki kasbiy, yoki jamoatchilik baholashi ustuvorlik qiladi. Oliy ta'lim bo'yicha o'z-o'zini muvofiqlashtirish mamlakatlari qatoriga, birinchi navbatda, Amerika Qo'shma Shtatlari, shuningdek, amerikacha oliy ta'lim an'analarini qabul qilgan mamlakatlar kiradi (Filippin, Tayvan).

Ayrim mamlakatlarda oliy ta'limni baholashning yuqorida qayd qilingan usullari birgalikda qo'llaniladi (Shvesiya, Norvegiya, Finlyandiya, Buyuk Britaniya, Chexiya, Sloveniya va boshqalar). Bunday baholash tizimi Umumjahon sifatni boshqarish (Total Quality Management, TQM) tamoyillari va standartlashtirish bo'yicha Xalqaro tashkilotning (International Organization for Standardization, ISO) sifat menejmenti tizimi talablariga asoslanadi.

O'z-o'zini boshqarishga asoslangan OTMdA ta'lim sifatini tashqi baholash tamoyillari quyidagilardan tashkil topgan:

- universitet faoliyati va ta'lim dasturlarini asosiy maqsad va vazifalarga mos kelish darajasini muntazam tekshirib borish;
- faoliyatni ekspert baholash va universitetning rivojlanishini rejalashtirish uchun mas'ul shaxs yoki tarkibning mavjudligi;
- o'z – o'zini tekshirish jarayonini amalga oshirish uchun keng va samarali axborot tizimining mavjudligi;
- o'z – o'zini baholashni muntazam amalga oshirilishi (xizmatlar sohasini, boshqaruv tizimini, ta'lim dasturlarini va b.) hamda universitetning o'z-o'zini baholash natijalarini tekshirish uchun tashqi ekspert baholash;
- tashqi ekspert baholash natijalari asosida o'z vaqtida boshqaruv tuzilmasi va uslubini, ta'lim dasturlarini takomillashtirish, moddiy va moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash, rag'batlantirish va jazolash tizimini amaliyotga joriy etish.

OTMlarda t'lim sifatini boshqarishda rivojlangan chet el oliv ta'lim muassasalari tajribasini o'rghanish maqsadga muvofiqdir.

Buyuk Britaniyada universitetlar faoliyati va ularning ta'lim dasturlari sifatini baholashning davlat tashkilotlarining bosh roli ta'minlangan ko'p pog'onali akkreditatsiyalash tizimi Quality Assurance Agency (QAA)yo'lga qo'yilgan. Bir qancha OTM OAA mezonlari asosida, kelishilgan holda ta'lim muassasalarining ta'lim dasturlari sifatini baholashadi. Masalan, 1992 yilda The Open University (Ochiq Universitet) ta'lim muassasalarini, jumladan Buyuk Britaniyaning chet ellardagi ta'lim muassasalari faoliyatini akkreditatsiyalash hamda validatsiyalash (ratifikatsiyalash, tasdiqlash) bo'yicha o'zining The Open University Validation Services (OUVS) strukturasini tashkil etgan.

Ta'lim muassasalari faoliyatini akkreditatsiyalash bo'yicha OUVS talablari quyidagilardan iborat:

- barcha talablarga mos ta'lim muhitini yaratilganlik holati;
- ta'lim dasturlarini amalga oshirishda mustaqillik;
- akademik faollikni samarali tashkil etilishi;
- ta'lim sifatini kafolatlashning samarali tizimini mavjudligi;
- intellektual mulk (ilmiy salohiyat) darajasi;
- tashqi tavsiyalar uchun ochiqlik;
- moliyaviy xavfsizlik.

The Open University Validation Services (**OUVS**) quyidagi yo'nalishlar bo'yicha baholashlarni amalga oshiradi:

- tashhislash: ta'lim dasturlarini amalga oshirishga tayyorligi va imkoniyatlari, o'qitishda yuzaga keladigan muammolarni aniqlaydi (intevyu, testlar va b.);
- shakllantiruvchi: ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatidagi teskari aloqa elementlari (topshiriqlar, referatlar, ish daftarlari, seminarlar va b.)ni o'rghanadi;
- yakuniy: o'quv jarayoni natijasining yutuqlari va kamchiliklarini aniqlaydi (og'zaki yoki yozma imtihonlar, loyihamar taqdimoti).

OUVSning baholash tamoyillari asosan quyidagilardan iborat:

- baholash ochiq, haqqoniy, asoslangan va ishonchli bo'lishi lozim;
- o'quv jarayoni natijalari bo'yicha baholash aniq manzilli bo'lishi kerak;
- baholash mezonlari barcha uchun tushunarli bo'lishi, akademik baholar imkon boricha jamoaviy faoliyat bo'yicha bo'lishi lozim;
- natijalar muntazam qayta baholashga taqdim etiladi.

The Open University Validation Services (OUVS) tomonidan o'tkaziladigan akkreditatsiya maqsadi quyidagi masalalar bo'yicha faoliyat natijasini tasdiqlashga yo'naltirilgan bo'ladi:

- ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi o‘quv yurtining resurslarini o‘rnatilgan talablarga mos kelishi (o‘qituvchilar tarkibi, axborot imkoniyatlari, moliyaviy ahvoli);

- ichki tizim tartibi ta’lim standarti sifatini kafolatlashga mos bo‘lishi;
- talabalar huquqini ta’milanishi.

OUVSning asosiy mezonlari quyidagi xarakterli xususiyatlarga ega:
soniy ko‘rsatkichlarni yo‘qligi;

- o‘qituvchilarni o‘qitadigan faniga mos keluvchi sohalar bo‘yicha akademik (pedagogik) va tadqiqot (ilmiy) faolligini rag‘batlantirish;

- ta’lim sifatini kafolatlovchi tizimga talablar, tashqi va ichki baholovchilar, shuningdek ishlab chiqarish ekspertlari tomonidan talabalarning akademik faolligi va natijalarining tizimli monitoringini yuritish.

Avstraliya davlatida ta’lim sifatini boshqarish holatini tadqiq etadigan bo‘lsak, Avstraliya muhandislik instituti va Avsraliya muhandislik fakultetlari dekanlari Kengashi tomonidan 1996 yilda ishlab chiqilgan ta’lim dasturlarini Akreditatsiyalashga yangicha yondoshuvda, asosan sifatni kafolatlash tizimining ichki mexanizmiga katta e’tibor qaratilgan. Muhandislik o‘quv dasturlarini akkreditatsiyalashning yangi mezonlari o‘quv jarayoniga emas, uning natijalariga asoslangan. Akkreditatsiyalash tartibi ichki baholash va sifat kafolati bilan bir qatorda ishlab chiqarish korxonalarining tashqi baholari hamda tavsiyalarini o‘z ichiga olgan. Umuman, akkreditatsiyalash jarayoni zamonaviy ishlab chiqarish talablarini hisobga olgan holda muhandislik dasturlari innovatsiyasini ta’minalash hamda rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Akkreditatsiyalashning asosiy mezonlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- universitetga qabul qilinadigan talabalarning dastlabki tayyorgarlik sifati;
- professor-o‘qituvchilar va talabalarga talab;
- kasbiy (malakaviy) amaliyot;
- bitiruvchilarga talab.

Ushbu mezonlarning asosiy xususiyatlari quyidagilar bilan izohlanadi:

- o‘quv rejalarini shakllantirishda universitetlarning o‘zlariga ko‘proq erkinlik berilishi;

- mutaxassislar tayyorlash sifatiga asosiy e’tibor qaratilishi;
- ta’lim dasturlari sifatini oshirib borish maqsadida ularni muntazam takomillashtirib borilishi;
- ta’lim standartlarida innovatsiyalarni rag‘batlantirib borilishi.

Germaniya davlatida ta’lim sifatini ta’minalash bo‘yicha 1998 yilda ta’lim vazirlari anjumanida bakalavrlar va magistrlar tayyorlash dasturini baholovchi Akkreditatsiya Kengashi tuzilgan. Ushbu Kengash akkreditatsiya agentliklari

uchun minimal standartlar va mezonlarni ishlab chiqdi. Germaniya muhandislar Assotsiatsiyasi 1999 yili muhandislik va kompyuter sohasi bo'yicha Akkreditatsiyalash Agentligiga asos soldi. Germaniyadagi birinchi akkreditatsiyalash tashkiloti Quyi Saksoniya yeridagi Markaziy Agentlik Central Agency of Evaluation of Lower Saxony's Institutions of Higher Education (ZEvA) hisoblanadi. Hozirgi kunda texnika, informatika, tabiiy va matematika sohalari ta'lim dasturlarini akkreditatsiyalovchi Accreditation Agency for Study Programs in Engineering, Informatics, Natural Sciences and Mathematics (ASIIN) agentliklari faoliyat yuritmoqda.

Germaniyadaoliy o'quv yurtlariga qabul qilishning umumiy qoidalari belgilangan. O'rta ma'lumot haqidagi diplom (Abitur) universitetga kirish imtihonlari topshirish huquqini beradi. Agar diplomdagи baholar umumiy belgilangan standartlarga muvofiq kelsa, odatda abiturient imtihonlarsiz qabul qilinadi. Germaniya oliy o'quvyurtlarida talaba kasb bo'yicha amaliy ish tajribasini o'zlashtiradi. Klassik fanlarning keng majmuidan iborat eski universitetlar bilan bir qatorda Germaniyada nazariya va amaliyot o'rtasidagi yaqin aloqaga urg'u beruvchi yangi oliy o'quv yurtlari paydo bo'lmoqda. Kelgusida ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishni istamagan abiturient yuzdan ortiq yo'nalishda mutaxassislar tayyorlaydigan oliy maxsus o'quv yurtlaridan birini yoki politexnika institutini tanlaydi. Amaliy ko'nikmalarni mazkur oliy o'quv yurtlarining talabalari korxonalarda o'zlashtiradilar.

AQSh Federal hukumatida ta'lim uchun Ta'lim departamenti javob beradi. U muayyan davrda mamlakat uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim sohalarini belgilaydi. AQSh Kongressi mamlakatda ta'limni kuchaytirishga ta'sir etuvchi qonunlar qabul qiladi,

AQShda ta'lim sifatini akkreditatsiyalash ta'lim sifatini nazorat qilish tizimi bo'lib, ta'limning rivojlanishidan manfaatdor barcha tomonlar manfaatlarini hisobga olishga asoslangan. U o'zida davlat va jamoatchilik nazoratlarini mujassamlashtirgan.

Akkreditatsiyalashning asosiy maqsadlari:

- ta'lim samaradorligini baholash tamoyillari va mezonlarini ishlab chiqish asosida oliy ta'lim taraqqiyoti va rivojlanishini ta'minlash;
- ta'lim muassasalari rivojlanishini rag'batlantirish, uzlusiz o'z-o'zini tekshirish va reja asosida ta'lim dasturlarini takomillashtirish;
- o'quv yurti yoki aniq yo'nalishdagi ta'lim dasturi to'g'ri shakllantirilgan maqsadga va unga erishish sharoitlariga egaligi to'g'risida jamiyatni kafolatlashi;
- OTM va ta'lim dasturlarini shakllanishi hamda rivojlanishiga yordam berishi;

- o‘quv yurtlarining ta’lim faoliyatiga aralashish va ularning akademik erkinligini kamsitilishidan himoyalashi;

AQShda ta’lim muassasalari faoliyatini akkreditatsiyalash jarayonini o‘quv yurtining akademik erkinliklarini ta’minlash huquqlari hamda uning davlat va jamiyat oldidagi javobgarligi muvozanatini saqlashga qaratilgan jamoaviy o‘z-o‘zini moslashtirish tizimi deb qarash mumkin.

AQShda 2 xil, institutsional va ixtisoslashtirilgan akkreditatsiyalash tizimi mavjud.

Ixtisoslashgan (professional) baholashda alohida ta’lim dasturi va mutaxassisliklarni tayyorlash maqsadi va unga erishish sharoitlari akkreditatsiyadan o‘tkaziladi. Agar ta’lim muassasasi faoliyati to‘liq baholansa institutsional akkreditatsiya deb hisoblanadi.

Institutsional akkreditatsiyalash standartlari (ko‘rsatkichlari) universitetlarning o‘z vazifasiga mos samarali faoliyatini baholashning asosiy mazmunini tashkil etadi. AQShda ta’lim muassasalari faoliyatini baholashda dastlab miqdoriy ko‘rsatkichlardan (professor-o‘qituvchilar soni, kutubxona resurslari, laboratoriyalarning o‘quv-texnik ta’minoti darajasi, moliyaviy ta’minoti va b.) foydalanilgan. Natijada XX asrning birinchi o‘n yilligida AQShda oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tartibga solishga erishilgan. Keyinchalik, standartlar oliy ta’lim muassasalari ma’muriyati tomonidan qattiq tanqid ostiga olinib, bunday miqdoriy baholashlar natijasi, ta’limni standartlashtirishga olib kelishi ko‘rsatilgan. OTMlarini regional akkreditatsiyalash agentliklari miqdoriy baholash (institutsional akkreditatsiya)dan voz kechishib, “Standart” atamasi esa “mezonlar” atamasi bilan almashtirilgan va bu bilan ta’lim muassasasi faoliyatini ekspert baholash maxsus yo‘lga qo‘yilgan.

AQShdagagi 6 ta regional akkreditatsiyalash agentliklarining har biri o‘zlarining mezonlarini ishlab chiqishgan, har bir mezon asoslanib universitetlar e’tiboriga yetkazilgan. Ushbu mezonlarga umumiyligida quyidagilarni kiritish mumkin:

- universitetning bir butunligi;
- maqsadi, rejorashtirishi va samaradorlik;
- boshqaruv va ma’muriyat tizimi;
- ta’lim dasturlari;
- professor-o‘qituvchilar va xizmat qiluvchi xodimlar tarkibi;
- kutubxona fondi, kompyuter bazalari va axborotlarning boshqa manbalari;
- talabalarga xizmat ko‘rsatish va ta’lim olish uchun boshqa sharoitlarning yaratilganligi;
- moddiy resurslar, binolar va qurilmalar;
- moliyalashtirish;

Ta'lim muassasasini akkreditatsiyalash quyidagilarni tasdiqlab, asoslaydi:

- ta'lim muassasasining aniq, asoslangan maqsadga egaligi;
- maqsadga erishishdagi resurslar yetarli va asoslanganligi;
- kelajakda maqsadga erishish istiqbollari ishlab chiqilganligi.

Hozirgi vaqtida ixtisoslashtirilgan akkreditatsiyalashdan oldin, universitet institutsional akkreditatsiyalashdan o'tishi talab etiladi.

Ixtisoslashgan akkreditatsiyalashda asosiy e'tibor o'quv jarayoni mazmuniga qaratiladi:

- fundamentalbilimlar darajasi;
- maxsus fanlar bo'yicha bilim darajasi;
- amaliy ko'nikmalari;
- loyihalash malakalari;
- kompyuterdan foydalanish darajasi.

Institutsional akkreditatsiyalash jarayonidagi ayrim kamchiliklar, boshqa sohalardagi yutuqlar hisobiga to'ldirilishi mumkin, lekin ixtisoslashgan akkreditatsiya ta'lim dasturining qanchalik talabga javob berishini baholaydi. Ta'lim dasturlari akkreditatsiyasi (ixtisoslashgan), qachonki OTM boshqa barcha mezonlarga javob bersagina amalga oshiriladi.

Ixtisoslashgan akkreditatsiyalash asosan quyidagilarga asoslanadi:

- akkreditatsiyalash agentligi ekspert komissiya yordamida akkreditatsiya natijalari bo'yicha qaror qabul qilish mezonlari va tartibini aniqlaydi;
- o'quv yurti faoliyati va ta'lim dasturi o'z-o'zini tekshirish va baholash asosida o'rganiladi;
- ekspert guruhi o'z-o'zini tekshirish va baholash materiallarini tahlil qilib, xulosa tayyorlaydi va agentlik hamda OTMga taqdim etadi;
- OTM ekspertlar xulosasiga o'z munosabatini bildiradi;
- agentlik komissiyasi o'z-o'zini tekshirish va baholash ma'lumotlari, ekspert xulosasi va xulosa bo'yicha OTM javobi asosida mazkur o'quv yurti akkreditatsiyasini tasdiqlash yoki inkor etish bo'yicha qaror chiqaradi.

Ixtisoslashgan akkreditatsiyalashning asosiy funksiyalariga quyidagilar kiradi:

- abiturientlarga oliy o'quv yurtini tanlashda yordam berish;
- davlat organlariga mazkur OTM ni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qaror chiqarishda yordam berish;
- xususiy korxonalar va tashkilotlar tomonidan o'z mablag'larini mazkur OTMga sarflash to'g'risida xulosa chiqarishlarida yordamlashish.

AQShda texnika va texnologiya sohasidagi ta'lim dasturlarini akkreditatsiyalovchi taniqli tashkilot Accreditation Board for Engineering and Technology (ABET) hisoblanadi. Ushbu tashkilot 28 ta professional muhandislik

va texnik jamiyatlar federatsiyasidan iborat. AVET 1500 dan ortiq muhandislik va 700 ga yaqin texnologik OTM ta’lim dasturlarini akkreditatsiyalashdan o’tkazgan. Hozirgi kunda Germaniya, Gollandiya, Turkiya, Singapur, Meksika va boshqa davlatlarning 70 yaqin OTMlarning ta’lim dasturlari AVET tomonidan amerika analogiga mosligi tan olingan.

Texnika va texnologiyalar bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash sifatiga AVET tomonidan qo‘yilgan asoyi mezonlar quyidagilardan iborat:

- zamonaviy ilmiy-texnik, ijtimoiy va siyosiy muammolarni bilishi va tushunishi;
- tabiiy-ilmiy, matematik va muhandislik bilimlardan amaliyotda foydalana olish qobiliyati;
- o‘rgangan uslublari va orttirgan malakalarini muhandislik amaliyotida qo‘llay olishi;
- muhandislik muammolarini shakllantirish va hal etish qibiliyatları;
- belgilangan vazifalarga mos holda jarayonlar yoki tizimlarni loyihalash qibiliyatları;
- tajribalarni rejalashtirish va o’tkazish, ma’lumotlarni qayd etish hamda izohlash, asoslash qibiliyatları;
- fanlararo mavzularda jamoada ishslash qobiliyati;
- jamoada samarali o‘zaro ta’sir etish qobiliyati;
- kasbiy va axloqiy javobgarligi;
- chuqur va keng bilim, muhandislik yechimlarining ijtimoiy oqibatlarini yetarli darajada tushunishi;
- muntazam o‘z ustida ishslash va doimiy o‘qish zarurligini tushuna bilishi.

Koreyada 359 ta oliy o‘quv yurtlari mavjud bo‘lib ularda 3,3 mln.ga yaqin talabalar tahsil olishadi. Ushbu oliy o‘quv yurtlarining 222 tasi to‘rt yillik kollejlar, 180 tasi xususiy talim muassasalaridir. Jami mavjud oliy o‘quv yurtlarining 85 foizi xususiy talim muassasalaridir. Universitetlarda 78%, kasbiy maktablarda 96 % talabalar xususiy talim muassasalarida o‘qishadi. Universitetlarning umumiyligi harajatharini 23%i davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Boshqa rivojlangan davlatlar qatori Koreyada ham oliy talim ikki bosqichda (bakalavriat va magistratura) olib boriladi.

Bakalavriat talim dasturlari 4 yilga mo‘ljallangan bo‘lib, kamida 130 kredit birligidan iborat. O‘quv dasturining birinchi ikki yili umumkasbiy o‘quv fanlaridan, oxirgi ikki yili esa mutaxassislik fanlaridan iborat. Semestr 16 haftadan iborat. Bakalavrular asosan universitetlarda va 4 yillik o‘quv dasturi asosidagi kollejlarda tayyorlanadi.

Magistratura ikki yillik o‘quv dasturini o‘z ichiga oladi va 24 kredit birligidan

iborat. Magistraturaga bakalavriatni tugatganlar suhbat, imtihon va tanlov asosida qabul qilinadi.

Doktorlik dasturlari Talim Vazirligi tomonidan nazorat qilinadi va kamida 36 kredit birligiga ega ikki yil to'liq ish kuni hisobida faoliyat yuritiladi. Bakalavrular uchun esa 60 kredit birligiga ega bo'lib, 4 yillik ilmiy – tadqiqot faoliyatdan iboratdir. Doktorantlardan kamida 2 ta chet tilini erkin bilishlari talab etiladi.

Koreya oliy talim tizimida sifatni nazorat qilish va akkreditatsiyalash talim, fan va texnologiyalar Vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, vazirlik talim muassasalari va fakultetlar tashkil etishga ruxsat beradi hamda qabul kvotalarini belgilaydi. Universitetlar doirasida institutsional akkreditatsiyalashni Universitet talimi bo'yicha Koreya Kengashi (KSIE) amalga oshiradi. Hozirgi kungacha ushbu kengash (KSIE) tomonidan 201ta universitet akkreditatsiyalangan.

Bugungi kundagi holat shundayki, har bir ta'lim dasturi avvalom bor, potensial ish beruvchilar bilan kelishilgan bo'lishi va ularning bo'lg'usi mutaxassislarga nisbatan qo'ygan shartlariga javob bera olishi kerak. Bunda, mazkur kasb mutaxassislarining OTM bitiruvchilarining kasbiy tayyorgarlik sifatidan qoniqqanlik darjasи bo'yicha o'tkazilgan so'rovnomalari ham katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, bu yerda ish beruvchilarga bitta faoliyat sohasi uchun mutaxassislar tayyorlashda amalga oshiriladigan ta'lim dasturlarini, OTM faoliyatini solishtirishga imkon beradigan tavsiflarga nisbatan yagona mezonlarni ishlab chiqish zarur. Bu yerda shuni ta'kidlashimiz zarurki, dasturlarning yuqori sifati OTMga qo'shimcha kasbiy ta'lim bozorida sifatliroq dasturlarni taklif etuvchi sifatida yetakchi bo'lish imkonini beradi. Shakllangan brend yuqori darajadagi talabdan kelib chiqqan holda, yangi fakultet va mutaxassisliklarni ochish imkoniyat yaratadi.

Rivojlangan chet el davlatlarida ta'lim sifatini boshqarish bo'yicha xorij tajribasi tahliliga asoslanib, quyidagicha xulosalar qilishimiz mumkin. Fikrimizcha, ta'lim sifatini takomillashtirishning uzlusizligini kafolatlovchi mexanizmlardan biri OTMdа quyidagi asosiy jarayonlar: baholash – yaxshilash dasturi – amalga oshirish – baholash (sifat halqasi) o'rtaqidagi aloqani o'rnatishga va ta'minlashga imkon beradigan boshqaruв faoliyatining samarali tizimini yo'lga qo'yishdir. Bunda baholashning asosiy funksiyasi nafaqat, tizimning mavjud holatini aniqlash, balki uning sifatini yaxshilash strategiyasini ham aniqlash bo'ladi. OTMdан esa, baholash natijalari muntazam ravishda o'z –o'zini takomillashtirishning asosi sifatida foydalaniлganligini ko'rsatish talab qilinadi.

Fikrimizcha, ta'lim tizimini rivojlantirish va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sirini kuchaytirish bo'yicha xorijiy mamlakatlarning quyidagi tajribasi mamlakatimiz uchun ham ahamiyatlidir:

• davlat va oliy o‘quv yurtlari o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlar tizimini kengaytirish. Ushbu mexanizmning amalga oshirishda oliy o‘quv yurtlariga sarflangan moliyaviy resurslar samaradorligini oshirish;

• har yili mamlakatimiz oliy yurtlari faoliyatini baholashning reyting tizimini joriy etish. Bu holat ta’lim muassasalari markazlashtirilgan va mahalliy organlar tomonidan ularga ajratilgan moliyaviy resurslar, turli fondlar, grantlarni olishda sog‘lom raqobat muhitining shakllanishiga olib keladi;

Xulosa kilsak oliy o‘quv yurtlari va ishlab chiqarish o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minalash. Bu esa universitetlar tomonidan olib boriladigan ishlarining natijalarini amaliyotga tatbiq etilishi uchun sharoit yaratadi.

2. Mamlakatimizda ta’lim tizimini isloh etishda xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganishning o‘rni.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasida joriy qilayotgan ta’lim tizimining milliy modeli ta’lim sohasini rivojlantirish borasidagi xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish va mamlakatimizga xos bo‘lgan jihatlarni e’tiborga olgan holda ishlab chiqilgan. Mamlakatimizda ta’lim tizimining milliy modelini shakllantirish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Buning natijasida yangi ta’lim tizimi takomillashtirilib borilmoqda. Ushbu jarayon uzlusiz hisoblanadi. Bir tarafdan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, ikkinchi tarafdan dunyoda ro‘y berayotgan globallashuv jarayoni yangi shart-sharoitlarni, o‘zgarishlarni vujudga keltirmoqda.

Oliy ta’lim sifatini baholashning turli mamlakatlarda yuzaga kelgan tizimlarni shartli ravishda uchta: “inglizcha”, “fransuzcha” va “amerikacha” modellarga ajratishimiz mumkin.

Birinchi model asosida – “inglizcha” – OTM akademik hamjamiyatini ichki o‘z – o‘zini baholashi yotadi. Bu model asosan, Buyuk Britaniya va Lotin Amerikasi mamlakatlarida joriy etilgan. Ikkinci model – “fransuzcha” – asosan, oliy maktabni rivojlantirishni boshqaruvchi ma’lum davlat tuzilmalari mavjud bo‘lgan davlatlarda qo‘llaniladi. Bu modeldan xususan, Fransiya, Skandinaviya mamlakatlari, Chexiya, Latviya, Estoniya kabi mamlakatlarda foydalaniladi, bunda davlat tashkilotlari baholash maqsadlarini shakllantiradilar, baholashning muhim mezonlarini aniqlaydilar, o‘quv jarayonini tashkil etishda qarorlar qabul qiladilar.

Uchinchi model – “amerikacha” – yuqoridaq ikkita modelni o‘zaro muvofiqlashtirishga asoslangan. AQShda o‘z – o‘zini baholash tizimi juda rivojlangan. Bunda, ta’limni davlat tashkilotlari boshqaradigan tizimdan farqli ravishda, ta’lim muassasalarining o‘zi tomonidan ko‘proq nazorat qilinadi. Universitetlarni akkreditatsiyalash jarayoni ularning hududiy assotsiatsiyalari

tomonidan amalga oshiriladi. Bu assotsiatsiyalar oliy ta'lim bo'yicha maxsus komissiyalarga ega bo'lib, ular hudud chegarasidaakkreditatsiyalash ishlarini amalga oshiradilar. AQShning 6ta hududiyakkreditatsiyalash agentliklarining har biri baholashning o'z mezonlarini ishlab chiqadilar, bu mezonlar muhokama qilinadi, batafsil yoritib beriladi, muntazam ravishda qayta ko'rib chiqiladi va universitetlarga yetkaziladi.

Har bir davlatda ta'lim dasturlari, moddiy resurslar bazasi, kadrlar salohiyati hamda boshqarish tizimiga bog'liq holda jamiyat, shaxs va davlat talablari asosida o'ziga xos ta'lim sifatini kafolatlash tizimi yaratilgan. Oliy ta'lim sifatini boshqarish tizimida ta'lim sifatini baholash uslublari muhim rol o'ynaydi.

OTM faoliyatini baholashning tarixan shakllangan va o'z-o'zini ichki baholashga asoslangan "Angliya modeli" va oliy o'quv yurtining jamiyat va davlat oldidagi majburiyatlaridan kelib chiqib, tashqi baholashga asoslangan "Fransiya modeli" hamda ularning turli kombinatsiyalaridan iborat bo'lgan turli baholash modellari amalda qo'llaniladi.

Buyuk Britaniya oliy ta'lim tizimi sifatini nazorat kilish Agentligi.

Buyuk Britaniya oliy ta'lim tizimi sifatini nazorat kilish Agentligining Qoidalar majmuasi.

Buyuk Britaniya oliy ta'lim tizimi sifatini nazorat kilish Agentligining Koidalar majmuasi (Sifat koidalari majmuasi) oliy ta'lim tizimini sifatini nazorat kilish Agentligida ruyxatdan utgan oliy ta'lim muassasalariga kuyiladigan talablarni belgilab beradi.

Buyuk Britaniya oliy ta'lim tizimini sifatini nazorat kilish buyicha Agentlikning Koidalar Majmuasining maksadi kuyidagilardir.

- ✓ Oliy ta'lim tizimiga kuyiladigan yukori akademik standartlarga mos kelish
- ✓ Oliy ta'lim muassasasi talabalarga berayotgan ta'lim sifatini ta'minlash
- ✓ oliy ta'lim tizimini uzlucksiz va tizimli ravishda rivojlanishini kullab kuvvatlash
- ✓ oliy ta'lim muassasalari xakida tulik ma'lumotning mavjudligini ta'minlash.

Sifat koidalari majmuasi Buyuk Britaniyaning 4 ma'muriy -siyosiy kismida joylashgan oliy ta'lim muassasalariga tarkatiladi, bundan tashkari bu sifat koidalari majmuasi Buyuk Britaniya xalkaro ta'lim muassasalari uchun xam majburiy xisoblanadi. Bu koidalalar barcha Britaniyalik talabalar manfaatini, ular kanday ta'lim turida ukishidan kat'iy nazar (kunduzgi, sirtki, bakalavriat, magistratura) ximoya kiladi.

Bu Agentlik muntazam ravishda ta’lim muassasalarini sifatini nazorat kilib, ularning kuyilgan talab va sifat mezonlariga mos kelish -kelmasligini tekshiradi. Mazkur xujjat sifat buyicha Koidalar Majmuasining texnik axborotlarini uz ichiga olgan. Oliy ta’lim tizimi sifat Agentligi keng ommaga muljallangan ta’lim tizimi sifati buyicha kullanma xam nashr etgan.

Buyuk Britaniya oliy ta’lim tizimini nazorat etuvchi AGENTlikning KOIDAlar majmuasi uzi nima?

Konunchilikka munosabat

Sifat koidalari majmuasi uz ichiga nimalarni oladi?

Talablar

Barkaror amaliyot kursatkichlari

Umumkabul kilingan afzalliklar

Boblar

Mavzular

Buyuk Britaniya uchun oliy ta’lim tizimi sifatini nazorat kilish Agentligining KOIDALAR MAJMUASI nima uchun zarur?

Sifat koidalari majmuasi kanday shakllangan?

Sifat koidalari majmuasi(SKM) kimga muljallangan?

Oliy ta’lim muassasalariga

Ta’lim standartlari va sifatiga javob beruvchi mutaxassislariga

Oliy ta’limning keng mutaxassislariga

Talabalarga

Agentlikning nazorat olib boruvchi inspektorlariga.

Amaliyotda SKM kanday amalga oshiriladi?

Oliy ta’limni sifatini nazorat Agentligini roli kanday?

Oliy ta’limda xomiy tashkilotlarning roli kanday?

Tenglik va farklar

Akademik standartlar, sifat,rivojlanish va axborot

SKMdA kullanadigan iboralar

Yana kanday resurslar foydali bulishi mumkin?

QO‘ShIMChALAR-SKMni qo’llanilishi:

- ✓ Buyukbritaniyaning 4 ma’muriy kismidaqo‘llash
- ✓ SKMni bazaviy ta’limga nisbatan kullash
- ✓ SKMni Buyukbritaniyadan tashkarida kullash.

Yukoridagi kursatkilardan foydalanishda veb-sayt saxifalari sizga yordam beradi .Iboralarni esa Glossariydan topasiz. Xar yilla oliy ta’lim tizimi SKM si tekshiriladi va uzgartirishlar kiritiladi. Oliy ta’lim tizimining sifat nazorati Agentligining SKMsiga barcha oliy ta’lim muassasalari riosa kilishlari shart.

Bu xujjat milliy darajada tasdiklangan bulib, oliy ta'lim dasturlarini tavsiya kiluvchi va ishlab chikuvchi barcha tashkilotlar uchun dasturilamal bulib xisoblanadi. Bu oliy ta'lim muassasalari faoliyat natijasi bulib, bakalavr, magistr malakasini yoki ilmiy unvonlarni berish xisoblanadi. Shuning uchun xam Oliy ta'lim tizimini sifatini nazorat Agentligining SKM si TALABLARIGA ta'lim muassasalari rioya kilishlari majburiydir.

Angliya, Shimoliy Irlandiya, Shotlandiya va Uels ma'muriy territoriyalardag oliy talim muassasalari va Xalkaro oliy ta'lim muassasalar yukoridagi xujjatlar asosida faoliyat olib boradilar. Shu bilan birga ba'zi tarmok oliy ta'lim muassasalari xam shu xujjatlar asosida ish olib boradilar va malaka yoki ilmiy unvonlarni berishlari mumkin.

SKM mustakil va uz-uzini boshkaruvchi ta'lim muassasalari uchun zaruriy boshlangich xujjat bulib ta'lim Dasturlari va Standartlari u yerda belgilangan me'zon va kursatkichlarga mos ravishda ishlab chikiladi. Natijada barcha oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatining yukori bulishiga erishiladi. SKM ning talablari ilmiy tekshirish institutlari va boshka ta'limni uzatish, mulkni boshkarish bilan boglik faoliyat turlariga tegishli emas.

Xar bir ma'muriy territoriya uz xududidagi ta'lim muassasalari ta'lim sifatiga ma'suldir. Oliy ta'lim muassasalari SKMga rioya kilish bilan birga murakkab innovatsiyalar jarayonida mazkur xujjatlarga yangiliklar kiritishlari ,talablarni kuchaytirishga karatilgan innovatsiyalarni joriy etishlari ragbatlantiriladi.

QONUNCHILIKKA MUNOSABAT.

SKMga tegishli bulgan kupgina mavzu va koidalar bevosita konunchilik bilan boglik. SKM konunlarni interpritatsiya kilmaydi va konun talablarini tartibga solmaydi. Barcha oliy ta'lim muassasalari uz faoliyatlarini konunchilik doirasida olib borishlarini kafolatlashlari kerak. Konun talablari birinchi darajali ekanini unutmasliklari lozim.

TALABLAR.

Talablar asosiy tamoyillarni aks ettirib , ta'lim xamjamiyati talab kilinayotgan talab va standartlarga mos ravishda faoliyat olib borishlarini takozo kiladi. Kuyilgan talablar oliy ta'lim muassasalaridan talabalar va keng jamoatchilik nimalarni kutayotganini belgilab beradi.

Muvaffakiyatli amaliyot kursatkichlari .

Ta’lim muassasasining muvaffakiyatli va barkaror faoliyatini aks ettiruvchi kursatkichlar bulib ularni amalgalish oshirish orkali oliv ta’lim muassasasi uzini saloxiyati va sifat darajasini namoyon kiladi. Kursatkichlar nazorat ruyxati bulib xisoblanmasdan , ularning asosiy maksadi ta’lim muassasalari , ularga tayangan xolda uz koida va sifat kursatkichlarini SKMga mos keladigan ravishda ishlab chikishlariga yordam berishdan iboratdir. Kursatkichlar guruxchalarga bulingan bulib , xar biri aloxida sarlavxalangan.

TALABLAR va **KURSATKICHLAR**ga tushuntirishlar ilova kilingan. Ularda SKMni amalda kullash buyicha vaziyatdan kelib chikkan xolda kanday karor kabul kilish kerakligi xakida misollar keltirilgan. Oliy ta’lim Akademiyasi va Talabalar milliy Ittifoki kabi tashkilotlarning faoliyatidan namunalar berilgan.

UMUMIY KADRIYATLAR(afzalliliklar).

SKMning umumkabul kilingan kadriyatları , ta’lim muassasalari asoslanadigan asosiy xolatlarni izoxlaydi.

- Xar bir talabaga aloxida e’tibor va xakkoniylig, xurmat bilan munosabat kilish
- Xar bir talaba uz kobiliyatidan kelib chikkan xolda uzining ta’lim jarayoniga xissasini kusha olish imkoniyatini yaratish
- Ta’lim dasturlariga tegishli barcha axborotlar bilan talabani tanishish imkoniyatini berish
- Ta’lim jarayoniga tegishli ukuv dasturlari va barcha jarayonlar tushunarli va oydin bulishi lozim.
- Ta’lim jarayonining akademik standartlari va ta’lim sifatining strategik nazorati eng yukori darajadagi raxbariyat tomonidan nazorat kilinadi
- Xamma urnatilgan tartiblar va jarayonlar muntazam ravishda va chukur urganilishi, tekshirilishi va nazorat etilishi zarur
- Ta’lim sifati va akademik standartlarni kullab kuvvatlash uchun ma’lum darajada tashki resurslarni jalb etish kerak.
- Ta’lim muassasasining barcha xodimlarini sifatli faoliyat olib borishini ragbatlantirish.

BOBlar.

SKMs 4 kismdan va xar bir kism boblardan iboratdir.

Boblar:

A-kism. Akademik standartlarni tasdiklash va kullab kuvvatlash;

A1-Yevropa va Buyukbritaniyada standartlarni (urnatish) tasdiklash yunalishlari

A2—Ilmiy unvon beruvchi muassasalar akademik standartlari yunalishlari

A3—Ilmiy unvonlarga kuyiladigan standartlar talablarini tmasdiklash.

B-qism. Akademik sifatni oshirish va kafolatlash.

B1-Dasturni ishlab chikish, rivojlantirish va tasdiklash

B2-Oliy ta'limga kabul,tanlash va ta'lim jarayoniga kuyish

B3-Ukitish va ta'lim berish

B4-Talabalarni intilish va iktidorlarini kullab kuvvatlash.

B5-Talabalarni karor kabul kilish jarayoniga jalbetish

B6-Talabalarni baxolash va ragbatlash

B7-ta'lim darajasini tashki baxolash

B8-Dasturni urganish va monitoring kilish

B9- Talabalar xoxishlari va shikoyatlari

B10-Oliy ta'limni xamkorlikda berish

B11-Ilmiy tadkikot ishlarida unvonlar berish

V—kism.Oliy ta'lim taklifi xakida axborot.

A-kismda 7-turdagi talablar bulib, ularga tushuntirish xatlari ilova kilingan;
V kism va B

kismning xar bir bobu yagona talablardan va bir kator muvaffakiyatli va barkaror amaliyot uchun kursatkichlardan iborat.(ularga izoxlar berilgan)

MAVZULAR.

SMKning xar bir kismi va bobu umumiy mavzular va tegishli mavzuchalar buyicha masalalarni kurib chikadi.

- Talabalar va tinglovchilarga ma'lum mavzu buyicha kanday axborot beriladi;
- Tegishli mavzu buyicha talabalar faolligiga kanday ta'sir kursatish mumkin;
- Tenglik va farklar savollarini xar yerda kanday kilib kiritish mumkin.
- Mavzuda turli talabalar tashkilotining extiyojlari kanday kurligan
- Tegishli mavzuga nisbatan turli ilmiy unvon va malaka beruvchi muassasalarining ma'suliyati kanday farklanadi.
- Mavzuga tegishli savollar 4 ma'muriy xududda kanday farklanadi.
- Mazkur SMKning boblari mazmuni Yevropa Oliy Ta'lim tizimining standart va sifat talablariga kay darajada mos keladi.

Ijobiy tajriba va takomillashtirish yunalishlari kay darajada mavzuga mos yoki tegishli.

Xozirgi vaktda Buyukbritaniyada juda kup mustakil oliy ta'lim muassasalari paydo bulmokda.Britaniya oliygoxlarda ta'lim olayotgan talabalar tarkibi xam kengayib bormokda.SMK akademik standartlarni boshkarish buyicha barkaror tamoyillarga va amaliyotga tayanadi. Ma'lum ta'lim muassasalarida oliygox missiyasidan kelib chikkan xolda korrektirovka kilinadi.Talabalarga sifatli ta'lim standartlari va dasturlari asosida sifatli ukitish jarayoni kafolatlanadi. Shuningdek SMK oliy ta'lim muassasalarining sifatini nazorat mezoni bulib xisoblanadi.Ta'lim muassasalarini baxolash, ularning SMK Talablariga mosligini aniklash yunalishlarini belgilaydi.

Sifat koidalari Majmuasi kanday ishlab chikilgan.

1997yilda Sifat Koidalari Majmuasi Akademik infrastrukturasing urniga kabul kilindi.Bu uzgartirishlar yunalishlari Agentlikning mutaxassislari va oliy ta'lim vakillari, Oliy ta'limni urganish milliy Komitetining taklif va tavsiyalari asosida ishlab chikilgan.Oliy ta'limni urganish Milliy Komitetini Lord Diring boshkaradi.Turli baxolar , fikrlar va maslaxatlar asosida SIFAT KOIDALARI MAJMUASI ishlab chikildi va tasdiklandi.

Bakalavr va magistr malakasini, xamda ilmiy unvon beruvchi oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tadkikot institutlari uchun SKMda ba'zi farklar mavjud bulib, «ilmiy unvon ta'sis etuvchi tashkilot» kabi eslatmalar kiritilgan va ularga kuyiladigan talablar oliy ta'lim muassasalarinikidan fark kiladi.

SKM Britaniyaning barcha oliy ta'lim muassasalarida malakaviy akademik standartlar va ukitishning sifatini ta'minlashga yordam berib, ularning strategik yunalishlarini belgilashga asos bulib xisoblanadi.Barcha oliy ta'lim muassasalaridan kutiladigan samarani , mutaxassislarni rakobatbardoshligini ta'minlashni SKM talab etadi. Xar bir ta'lim muassasasi SKM tamoyillariga asoslanib uzining mustakil ichki nazorat tizimini ishlab chikishi mumkin.Bu bilan u uzining akademik standartlari va ta'lim sifatini uning samarasini ta'minlaydi.

O'qitish sifati va standartlarga ma'sul mutaxassislar tarkibi.

SKM mutaxassislar uchun texnik kullanma bulib, oliy ta'lim muassasalari akademik standartlari va ukitish sifatini ma'lum darajada ta'minlovchi xujjatdir.Britaniya oliy ta'lim tizimininig strategiyasi va tarakkiyotini belgilashda katta axamiyat kasb etadi.

Oliy ta'limning keng mutaxassislar doirasi

Fakultet yoki kafedrada faoliyat olib boruvchi xar bir professor ukituvchi SKM strategiyasi bilan tanish bulishi ,uzining majburiyatlari va vazifalari doirasida undan kullanishi lozim.OTMning boshka mutaxassislari uz faoliyatlariga tegishli koidalarga kura ish tutishlari lozim.

Talabalar.

Talabalar va talabalar jamiyatlari uchun SKM ni bilish juda muxim bulib , ular munozara va baxslarda ta'lim sifatiga kuyiladigan minimal talablar xakida uz fikrlarini bildirishlari , ularni takomillashtirish buyicha takliflar berishlari mumkin.

Talabalar va tinglovchilar.

SKM Buyukbritaniyaning barcha ta'lim makonida ta'lim sektori natijalarini kiyoslash va bir sifat darajasiga keltirish uchun muxim asos bulib xisoblanadi. Talabalarga ta'lim sifati kafolatlanadi. Oliy ta'lim tizimi bilan keng doirada kizikuvchilar uchun Agentlik Talabalar Milliy Ittifoki bilan xamkorlikda kullanma ishlab chikdi. Unda talabalar manfaatlarini ximoya kilish , akademik standartlarni ishlab chikishga ta'sir etuvchi omillar xakida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Oliy Ta'lim Sifatini Nazorat Kilish Agentligining(OTSNK) inspektorlari.

OTSNKning tashki nazoratlar utkazuvchi inspektorlari SKMdan mezon sifatida kullanadilar,ularga kura ta'lim muassasasining akademik standartlarga mos kelishi,ta'lim sifatining tegishli talablarga javob berishini tekshiradilar.Milliy ta'lim standartlarini takomillashtirish,rivojlantirish va axborot bilan ta'minlanishini konikarlilagini aniklaydilar.

SKM kimga tegishli.

Mazkur xujjat Buyukbritaniyaning barcha oliy ta'lim sektoriga tegishlidir.U OTSNK Agentligi tomonidan nashr etiladi va Agentlik xamda ta'lim sektori vakillari tomonidan kullab kuvvatlanadi.Unga asosan ta'lim muassasalari mutaxassislari ishtirokida Talablar ishlab chikiladi.

SKMning ijrosi uchun kim javobgar xisoblanadi.

Xar bir oliy ta'lim muassasasi uz dasturlarining akademik standartlari va ukitish sifatiga javobgardir.Ular uz majburiyatlarini SKM Talablariga tegishli ravishda bajarishlari shart.

OTSNK Agentligining axamiyati.

Muntazam ravishda tashki nazoratlar utkazib OTSNK Agentligi jamiyatga oliy ta'lim sifati va uning SKM talablariga javob berishi xakida

kafolat beradi. Nazoratlar jarayonida oliy ta'lim muassasalari SKM Talablariga mos kelishlarini tegishli xujjatlar bilan isbotlashlari shart. Ular uz strukturalarining va tashkiliy strategiyaning samarali ekanligini namoyish etishlari lozim. Talabalarga taklif etilayotgan ta'lim standartlarini, olinadigan malakaga mosligini isbotlaydigan xujjatlarni takdim etishlari kerak.

SKMsi tekshiruvning turli usullarida kullaniladi. Individual usullar xakida broshyuralar chop etilgan. Xar bir usul turli ta'lim muassasalari va Buyukbritaniyaning ma'lum ma'muriy territroriyasi kontekstidan kelib chikkan xolda tegishli maksadlarga yunaltirilgan ravishda ishlab chikiladi. SKMning xar bir kismi va bobo muntazam ravishda kayta kurib chikiladi va yangilanadi.

XOMIY tashkilotlarning oliy ta'limdagi roli.

Xomiy tashkilotlar - oliy ta'lim tizimini konuniy darajada baxolashda ishtirok etishlari majburiy bulib,(Shotlandiyada esa, takomillashtirishda xam) ,uzlari moliyalashtirayotgan muassasani tekshirishda katnashadilar.Xomiy tashkilotlar Agentlik bilan tuzilgan shartnomaga kura tekshiruv jarayonlarida katnashadilar.Agar nazorat utkazilgan oliy ta'lim muassasasida akademik standartlarninig sifat kursatkilariga mos kelmaslik aniklansa,xomiy tashkilot sanksiya kuyishga xakli.Xomiy tashkilotlar buyicha kushimcha ma'lumotlarni saytlardan topish mumkin.

- ✓ Oliy ta'limni Moliyalashtirish buyicha Angliya Kengashi.
- ✓ Oliy ta'limni Moliyalashtirish buyicha Uels Kengashi
- ✓ Moliyalashtirish buyicha Shotlandiya Kengashi
- ✓ Shimoliy Irlandiya ish bilan ta'minlash va ukitish bulimi .

Teng xukuklilik va turlilik.

SKMsi teng xukuklilik va turlilik borasida xilma -xil masalalarni uz ichiga olgan xolda yondoshadi. Teng xukuklilik deganda barcha ta'lim oluvchilarga , ta'lim beruvchilarga bir xil xurmat va e'zozlash asosida munosabatda bulish nazarda tutiladi. Millatlarning kelib chikishi , irki, diniy e'tikodi, ijtimoiy kelib chikishidan kat'iy nazar, ularga bir darajada munosabatda bulish. Ukitishning inklyuziv muxiti xar bir talabaning individual xususiyatlaridan kelib chikkan xolda , ularga teng imkoniyatlarni yaratadi, mumkin bulganda inklyuziv modellarni xar bir shaxsning individual kobiliyatlariga moslashtiradi.

Teng xukuklilik va turlilikga yondoshish kuyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi;

1. Ta'lim olish uchun tegishli sharoitlarning yukligi , odamlarning ma'lum guruxlarga mansubligi natijasi emas, balki atrof muxit bilan boglik ijtimoiy barerlarning mavjudligidandir.

2. Xech bir talaba uzining kelib chikishi yoki ma'lum talablariga kura kamsitilishiga yul kuyilmaydi.

Bu tamoyillarga rioya kilish amalda kuyidagilarni bildiradi.

✓ Oliy ta'lim muassasalari talabani ma'lum ijtimoiy jamiyat yoki talabalar xayotiga tegishli tadbirlarda ishtirokiga tuskinlik kiluvchi barer(Tusik) larni bartaraf etish buyicha tegishli choralarni kuradi.

✓ Urta bugin raxbaryatidan to oliy raxbaryatgacha tenglikni

✓ ta'minlashga,inklyuziv siyosatni rivojlantrishga intilishlari lozim.Bu siyosat xar bir talabani bilim va tajribasini oshirishga karatilgan bulishi kerak.

SIFAT KOIDALARI MAJMUASIDA qabul kilingan tenglik va farklarga bulgan yondoshish 2010 yilda kabul kilingan TENGLILIK AKTi dagi tamoyillarga asoslanadi. Bunday yondoshuv fakat AKT bilan cheklanib kolmagan bulib, boshqa mamlakatlarda beriladigan Britaniya oliy ta'limiga nisbatan xam kullanadi. Ta'lim jarayonida barchaga teng imkoniyatlar yaratish uchun SKMda «xususiyatlari(xarakteristikasi) ximoyalangan talabalar» iborasi kullanadi.,bunday ibora alovida guruxdagi talabalarga nisbatan kullanadi. Bu yerda jismoniy kamchiligi bulgan, yoshi, xomilador, oilali, irki, millati, etnik kelib chikishi, jinsi uzgartirilgan kabi talabalar guruxi nazarda tutiladi. Kushimcha ma'lumotlarni Tenglik Muammolari Buyicha Tashkilotlar saytida topish mumkin.

AKADEMIK STANDARTLAR, SIFAT, TAKOMILLAShTIRISH, AXBOROT

Bu 4 kursatkich Agentlikning barcha tashki tekshiruvlarining asosiy tarkibiy kismi bulib xisoblanadi. Kup jixatdan bular uzaro boglik bulsada, ulardagi farkni SKM tarkibida keltirilganlardan aniklash kerak.

MINIMAL(dastlabki) akademik standartlar- malakviy daraja yoki ilmiy unvon olish uchun zarur bulganbilimlar va yutuklarga bulgan talablardir.(kandidatskiy minimumday).Xar kanday malakaviy daraja uchun alovida akademik standartlar ishlab chikilgan.Bunday standartlar Buyukbritaniyaning barcha ma'muriy xududlarida birday kullanadi.

AKADEMIK STANDARTLAR—ilmiy unvonlar beruvchi tashkilotlarning malkaka va daraja olish uchun tasdiklangan standartlaridir.Bunday standartlar minimal standartlardan yukori darajada urmatiladi.(ishlab chikiladi).

Minimal yoki boshlangich(porogovle) standartlar ilmiy daraja, unvon beruvchi tashkilotlarda oliy ta'limdagi malaka darajasiga tugri keluvchi ,ya'ni uning mantikan yukori darajadagi davomi bulib kullanadi.Minimal akademik standartlar oliy ta'limdagi talabalar ga urmatilgan malakviy standartlardan fark kiladi.Malkaviy standartlar oliy ta'limda ma'lum yunalish buyicha bilimlar va

malakaviy kunikmalarga ega bulishni nazarda tutuadi. Ilmiy daraja beruvchi va tasdiklovchi tashkilotlar minimal akademik standartlar asosida ish yuritadi va javobgarlikni uz zimmasiga oladi.

Oliy ta'limning dasturiy ukitish jarayoni natijasida milliy malakaviy klassifikatsiya kursatkichlariga mos keluvchi yukori rakobatli kadrlar tayyorlanadi. Talabalar yutuklari ular tanlagenan Dastur mazmun va moxiyatini kanday darajada uzlashtirganliklari utish ballari asosida baxolanadi. Bu jixatlar, kuyilgan kuchli talablar Buyukbritaniya oliy ta'limining kuchli tomoni xisoblanadi.

Barcha oliy ta'lim muassasalar va ilmiy daraja beruvchi ilmiy tadkikot institutlar SKM dan ukuv Dasturlari va Standartlar ishlab chikishda dasturilamal sifatida foydalanadilar. Fanlar buyicha Dasturlar ishlab chikishda tashki mutaxassislarni jalg kilish , ularni kabul kilishga jiddiy va ma'suliyat bilan yondoshish talab etiladi. Minimal akademik standartlarni kiyoslashda va ular monitoringini olib borishda oliy ta'lim stanlart va dasturlari muxim axamiyatga ega. Imtixon , test jarayonlariga tashkaridan mutaxassis va professor ukituvchilarni jalg etish, baxolash jarayonini oydinligini ta'minalashga doimo kata e'tibor karatiladi va amalda unga erishiladi. Bu talabalarni uz yutuklarini ob'ektiv baxolanishiga ishonchini oshiradi va ularni masulyat bilan bilim olishga kiziktiradi.

AKADEMIK SIFAT – tegishli malakanasi olish uchun talabalar kay darajada yaxshi sifatlari bilim olish imkoniyatiga ega ekanligini anglatadi. Samarali ta'lim, uni baxolash jarayoni, ukitish resuslarining mavjudligi va ulardan talabalar kay darajada foydalana olishlari mumkinligi nazarda tutiladi. Oliy ta'lim muassasasi yukori sifatlari ta'limni berishni kafolatlash bilan birga , bir darajada berilgan ta'limni xamma talaba tomonidan bir darajada kabul kilinishiga kfolat bera olmaydi. Shunday bulsada ukitishning samarali tarkibini, strategiyasini va boshkarish jarayonini kullab , yukori natjalarga erishishga xar bir ta'lim muassasasi xarakat kiladi.

TAKOMILLA ShTIRISH—jarayonida oliyox muntazam ravishda ta'lim sifatini oshirib, bilimni talabalarga uzatish yullari izlanadi. Takomillashtirish jarayoni ta'limning turli boskichlarida , boshkaruvning pastdan to yukori zvenosigacha, ukitish jarayonida, nazorat va baxolash mexanizmida ma'suliyat va javobgarlik xissinii anglagan xolda amalga oshirilishi kerak. Bunday vazifalar ta'lim sifatiga bevosita ta'sir etib, oliy ta'limning strategik yunalishlarini belgilab beradi. Sifatni oshirishning turli usullari SKMning barcha kismlarida ma'lum yunalishlariga nisbatan berilgan.

Oliy ta'limning muximligi xakida axoli urtasida tagribot ishlarini olib

borish, oliy ta'lim tugrisida tulik ma'lumotlarnii berish , tegishli auditoriyaga mos suxbat uyushtirish , turli ijtimoiy guruxlar orasida ish olib borish juda muxim.

Barcha oliy ta'lim muassasalari ma'lum dastur asosida tegishli malaka berishda SKMda keltirilgan Talablarga- kat'iy rioya kilishlari shart.

OLIY TA'LIM MUASSASASI -termini OTSNK Agentligi tomonidan klassifikatsiyalangan va ma'lum dasturlar asosida tegishli malaka yoki ilmiy daraja berish uchun vakolatlangan muassasa tushuniladi.

Oliy ta'lim **KLASSIFIKATSIYa TARKIBINING 4-8** Darajasiga mos keluvchi dastur xisoblanib.,Angliya,Uels va Shimoliy Irlandiyada va 7-12 daraja Shotlandiya oliygoxlariga tugri keladi.

OLiy ta'lim muassasalari uz vakolat doiralarida va majburiyatlari asosida faoliyat kursatishlari lozim. Oliy ta'lim malakasi va ilmiy daraja berishga vakolatlangan muassasalar ruyxati tegishli saytlarda berilgan.[www.gov.uk/recognised-uk-degrees//](http://www.gov.uk/recognised-uk-degrees/)

-Oliy ta'lim muassasalari tegishli tarmoklar,vazirliklar ishtirokida xam ilmiy unvonlar berish vakolatiga xam egalar. Meditsina,yurisprudensiya kabi soxalarda bu kullanadi.

Malakalar buyicha Shotlandiya Departamenti tomonidan diplom va Milliy Oliy Ta'lim Attestati beriladi.

Ta'lim muassasasi kafedra,fakultet,ukuv yurti yoki muassasadan iborat.Kolledj va maktablar xam kafedratashkil kilishi mumkin. SKM da Dastur iborasi tasdiklangan,ma'lum kurs, yunalishga muljallangan ta'lim mazmunini bildiradi.Agar dastur bir biriga boglik bulmagan formal tarkiblashtirilgan birliklardan iborat bulsa ular Modul deb ataladi. Ukuv predmeti ma'lum soxadagi bilimlar majmuasini anglatadi.Malaka –akademik standartlarga mos ravishda talabaning baxolashlar assosida zaruriy natijalarga erishganligini va standartlarga moslik darajasini anglatuvchi iboradir.

« Malum ravishda ximoyalangan talabalar guruxi» Tenglilik Akti (2010)ga Muvozik Aloxiда Standarlar va dasturlar asosida baxolanadi.

Sifatni taminlash Uzi Nima? Buyukbritaniya oliv talim muassasalari talabalarining manfatlarini ximoya kilgan xolda yukori akademik standartlar asosida bilim berish jarayoni va uning sifatini kafolatlashdir.

Sifat koidalarining majmuasining buyukbritaniyaning 4 ma'muriy xududda kullanishi .

SKM BUYuKBRITIYaNING butun maydonida birdek kucha ega bulib oliv talim sektoring ma'lum darajadagi integratsiyasi va boglikligini aks yettiradi.

Ammo lekin, bazi xollarda bu koidalar majmuasi bazi xududlarda ayrim uzgartirishlar kiritib kullaniladi ,masalan Shotlandiyada, UELS va Shimoliy Irlandiyada oliy talim siyosati BUYuK BRITIYaNING parlamenti yoki assambleyalarga vakolatlangan. Natijada Oliy talimga tegishli siyosiy masalalar, xususan ukish uchun tulov, xomiylilik shuningdek boshkaruv masalari turlicha bulishi mumkin.

Shotlandiya kasbiy talimida oliy talim.

Shotlandiyada oliy kasbiy malakaning asosiy shakllari bulib malakaviy attestatlar va Milliy Oliy Talim Diplomlari xisoblanadi. Bu malakalarning aksariyat kismi Shotlandiyaning Malakalar Buyicha Departamenti tassarufida bulib, bu malakalarning akademik stadartlari uchun bevosita javobgarlikni uz zimmasiga olgan. Bundan tashkari Moliyalashtirish buyicha Shotlandiya kengashi Shotlandiya talim bulimi bilan shartnoma imzolagan va oliy talimning keyingi rivojlanishi uchun mablag ajratadi.

Shuning uchun Shotlandiyada sifat koidalari majmuasi oliy talim muasssasida u yoki bu malakani olish maksadida kullaniladi. Oliy talim Kasbiy talim kolejlari tomonidan xam beralidi.SKMning talablariga asosan talabarga sifatli talim berish va akademik satndarlarga mos kelish agentlik tomondan ragbatlantiriladi.

Kirish kursi sifatini taminlashda SKMni kullash.

Agar talabalar oliy talim kvalifikatsiyasi tarkibining 4-8 darajalarida malaka yoki akademik unvon olish uchun ukiyotgan bulsa (Angliya,Uels va Shimoliy Irlandiya)yoki Shotlandiyaning malakalar kvalifikatsiyasi tarkibing 7-12 darajasida talim olayotgan bulsa SKMning talablari kullaniladi.Kiraish kurslari odatda yillik dasturlar, taylorlov dasturlari shaklida ishlab chikiladi. Agar kirish kursi olovida bulib oliy talimning boshka dastklari boglik bulmasa u SKM koidalariiga mos kelmasligi va boshka standarlar orkali tartibga solinishi va ishla chikilishi mumkin.ilmiy unvon berishda Xalkaro darajada Malum fanlar doirasida ilmiy kengashlar tashkil kilinishi va tegishli Standartlarga asosan ilmiy ish natijalari xalkaro yekspertlari tomonidan baxolanishi mumkin.Bu xolda aloxida konuniy va tartibga soluvchi sxemalardan foydaliniladi.

3.3. Ta'lim sifatini ta'minlashda rivojlangan xorijiy davlatlar bilan hamkorlik masalalari.

O'zbekistonda ta'lim sifatini xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlash, milliylikni saqlagan holda rivojlangan davlatlar ta'lim tizimini, jumladan Bolon deklaratsiyasini atroflicha o'rghanish orqali xalqaro ta'lim tizimiga kirib borish, ta'limda hamkorlikni ta'minlash maqsadida Oliy o'rta maxsus ta'lim vazirligi Hay'atining 2003 yil 28 maydagi 5/6-son va 2003 yil 5 avgustdaggi 7/3 -son qarori¹ asosida ko'p ishlar amalga oshirilib keldi.

Ta'lim sohasidagi kategoriya normalari sifatida ISO standartlari, Oliy ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha Yevropa assotsiatsiyasi (ENQA), Oliy ta'lim sifati bo'yicha Yevropa reestri (EQAR), Arab davlatlari Ligasining Ta'lim, madaniyat va fan masalalari bo'yicha tashkiloti (ALECSO), kabi tashkilotlarning texnik reglamentlarini ham ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ular orasida Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) standartlariga alohida to'htalib o'tish lozim. Ta'lim tizimida sifatni takomillashtirish uchun ISO 9001-2008 talablariga asosan OTMlar bazaviy sifat menejmenti tizimi tarkibini ishlab chiqish lozim. Sifat menejment tizimini joriy qismi natijalarini baholash ISO standartidagi ko'rsatgichlar asosida olib boriladi².

Mazkur toifadagi hujjatlar qatoriga YuNESKOning 1976 yili qabul qilingan va 1997 yili qayta qabul qilingan "Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasi"ni ham kiritish mumkin.

Ta'lim sohasidagi xalqaro shartnomalarni klassifikatsiyalashda oliv ta'lim sohasidagi malakalarni tan olishga oid xalqaro hujjatlarni mazmun mohiyati jihatidan alohida turdagи hujjatlar sifatida ham ko'rib chiqish lozimdir.

ISO halqaro standartlash tashkiloti - sanoatni standartlashtirish sohasida sifatni boshqarish va oziq-ovqat mahsulotlarining havfsizligini ta'minlashgacha imkon beradigan, butun dunyo bo'yicha korxona va tashkilotlarning faoliyatiga turli shartlarni o'rnatadigan halqaro standartlashtirish tashkiloti bo'lib, eng qadimiy va eng katta tajribaga ega tashkilotlardan hisoblanadi.

Oxirgi nashr etilgan standartlardan biri ISO21001:2018 –Ta'lim muassasalari uchun boshqaruvi tizimlari hisoblanadi (SUOO – YeOMS). Bu standartlar ta'lim muassasalari xizmatlari sifatini ta'minlashga va va ta'lim xizmatlarini takomillashtirishga qaratilgan.

YeOMS shartlar to'plamini boshqarish vositasi sifatida foydalanish uchun

¹ O'z Res.Oliy o'rta maxsus ta'lim vazirligi Hay'atining 2003 yil 28 maydagi 5/6-son va 2003 yil 5 avgustdaggi 7/3 -son qarori.

² Стандарт ISO 9000:2000.: – Режим доступа: <http://iso90002000.narod.ru>.

mo‘ljallangan bo‘lib, ta’lim muassasalarida talabalarning, professor o‘qituvchilar, xodimlar, iste’molchilar va boshqa qizikuvchi tomonlarlarning shartlarini, istaklarini muvofiqlashtirishga, ular o‘rtasidagi integratsiyaning ta’minlanishiga xizmat qiladi.

Mazkur standartlarning o‘ziga xos jihatni bo‘lib, uning ISO sistemasidagi boshqa standartlar bilan o‘zaro muvofiqlikning ta’minlanishi hisoblani, endilikda ma’lum bo‘lgan “Yuqori daraja tarkibi” hisobiga erishiladi. Bu esa YeOMS ning ISO 9001:2015 va boshqako‘rib chiqilgan aniq sektorlarga yo‘naltirilgan standartlar bilan bir tarkibga ega ekanligini ko‘rsatadi. Yuqori daraja tarkibi (HLS) ikki va undan ortiq boshqaruv tizimi standartlarini birlashtiradigan, Integrated Management System kabi yagona boshqaruv tizimini tanlay oladigan muasssasa va tashkilotlar uchun muhim hisoblanadi.

ISO 21001 seriyasidagi standartlarni ISO seriyasidagi boshqa standartlardan farqlovchi asosiy tomoni ulardan (A-G) ilovalari juda keng berilgan hamda ISO 21001 shartlari va konsepsiyasiga nisbatan keltirilgan juda ko‘p ma’lumotlar va tavsiyalar ta’lim xizmatlari bilan bog‘liq ekanligi bilan ham tavsiflanadi. Ilova “A” avvalgi ta’limning provayderlariga nisbatan qo‘sishimcha shartlarni aks ettirib, ISOning boshqa standartlaridan ajralib turishini ko‘rsatadi, chunki ISOning ilovalari, asosan foydalanish uchun tavsiya sifatida qo‘llaniladi.

Shuni ta’kidlashimiz mumkinki, mazkur standartlar u boshlang‘ich yoki o‘rta ta’lim yoki universitet darajasida ta’lim xizmatlarini yetkazish sohasi, davlav ta’lim sektori yoki xususiy ta’lim sektori bo‘lishidan qat’iy nazar qo‘llanilishi mumkin. EOMS nafaqat maktab yoki oliy ta’lim muassasalarini uchun, balki ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish, bilimlarni uzatish va almashishda o‘quv dasturlaridan foydalanadigan har qanday muassasa uchun ham o‘rinlidir.

Ta’limda standartlar – bu yangilik emas. O‘n yillar davomida ta’lim standartlari, natijalarga erishish standartlari, standartlashtirilgan o‘quv rejalar, o‘qitish standartlari, standartlashtirilgan testlar va boshqalar. ISO standartlari chegarasida ham ta’lim muassasalarini standartlashtirish mutlaq yangi konsepsiya emas.

ISO tashkiloti 2013 yil ISO 9001:2000 ta’lim sektoriga ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishga yordam berish maqsadida boshqaruv tamoyillarini nashr etdi. Mazkur boshqaruv tamoyillari ta’lim muassasalarining barcha darajalarida boshlang‘ich, o‘rta va oliy ta’lim, masofaviy va elektron ta’limda sifatni ta’minlashga qaratilgan. Shuni ta’kidlashimiz mumkinki, ISO 21001 standartlari ISO 9001 standartlarining davomchisi hisoblanib, ta’lim sohasida sifatni boshqarish tizimini yaratishga xizmat qiladi.

ISO 21001 ishlanchimalari ISO /RS 288 tomonidan ishlab chiqilgan. Ish

Koreyaning texnologiyalar vastandartlar bo'yicha agentligi (KATS) boshchiligidagi amalga oshirilib, ishchi guruh standartlashtirish bo'yicha 39ta milliy tashkilotlarning 86ta setorlararo ekspertlaridan tashkil topgan bo'lib, ta'lim sohasidagi barcha qiziquvchi tomonlar ham ishtiroy etishgan. ISO 21001 ta'lim muassasalari tomonidan foydalaniladigan sifatni boshqarish tizimlarida qo'llaniladi.

ISO 21001 o'quvchilar va boshqa qiziquvchi, manfaatdor shaxslarning talab va ehtiyojlariga javob bera oladigan darajadagi ta'lim xizmatlarini ko'rsatishni ta'minlashda ta'lim muassasalari uchun boshqaruvning yagona dastagini yaratishga qaratilgan. Asosiy manfaatdorlar ta'lim oluvchilar va ta'lim muassasalari bo'lishiga qaramasdan, ishonch bilan aytishimiz mumkinki, barcha jalb etilgan tomonlar ISO 21001 va tarmoqning ilg'or amaliyotiga asoslanib, ta'lim muassasalari uchun joriy etilgan sifatni boshqarish tizimidan ma'lum ma'noda qo'llanishlari mumkin.

Standart – ta'limda yaratilgan me'yoriy reja, dastur, darsliklarni o'zlashtirish ekvivalenti, ya'ni ta'lim mazmunini o'zlashtirish darajasidir.

Standartlarni ishlab chiqishda talabani haddan tashqari zo'riqtirib yubormaslik talablariga rioya qilish, ya'ni ular talabaning yoshiga mos, uni bajarishga qurbi yetadigan darajada bo'lishi kerak. Albatta, ta'lim oluvchining qiziqlishi, xohishi, ehtiyoji hisobga olinishi lozim. Davlat va jamiyat ta'lim muassasalari oldiga muayyan ijtimoiy buyurtmalar qo'yayotgan ekan, o'sha muassasalar tomonidan tayyorlanadigan kadr egallashi lozim bo'lgan ijtimoiy sifatlarning minimal chegarasini ham ko'rsatib berishi tabiiydir. Ta'lim oluvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va ma'naviy sifatlarning eng quyi miqdori ilmiy asoslarda belgilab berilgan rasmiy pedagogik hujjat – davlat ta'lim standarti hisoblanadi.

Ta'lim standartita'limning maqsadi, qimmati, uning mazmuni va natijasi (tayyorlov darajasiga bo'lgan talab), ta'lim – tarbiyaning dasturiy xususiyati, ta'lim jarayonining tuzilish tarxi, uning maqsadga erishish darajasini bosqichma – bosqich va yakuniy diagnostikasiga mo'ljallangan ko'lam hamda vaqtini, ta'lim va ma'lumotlilik darajasini belgilaydi.

DTS Kadplap tayyoplash milliy dastupini amalga oshipish Respublika komissiyasining xulosasi asosida, O'zbekiston Respublikasi Vaziplap Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. DTS ulap tasdiqlangan sanadan boshlab, amalga kipitiladi va ta'lim boshqapuvi vakolatli opganlapi va ta'lim muassasalapi tomonidan majbupiy ijpo etish uchun qabul qilinadi. Tasdiqlangan DTSga muvofiq, ta'lim muassasalapiga ega bo'lgan vazipliklap va idopalap ta'lim va kasb-hunap dastuplapini ishlab chiqadi va ulapning amaliy

o‘zlashtipilishini po‘yobga chiqapadi. Ta’lim oluvchilapning qobiliyatlapni va ehtiyojlapiga bog‘liq pavishda o‘quv yuklamasini tabaqalashtipish, DTS tomonidan belgilangan me’yoplardan optiqcha ta’lim mazmunini belgilash ta’lim boshqapuvni vakolatli opganlapi va ijpo etuvchi hokimiyat mahalliy opganlapi vakolatiga kipadi.

Davlat ta’lim standaptlapining jopiy etilishi quyidagi maqsadlap amalgal oshipilishini nazapda tutadi:

- ta’limning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalgal oshipilayotgan chuqup iqtisodiy va ijtimoiy islohotlap, pivojlangan demokpatik davlat bappo etish talablapiga javob bepuvchi kadplap tayyoplanishini ta’minalash;

- mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy tapaqqiyoti istiqbollapidan, jamiyat ehtiyojapidan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlapidan kelib chiqib, kadplap tayyopplash mazmunini taptibga solish;

- ta’limning demokpatlashuvi, insonpapvapplashuvi va ijtimoiylashuvi, ta’lim oluvchilapning huquqiy va iqtisodiy bilimlapi dapajasini, shuningdek ta’lim japayoni samapadopligrini oshipish;

- sifatli ta’lim xizmatlapi ko‘psatish, ta’lim va kadplap tayyopplash sohasida shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlapini himoya qilish;

- kadplap tayyopplash sifatini va ta’lim faoliyatini baholash mezonlapini va taptibini belgilash;

- ta’lim japayoni va kadplap tayyopplashning izchilligi va uzlusizligini ta’minalash, ta’limning bapcha tuplapi va bosqichlapida o‘quv – tapbiya japayonini maqbullashtipish;

- mehnat va ta’lim xizmatlapi bozopida paqobatbapdoshlikni ta’minalash.

Xalqaro standartlashtirish ishlarini amalgal oshirishda bir qator tamoyillarga asoslaniladi.

Bularga birinchidan, standartlashtirishning kompleksliligi tamoyilini kiritishimiz mumkin. Komplekslilik tamoyili tegishli talablarga javob beradigan mahsulot sifatini belgilovchi omillarni tizimlashtirish va optimallashgan holda bir-biriga bog‘lash asosida normativ hujjatlarni o‘rnatish, tasdiqlash va qo’llashni ko‘rsatadi.

Standartlashtirishning ikkinchi muhim tamoyili standartlashtirishning ilgarilab rivojlanishi tamoyili hisoblanadi. Bu tamoyil mahsulot sifatiga bo‘lgan talablarning vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi, mahsulotni takomillashtirish bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Zamonaviy texnika vositalarining ishlab chiqilishi, masofaviy boshqarish, innovatsion texnologiyalar, yangi ob’ektlarning paydo bo‘lishi, yangi standartlarning qabul qilinishini taqozo qiladi.

Tavsiflash tamoyili esa, standartlanuvchi ob'ektning tavsiflash belgilarini ajratishni va zanjirlashni nazarda tutadi, bunda umumiy va xususiy tavsiflash amalga oshiriladi. Standartlashtirish ishlari amaldagi va rasmiy standartlashtirish ko'rinishida olib borilishi mumkin.

Amaldagi standartlashtirish jamiyat hayotidagi tarixan shakllangan narsalar (masalan, kalendar, yozuv, hisob va b.) hisoblansa, rasmiy standartlashtirish – maqsadga yo'naltirilgan ravishda amalga oshiriladi, o'rnatilgan tartibda normativ hujjat tayyorlanadi. Ma'lum soha, tovar, xizmat turiga tegishli normativlarning aniq foydalanish muddati ko'rsatiladi.

SMT tarkibiga bir qator hujjatlar kiradi:

- sifat siyosati sohasida rasmiylashtirilgan va aniq maqsadlari ko'rsatilgan hujjatlarning majmuasi;
- sifat bo'yicha yo'riqnomalar;
- metodologik ko'rsatmalar (GOST va ISO 9001-2008 bo'yicha majburiyatlar), protseduralarini bajarish;
- bo'limlar va lavozimlar bo'yicha instruksiyalar, ko'rsatmalar;
- ishchi yo'riqnomalar;
- tashkiliy – farmoyishli hujjatlar;
- sifat bo'yicha yozishmalar (shartnomalar, bayonnomalar, jurnallar va x.k.)
- tashqi normativ hujjatlar.

Shu bois ta'lim tizimini yanada rivojlantirish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldag'i Farmoni bilan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" da asoslandi. Ushbu farmonda yaqin besh yillikda

Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-tonli qaroriga asosan, xorijiy davlatlarning nufuzli oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik bo'yicha ikki tomonlama shartnomalar tuzish, kadrlar tayyorlash jarayoni, o'quv-uslubiy va ilmiy-tadqiqot ishlarni jahon amaliyotida qo'llanilayotgan yuqori texnologiyalar va fan yutuqlari asosida takomillashtirish hamda xalqaro hamkorlikka oid masalalarni ko'rib chiqish, muhokama etish va muvofiqlashtirish bo'yicha qator ishlarni amalga oshirilmokda. Xulosa qiladigan ta'lim sifatini oshirish strategiyasini ishlab chiqishda OTM ta'lim sifatini o'rmini baholash va uni aniqlovchi indikatorlarni yaratish, Respublikamiz oliy ta'limini jaxon oliy ta'lim tizimiga qo'shilishi uchun talab etiladigan xalqaro standartlarga muvofiq bo'lishini ta'minlash zarur. Rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini va istiqbolini belgilab beruvchi oliy ta'lim sifat menejmenti ta'minlashda, belgilangan tartibda me'riy hujjatlarni ishlab chiqish va aniq, majmuaviy xamda kelishilgan strategiyani shakllantirishda maksadli o'zgarishlarni amalga oshirish

imkonini beradi. Ta’lim tizimi sifati samaradorligini oshirishda rivojlangan Yevropa va Osiyo davlatlarining ilg‘or tajribalaridan keng foydalanish uchun sifat menejmenti tizimiga tayyorgalik kurish va me’yoriy xujatlarni takdim etishda xalkaro ISO tashkilotini chukur taxlil etish Jahon ilmiy va o‘quv tizimiga kirish maqsadida ilmiy-texnik sohada halqaro hamkorliklarni kengaytirish hamda hamkorlik doirasidagi tajribalarni o‘rganish va ularni joriy etishda mamlakatda maxsus xalkaro anjuman o‘tkazish sonini oshirishimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Normativ-huquqiy hujjatlar.

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2014.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonuni. // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent; “Sharq”, 1997.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qonuni. //Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqietining poydevori. – Toshkent, “Sharq”.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni (2012 yil 24 iyul, PF-4456-sonli).
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 25-sonli Qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’limi vazirligi tomonidan 2015 yil 24 avgustda tasdiqlangan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’limi vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markaz tomonidan ishlab chiqilgan “Rahbar kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo‘yiladigan malaka talablari”.
- 7.“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida” 2017 yil 7 fevraldaggi PF-4947-sonli farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017 yil 29 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni.
9. Sh.M.Mirziyoev «Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz» T.: O‘zbekiston, 2017 y.
10. Sh.M.Mirziyoev «Taqnidiy tahlil, qatiy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak» T.:

O‘zbekiston, 2017 y.

11. Sh.M.Mirziyoev «Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birqalikda barpo etamiz» T.: O‘zbekiston, 2017 y.

12. Sh.M.Mirziyoev «Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi» T.: O‘zbekiston, 2017 y.

Maxsus adabiyotlar.

13. Abduqodirov A.A, Pardaev A.X. Ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish nazariyasi va metodologiyasi. -T.: “Fan va texnologiya”, 2012 yil, -104 b.

14. Abduqodirov A. A. va boshq. Case study uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba. T.: “Tafakkur qanoti”, 2012. -6 b.

15. Butakova, O. A. Struktura innovatsionnogo obrazovatelnogo protsessa / Vysshiee obrazovanie segodnya. – 2009. – № 4. – S. 18-21.

16. Gayazova E.B., Faxruttinova E.Z. Obespechenie kachestva obrazovaniya za

17. Jo‘raeva Saida “100 mumtoz faylasuf ” Toshkent “Yangi asr avlod” 2015y. 373bet

18. Ishmuxamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar . – T.: Adabiyot uchqunlari, 2017.-368b.

19. Krou M., Debars U. Model Novogo amerikanskogo universiteta. GU

20. Lutfullaev P.M. Oliy ta’limda sifatning mazmuni va mohiyati. Oliy ta’lim taraqqiyoti istiqbollari: To‘plam/ Mas’ulmuharrir M.A. Rahmatullayev . - T.:OOO “E-LINEPRESS”, 2013. – 104 b.

21. Raximov O.D. Ta’lim sifati va hayot sifati. O‘quv-uslubiy qo‘llanma, 2015.

23. Reznik, S.D. Novye prioritety deyatelnosti i modelirovanie kachestv rukovodyaushix kadrov vlysshix uchebnix zavedeniy / S.D. Reznik, O.A. Sazikina // Universitetskoe upravlenie: praktika i analiz. –2008. – №6. – S. 57-61.

24. Reforma vlysshego obrazovaniya v Yevrope (Bolonskiy protsess).– M., 2010. – 96 s.

25. Rozina I N Rezultaty oprosa issledovatelskogo proekta NOPAYaz «English for Specific Purposes” // Mejdunarodnyy elektronnyy jurnal “Obrazovatelnye texnologii i obshchestvo (Educational Technology & Society) 2013, tom 16, №2, S 547-561.

26. Ulashov U.O. Ta’lim iqtisodiyoti va menejmenti. O‘quv qo‘llanma. Navoiy, 2012y.

29. Kilicheva F.B. Ta’lim iqtisodiyoti va menejmenti. – Toshkent. 2012.

Isaqulova N., Qosimova Z. Xorijiy mamlakatlarda ta’lim. – Toshkent. 2011. – 106 b.

Xorijiy tillardagi adabiyotlar.

30. Heise, M. Professionelles Lernen jenseits von Fortbildung und Rahmen /Heise // Zeitschrift für Erziehungswissenschaften. - 2007.- № 10 (4).- s. 513-531.
31. McKee, C. W., Johnson, M., Ritchie, W. F., & Tew, W. M. Professional Development of the Faculty: Past and Present. New Directions for Teaching and Learning, Los-Angeles, 2013, p. 15-20.
32. The European Commission on New modes of learning and teaching in higher education. October, 2014. Luxembourg: Publications Office of the European Union. – 2014. – 68 pp.

Internet manbalari.

33. <http://www.gov.uz> – O‘zbekiston Respublikasining davlat portali.
34. <http://www.edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining sayti.
35. <http://www.mineconomu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligining rasmiy sayti.
36. <http://www.stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining sayti.
37. <http://ziyonet.uz>
38. www.bimm.uz
39. www.press-uz.info
40. www.uz. O‘zbek internet resurslarining katalogi.
41. www.pedagog.uz
42. www.tdpu.uz
43. <http://uza.uz/oz/documents/respublika-oliy-talim-va-ilmiy-tad-i-ot-muassasalari-khodiml-05-04-2018>

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-MAVZU: RIVOJLANGAN XORIJIY DAVLATLARDA OLIY TA’LIM SIFATINI BOSHQARISH TIZIMI. (4soat)

Amaliy mashg‘ulotda QAA – oliy ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘yicha Agentlik, sifat kodeksi, oliy ta’lim sifatini baholashning asosiy maqsadlari, ta’lim sohasidagi xalqaro tashkilotlar faoliyati tahlil qilinadi.

Hozirgi zamon ilmiy faoliyati izlanishlar ko‘laming o‘sishi, fanlararo va global xarakterga egaligi hamda ularning dunyo innovatsion o‘sishiga ta’sirining kuchayishi bilan ajralib turadi. Rivojlangan davlatlarda fanga ajratilgan xarajatlarning muhim o‘sishiga qaramasdan ularning birortasi ham ilmiy izlanishlarning to‘la spektri bo‘yicha har tomonlama ilmiy tadqiqotlar olib borish imkoniga ega emas. Bunday holda fan, texnologiyalar va innovatsiyalar sohasida faqatgina ilmiy emas, balki sotsial iqtisodiy rivojlanishni ham aniqlab beradigan ustuvor yo‘nalishlarni tanlash muhim qiymat kasb etadi.

Rivojlangan Yevropa davlatlarida, jumladan, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Italiya,Finlandiya va boshqa davlatlarda u yoki bu ilmiy texnologik yo‘nalishlarni qo‘llab quvvatlash haqidagi qarorlar davlat tashkilotlari, ilmiy tadqiqot markazlari, universitetlar, konsalting kompaniyalar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari asosida qabul qilinadi.Bu ishlar dunyo miqyosdagi ilmiy texnologik rivojlanishning ustivor yo‘nalishlarini aniqlashga, davlatning raqobatli ustuvorligini tahlil qilishga, fan, texnologiya va innovatsiyalarning allaqachon bajarib bo‘lingan programmalari samaradorligi bahosiga qaratilgan. Davlat bilan birgalikda bunday tadqiqotlar natijalaridan, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda, boshqa manfaatdor gruppalar, shu jumladan, iqtisodning real sektori korxonalari va ilmiy jamiyatlari foydalanishadi.

1. Fransiya oliy maktablari.

Oliy maktablar fransuz ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir.U davlat tizimidagi oliy universitet ta’limiga zid hisoblanadi va xalqaro miqyosda

qiyyosiy tasnifga kirmaydi. Fransiyada oliy maktabda o'qish universitetda o'qishdan ortiq hisoblanadi. Universitetlarga imtihonsiz qabul qilinadi. Oliy maktabga esa katta konkurs asosida murakkab kirish imtihonlarini topshirish zarurdir.

Oliy maktablarga kirish qanchalik qiyin bo'lsa, kasbiy istiqbollar shunchalik yaxshi bo'ladi. Bitiruvchilarni to'liq ish bilan ta'minlash kafolatlanadi, eng zo'r ishchi o'rirlarga joylashadi.

Sorbonna — Fransyaning eng qadimgi va mashhur universiteti.

Sorbonnaning tarixi 1215-yildan boshlanadi. Bu vaqtda Senanining chap tomonida joylashgan cherkov kollejlari Parij universiteti degan umumiyl nom ostida birlashtirilgan edi. 40 yil o'tgach qirol Sorbon tashabbusi ostida universitet qoshida kollej ochildi va u yerda kambag'al aholi tahsil oldi. 1968 yil universitet bir necha avtonom institatlarga bo'lib tashlandi:

1. Panteon Sorbonna — bu yerda 40 ming student ta'lim oladi. Bu erda huquq, iqtisod, san'at va arxeologiya tarixi, geografiya, tarix, falsafa, matematika, informatika, boshqaruv va menejment bo'yicha diplom beriladi.
2. Yangi Sorbonna — Sorbonna ko'chasida joylashgan bo'lib, gumanitar yo'nalishi va nisbatan kichkinligi bilan ajralib turadi. Bu erda 20 mingga yaqin talaba fransuz va lotin tillari hamda adabiyoti, nemis tili, ispanshunoslik, sharqshunoslik, Arabshunoslik yo'nalishlaridan tahsil oladilar.
3. Rene Dekart nomli universitet /Strasburg Universiteti/

Strasburg Universiteti Fransyaning tarixiy universitetlaridan biri. Unga 1621 yil asos solingan. Fransiya — Prussiya urushidagi mag'lubiyatdan so'ng universitet Kayzer Vilgelm nomiga o'tgan. 1918 yil esa yana o'z nomiga qaytgan. 1970 yillarda Strasburg 3 qismga bo'lingan:

1. L.Paster nomidagi Strasburg universiteti — o'z ichiga tibbiy, aniq va tabiiy, yer haqidagi ta'limot fakultetlarini, matematika bo'limini, fizika institutini, Yer fizikasi, kimyo, fiziologiya va bioximiya, botanika, zoologiya, umumiyl biologiya, geologiya, geofizika fakultetlarini va 2 ta kollejni oladi.

20019- yil 15 yanvar kuni Universitetga 1847 talaba qabul qilindi. Shulardan 3000 tasi chet ellikdir.

2.Mark Blox nomidagi 2 — Strasburg Universiteti — 10 ta fakultetni o‘z ichiga qamrab olgan. Bular: san’at, tarixiy fanlar, gumanitar fanlar, filologiya, lingvistika, falsafa, ijtimoiy fanlar, sport ta’limi, katolik va pravoslav teologiyasi. Bu yerda 13000 ga yaqin student o‘qib, 25 % i ajnabiylardir.

3.Robert Shuman nomidagi 3 — Strasburg Universiteti — 160 ta mutaxassislik bo‘yicha talabalarni tayyorlaydi. 10000 ta’lim oluvchilar bo‘lib, 1500 chet el talabalaridir.

Fransiya va O‘zbekiston ta’lim yo‘nalishida ham qator hamkorliklarni amalga oshirmoqda. 2017-yilda Fransiyaning O‘zbekistondagi elchisi Violen de Vilmor xonim O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri Rustam Qosimov bilan uchrashdi.

Fransiya elchixonasi matbuot xizmatining ma’lumotiga ko‘ra, muloqot chog‘ida mamlakatlarimiz o‘rtasidagi qishloq xo‘jaligi, agronomiya, sayyohlik, injenerlik fanlari, sog‘liqni saqlash, me’morchilik va arxeologiya kabi sohalarda hamkorlik munosabatlariiga to‘xtalib o‘tildi.

Bugungi kunda dolzarb hisoblanadigan oliy va o‘rta ta’lim o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqish masalalari doirasida tomonlar kadrlar tayyorlash injeneriyasi, xususan, til bo‘yicha, shuningdek, boshqa mutaxassisliklarga fransuz tili ta’limi berish injeneriyasi borasida hamkorlik masalalari yuzasidan fikr almashishdi.

Fransiya elchisi o‘zbekistonlik talabalar fransuz tilida barcha mutaxassisliklar bo‘yicha, shuningdek, boshqaruv, injenerlik fanlari, irrigatsiya kabi sohalarda ingliz tilida Fransiyada oliy ta’lim olish imkoniyatiga ega ekanliklari haqida to‘xtaldi.

Elchi Fransiyaga borib ta’lim olishni istagan talabalar fransuz tilidan bilim darajalarini oshirishlari uchun Toshkent fransuz alyansi kurslariga qatnashish imkoniyati mavjudligini ta’kidlab o‘tdi.Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi vakili Fransiyaga qilgan xizmat safari davomida yurtimizning xalqaro

tadqiqotlardagi ishtiroki bo'yicha Xalqaro iqtisodiy hamkorliklar tashkiloti (OECD) mutasaddilari bilan muzokara olib borgani ma'lum Fransiyada Ta'lim inspeksiyasi uzoq tarixga ega bo'lib, 1802-yilda Napoleon Bonapart davridayoq tashkil etilgan. O'tgan davr mobaynida ta'lim, sport, kutubxona, yoshlar, ilm-fan uchun, ba'zan alohida, ba'zan birga faoliyat yuritib kelgan. 2019-yil 1-oktabrdan hukumat qarori bilan 4 ta soha uchun Ta'lim, sport va tadqiqot yo'nalishlari bo'yicha vazirliklararo BOSh INSPEKSIYa sifatida qayta tashkil etilgan.

Mavzu buyicha savollar;

1. Fransiyada ta'lim tizimlari va ularning muddatini sharhlab bering.
2. Mamlakatda oliy ta'lim va uning turlarini sanab o'ting.
3. Fransuz ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlarini keltiring.
4. Fransiya ta'lim tizimida o'qtuvchilarining tutgan o'rni va ularning salohiyatini baholash mezonlarini keltiring.
5. Fransiya va O'zbekiston ta'lim yo'nalishidagi hamkorliklari va ularning istiqbollari haqida.
6. O'zbekiston ta'lim tizimida Fransiya tizimining ustuvor yo'nalishlaridan o'z taklif va mulohazalaringizni bayon eting.

Germaniya ta'lim tizimini ustuvor yo'nalishlari.

Germaniyada ilmiy texnik va innovatsion siyosatni amalga oshirishning asosiy instrumenti bo'lib tadqiqotlar va ishlanmalarning programmalari xizmat qiladi (the thematic R&D programmes). Ulardan ko'pi ta'lim va ilmiy tadqiqotlar Federal vazirligi nazoratidadir. Energetika, transport va kosmos sohalaridagi programmalar iqtisod va energetika Federal vazirligi mas'uliyatidadir. Ekologiya va yadro xavfsizligi bilan bog'liq programmalarni atrof muhit, tabiat muhofazasi, qurilish va yadro reaktorlari Federal vazirligi nazorat qiladi. Ovqatlanish sifati va qishloq xo'jaligi masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar ovqatlanish, qishloq xo'jaligi va iste'mol himoyasi Federal vazirlilik qaramog'idadir.

Tematik programmalar yuqori texnologiyalarni rivojlantirish Strategiyasi -

2020 da aniqlangan ustuvor yo‘nalishlarga muvofiq iqtisodning konkret sektorlari va tadqiqot sohalariga qo‘llangan holda ishlab chiqiladi. Shunday qilib, “Bioekonomika 2030” programmasi milliy biotexnologik sohalar raqobatbardoshligini oshirishga yo‘naltirilgan va ratsional ovqatlanish hamda iqlimiyl o‘zgarishlar masalalariga yo‘naltirilgan. Informatsion kommunikatsion texnologiyalar “IKT 2020” sohasi uchun kompleks programmallarda ustuvor yo‘nalishlar sifatida quyidagi strategik tadqiqotlar va ishlanmalar qaralmoqda: “Murakkab sistemalarda IKT”, “Yangi biznes jarayonlar va ishlab chiqarish metodlari”, “Narsalar va xizmatlar interneti”.

Bu programmalar german ekanomikasining texnologik salohiyati va raqotbatbardoshligini aniqlaydi. Ular hamma darajada davlat va xususiy sektorlar qo‘llab quvvatlashini, shu jumladan eng muhim texnologiyalarni ishlab chiqishdagi sarmoya, innovatsion alyanslarni o‘rnatish va strategik sheriklik. Alovida ustuvor yo‘nalishlarga mos konkret qismprogrammalarni moliyalashtirishda tender sistemasidan foydalaniladi. Hamma programmalar va ishchi instrumentlr muntazam muvofiqlashtiriladi va kerak bo‘lganda yangilanadi.

Federal yerlar programmalri regionlarning yuqori texnologik rivojlanishini qo‘llab quvvatlashga yo‘naltirilgan tadqiqot va innovatsion klasterlarni shakllantirishga qaratilgan.

Buyuk Britaniyada ilmiy tadqiqot ishlari va ishlanmalarining strategiyasi.

Buyuk Britaniyada tadbirkorlik, kasb-hunar ta’lim va ilm-fanlari bo‘yicha davlat vazirligi bosh idora hisoblanadi.Ular strategik ustuvor yo‘nalishlarni tanlash va amalga oshirishda hukumat uning bo‘limlariga, parlament darajasidagi qo‘mitalariga, kengashlari va maslaxat guruhlariga tayanadi. Bular Strategik texnologiyani rivojlantirish kengashi(Technology Strategy Board, avgust 2014y. – Innovate UK), Angliya oliv ta’lim moliyalashtirish kengashi (Higher Education Funding Council for England, HEFCE), Taraqqiyot va texnologiyalar bo‘yicha kengashi(Council for Science and Technology), Ilmiy kengashlar(Research Councils) va boshkalar. Shuday qilib, Taraqqiyot va texnologiyalar kengashi milliy

taraqqiyot va rivojlantirish yuqori darajada texnik xizmat kursatishni taminlash uchun tahliliy materiallar tayyorlaydi.

Ilmiy va texnik siyosatni muxokama kilishda Fan va Texnologiya bo'yicha parlament qo'mitasi(Parliamentary Office of Science and Technology, POST) va Parlament va ilmiy qo'mitasi(Parliamentary and Scientific Committee, PSC) ham ishtirok etadi. Ustivor yunalishlar va hujjatlar(strategiya, white papers, policy papers, muhim texnologiyalar, ustivor yo'nalishlar).

Ilm-fan va texnologiyaning milliy ustivor yo'nalishlari shu sohani o'rta va uzoq muddathli rivojlantirish uchun belgilangan strategiyasidir(Department for Business, Innovation and Skills, 2011a).

Uning maqsadi-Buyuk Britaniyaning ilmiy va texnik salohiyatini mustahkamlash.

Bu strategiyada fan va texnologiyaning jadal rivojlantirish talablari belgilangan.Bular:

- Hayot haqidagi fanlar;
- Yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulot ishlab chiqarish;
- Nanotexnoligiylar;
- Kompyuter texnologiyalari;

Quyidagi innovatsion texnologiyalar ustivor investitsiya uchun tanlangan:

- Sintetik biologiya;
- Samarali hisoblash energiya;
- Energiya saqlash
- Grafen asosidagi materiallar

Buyuk Britaniyada 2012 yil yangi sanoat strategiyasi ishga tushirildi (Department for Business, Innovation and Skills, 2012). Bu iqtisodiyotning 11dan ko'proq istiqbolli tarmoqlarini dunyo miqyosida rivojlantirishga qaratilgan. Ilg'or texnologiyaning diqqat markazida, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta'limni, ilm-fan va biznes o'rtasida aloqalarni rivojlantirish.

Hukumat vakillari bilan hamkorlikda tanlangan tarmoqlarni samarali o'sishni

ta'minlash uchun sanoat dasturlari ilmiy ishlab chiqildi. Hayot fanlari haqidagi strategiya(Department for Business,Innovation and Skills, 2011b),Yadro sanoat taraqqiyoti strategiyasi(Department for Business, Innovation and Skills, 2013a),Qishloq xo'jaligi texnoligiyalarini rivojlantirish strategiyasi(Department for Business, Innovation and Skills, 2013b) va boshqalar. Ushbu hujjatlar tegishli tarmoqlarida istiqbolli texnologiyalarni rivojlantirishga mo'ljallangan.

Strategiya tomonidan aytilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun davlat tomonidan mamlakat dunyo darajasida yetakchi bo'ladigan sakkizta (Eight great technologies) platformalararo texnoligiyalar ham ajratildi [Departmant for Business, Innovation and Skills]:

- katta berilganlar texnologiyalari va energetik samarador hisoblashlar;
- sun'iy yo'ldoshlar va kosmik faoliyat natijalaridan foydalanish;
- robototexnika va avtonom sistemalar;
- sintetik biologiya;
- regenerativ meditsina;
- qishloq xo'jalik texnologiyalari;
- perspektiv materiallar va nanotexnologiyalar;
- energetika va energiyani akkumulyatsiyalash.

O'rta muddatli istiqbolda quyidagi ilmiy texnologik sohalarga ustuvor qo'llab quvvatlash taklif qilinmoqda:

- grafen;
- energetik samarador hisoblash;
- vizuallashtirishning yangi texnologiyalari;
- kvant texnologiyalar;
- sintetik biologiya;
- hayvonlarda qo'llashni talab qilmaydigan texnologiyalar;
- energiyani yig'ish.

Forsayt sohasidagi loyihalar, dokumentlar va max'ruzalar to'la ro'yxati va gorizontlarni skanerlash Fan bo'yicha Davlat idorasi saytida keltirilgan [Government Office for Science, 2015].

AQSh oliv ta'lim turlari.

AQShda oliv ta'lim quyidagi turlarga bo'linadi:

Davlat kolleji yoki universiteti. Davlat universiteti davlat yoki mahalliy boshqaruv tomonidan qo'llab-quvvatlanadi va boshqariladi. Amerikaning 50 ta shtatining har birida kamida bitta davlat universiteti va bir nechta davlat kollejlari mavjud. Ushbu jamoatchilikning ko'plari, shuningdek, ular deyilganidek, universitetlar o'z shtatlari nomini oladi: masalan, Washington universiteti (Washington shtati universiteti) yoki Michigan universiteti (Michigan universiteti).

Xususiy kollej yoki universitet. Ushbu universitetlar xususiy ravishda boshqariladi va odatda, ularda o'qish davlatga qaraganda qimmatroq. Xususiy maktablar ko'pincha davlat maktablariga qaraganda kichikroq.

Diniy jamoalardagi universitetlar va kollejlar ham xususiy muassasalardir. Deyarli hamma narsani turli dinlarga mansub talabalar qilishlari mumkin. Faqat bir nechtasi faqatgina universitet tashkil etilgan jamiyatning e'tiqodiga sherik bo'lgan abiturienglarni qabul qilish bilan cheklanadi.

Jamoat kolleji. Jamoat kollejlari bu ikki yillik o'quv muassasasi bo'lib, unda siz ilmiy daraja va sertifikat olishingiz mumkin. Diplom turiga qarab ular ikkiga bo'linadi - biri bilan boshqa universitetda o'qishni davom ettirish mumkin, ikkinchisi bilan - faqat ishslash. Siz o'rta yoshdagi mutaxassisning diplomini (san'at assotsiatsiyasi) va tugallanmagan oliy ma'lumot (fanlar dotsenti) diplomi bilan o'qishingiz mumkin. Ular amaliy fanlar doktori dotsenti diplomi va tugatganlik haqidagi sertifikat bilan ishlaydi.

Jamoat kollejlarining bitiruvchilari odatda oliy ma'lumotni tugatish uchun 4 yillik kollej yoki universitetlarga o'tkaziladi. Kollejdan o'z kreditlarini topshirishlari mumkinligi sababli, bakalavr darajasini olish uchun universitetda yana ikki yil bo'shatishlari kifoya qiladi. Ko'plab jamoat kollejlarida ikkinchi kurs sifatida ingliz tili kurslari mavjud bo'lib, bu chet ellik talabalarga universitetda o'qishga tayyorgarlik ko'rish imkoniyatini beradi.

Agar siz ilmiy darajangizdan tashqari ko'proq o'qishni xohlamasangiz, u sizning davlatingizda ishslashga yaroqli yoki yo'qligini aniqlang.

Texnologiya instituti. Texnologiya instituti texnik va tabiiy fanlar bo‘yicha 4 yillik o‘qishni o‘z ichiga oladi. Ba’zilarida magistr darajasiga ega bo‘lishingiz mumkin, boshqalarida siz faqat qisqa kurslarga borishingiz mumkin.

Mavzu buycha savollar;

1. Amerika oliv ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyati nimada deb o‘ylaysiz?
2. AQSh da oliv ta’limning qanday turlari mavjud?
3. AQSh dagi davlat kolleji yoki universiteti xususiy kollej yoki universitetdan nimasi bilan farq qiladi?
4. Amerikalik talabalar bir vaqtning o‘zida ikkita diplomga ega bo‘lishlari mumkinmi?
5. O‘zbekistonda AQSh bilan ta’lim sohasidagi hamkorligi doirasida qaysi universitet o‘z faoliyatini boshladi?

Rossiya Federatsiyasida Ta’limda sifat menejmentining joriy qilinishi.

Bugungi kunda Rossiya Federatsiyasida Ta’lim sifatini baholashning yagona tizimi (Yedinaya sistema otsenki kachestva obrazovaniya (YeSOKO)) shakllantirildi, bu o‘quvchilarning maktabdagi turli darajadagi bilimlarini fanlar kesimida nazorat qilish, maktablar va hududlar sharoitida ta’lim tizimining muammolarini aniqlash va ularni hal qilishga imkon beruvchi tizimdir.

Ushbu tizim mamlakatda ta’lim sifati to‘g‘risida to‘liq tasavvurga ega bo‘lishga, maktablar faoliyatiga turli omillarning ta’sirini tahlil qilishga va hisobga olishga imkon beradi. Bu maktablarga o‘z-o‘zini tashxis qo‘yish va mavjud muammolarni aniqlashga imkon beradi hamda ota-onalar farzandlarining bilim sifati to‘g‘risida ma’lumot olishda foydalanadi.

Ta’limda sifat menejmenti tizimi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlari va xalqaro standartlarni hisobga olgan holda ta’lim talablarini joriy qilish;
- Xaridorga yo‘naltirilganlik, mehnat bozorida shiddatli raqobat boshqaruva tizimining harakatchanligi va dinamikasini talab qiladi;
- Monitoring natijalarini hisobga olgan holda o‘quv jarayonini doimiy ravishda takomillashtirish.

Ta’lim tuzilmalarining hayotiy faoliyati o‘zaro bog‘liq uchta jarayondan iborat:

- Resurslarni olish;
- Tashkilot maqsadlariga erishish uchun resurslardan foydalanish;
- Ishlashning tashqi muhitga o‘tkazilishi.

Ta'limda sifat menejmenti tizimiga texnologik yondashuvni amalga oshirishda, ta'lim sohasidagi manfaatlari bo'lgan turli xil hokimiyatlarning o'zaro munosabatlari sxemasini hisobga olish kerak.

Ta'lim muassasalarida sifat menejmenti tizimini yaratishda sifat menejmenti nazariyasi va amaliyotining yutuqlaridan to'liq asoslab berilishi mumkin.

Rossiya ta'limi tamoyillari

- Umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi.
- Buning asosi madaniy va milliy tamoyillardir.
- Ilm.
- Dunyodagi xususiyatlar va ta'lim darajasiga yo'nalish.
- Gumanistik xarakter.
- Atrof-muhitni muhofaza qilishga e'tibor qarating.
- Ta'limning uzlucksizligi, izchil va uzlucksizligi.
- Ta'lim jismoniy va ma'naviy tarbiyaning yagona tizimi bo'lishi kerak.
- Iste'dod va shaxsiy fazilatlarni namoyon etishni rag'batlantirish.
- Boshlang'ich (asosiy) ta'limning majburiyligi.

Rossiyada ta'lim tizimining rivojlanishini shaxsning to'liq shakllanishisiz tasavvur etib bo'lmaydi, bunga bir yoki bir nechta kasb bo'yicha chuqur bilim, kasbiy ko'nikma va mustahkam kompetentsiyalarni egallash orqali erishiladi. Kasb-hunar ta'limi sohasidagi islohotlar har bir o'quvchi uchun taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan.

Kasbiy ta'limni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari:

- kasbiy ta'limning moddiy bazasini mustahkamlash va kengaytirish;
- korxonalarda amaliyot markazlarini tashkil etish;
- professional ishlab chiqarish ishchilarini kadrlar tayyorlashga jalg qilish;
- mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish.

Rossiya Federatsiyasida zamонавиј та'lim тизими professional таркибиј qismning kengayishini anglatadi.

Umuman olganda, Rossiya Federatsiyasida kasbiy ta'limning yangi darajalari davlatning mavjud mehnat resurslari sifatining yaxshilanishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida ichki iqtisodiyotning rivojlanishiga jiddiy ta'sir qiladi. Masalan, yuridik kasbga ega bo'lish aholining huquqiy madaniyatini oshirishga yordam beradi, chunki har bir fuqaro o'zlarining qonuniy huquqlari va majburiyatlarini bilishi kerak.

Oliy ta'limning sifati.

Yaqinda Rossiya Federatsiyasining ta'lim tizimida islohot amalga oshirilganiga qaramay, mahalliy ta'lim sifatining yaxshilanishi kuzatilmayapti. Ta'lim xizmatlari sifatini oshirishda siljishlar yo'qligining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- Oliy ta’limda eskirgan boshqaruv tizimi.
- Yuqori malaka darajasiga ega bo‘lgan chet ellik o‘qituvchilarning kamligi.
- Zaif internatsionalizatsiya tufayli mamlakatimiz ta’lim muassasalarining jahon hamjamiyatidagi past reytingi.

Boloniya tizimini tadbiq etish natijasida Deklaratsiyada keltirilgan Yevropaning metodologiya va mezonlar bo‘yicha yagona platformasi shakllana boshladi. 2001 yil sentabrda Yevropa universitetlar assotsiatsiyasining “Oliy ta’limda sifatni nazorat qilish” xujjati ishlab chiqildi. Mazkur xujjatga ko‘ra, oliy ta’limda sifatni ta’minlash va nazorat qilish eng asosiy vazifa bo‘lib hisoblanadi. Shuningdek, sifatni baholash

- ~ OTMlar va sifatni baholovchi tashkilotlar, idoralar o‘rtasidagi ishonchga va xamkorlikka asoslanadi;
- ~ OTMning turi (davlat yoki xususiy), yo‘nalishi, tuzilishiga, maqsadiga (ta’lim, tadqiqot, ta’lim-tadqiqot, kasbga yo‘naltirilgan) hisobga olinishi kerak;
- ~ An’analar va novatorlik o‘rtasidagi, akademik yo‘nalish va iqtisodiy reallik o‘rtasidagi muvozanat inobatga olish;
- ~ Sifatni baholashda ta’lim berilishi, OTMning tadqiqot faoliyati, boshqaruv administratsiyasi o‘rganiladi;
- ~ Talabalarning extiyojlari, ularga ko‘rsatilayotgan xizmat o‘rganiladi.

2006 yildagi EIning Lisabon Konvensiyasiga kiritgan qo‘srimchalarga ko‘ra, YeI sifatni ta’minlashda bir necha jarayonlarga e’tiborni qaratishi lozim. Jumladan, OTM bilan birgalikda o‘qitiladigan alohida kurslar (fanlar) xam baholanilishi mumkinligi, sifatni ta’minlanganligini baxolash jarayonida talabalar keng jalg etilishi, natijalar bo‘yicha hisobot chop etilishining muhimligi va yakuniy hisobot OTMga keyingi faoliyatida yordam ko‘rsatishda e’tiborga olinishi kerak bo‘lgan muxim xujjat bo‘lib xisoblanishi xamda sifatni baxolash ichki va tashqi baxolash ko‘rinishida amalga oshirilishidir.

Yevropa oliy ta’lim maydoni (**EHEA**)ning oliy taa’lim tizimida sifatni ta’minlashga qo‘sheyotgan xissasi cheksizdir. Aynan shu tashkilot ta’siri ostida so‘nggi yigirma yilda milliy sifat tizimi konsepsiysi ishlab chiqildi. 2000 yilda uning qoshida Yevropa sifatni ta’minlash assotsiatsiyasi (ENQA) tashkil etildi. 2014 yilga kelib **22** ta a’zo davlatlar **tashqi sifat agentliklarini** tashkil etdilar va bu erishilgan eng muxim yutuqlardan biri bo‘ldi. Bugungi kunda faqat sanoqli mamlakatlar, jumladan Azerbayjon, Vengriya, Montenegro, Rossiya, Slovakiya, va

sobiq Yugoslaviyada ishonchga asoslangan tashqi sifat agentliklari ochilmagan. Latviya va Malta bu borada tubdan islohat olib bormoqda.

Sifat agentliklari, idoralari OTM faoliyatini o'rganayotganida quyidagilar muxim hisoblanadi:

- ~ Har bir ma'sul tomonlarning ma'sullik darajalari va vazifalarining aniq belgilab olinganligi
- ~ OTM va alohida fanlarning sifatini o'rganishda ichki baxolash, tashqi ekspertiza va ushbu baholash jarayonida talabalarning keng jalg etilganligi
- ~ Akkreditatsiya, sertifikatsiyalash yoki shunga o'xshash jarayonda mexanizmlarni solishtirma tizimlarini mavjudligi
- ~ Xalqaro xamkorlikning o'rnatilganligi, xalqaro tarmoqda ishtirok etish

Ichki sifat nazorati\ta'minoti- ushbu tushunchaga ma'lumbir muassasa yoki muassasalar maqomida ta'limda sifatni ta'minlash va ushlab turishga qaratilgan siyosat, tajriba va jarayonlarga aytildi. 2003 yildagi Yevropa ta'lim vazirlari yig'ilishida ichki sifat ta'minoti siyosatining ilgari surilishi muximligi xamda sifatni ta'minlashga avvalambor har bir OTM o'zi ma'sul ekanligi ta'kidlandi. Shu munosabat bilan mamlakatlardagi sifat agentliklarning **tashqi sifatni nazorat** qilish talablaridan biri bu ichki sifatni ta'minlash mexanizmining mavjudligi, uning strategik rejasining aniqligi xamda jarayonga talabalar va ish beruvchilarning jalg etilganligidir. Bugungi kunda Yevropa oliv ta'lim maydoniga a'zo 31 ta ta'lim tizimlarida talabalarni sifatni ta'minlash va o'rganish jarayoniga jalg etish tajribasi qo'llanib kelinmoqda va faqat 11 ta mamlakatda bu tajriba qo'llanmaydi yoki qisman qo'llaniladi. Jumladan, Rossiyada talabalarni sifat ta'minlanganlik darajasini o'rganishga jalg etish tajribasi uncha kuzatilmaydi va shuningdek, qaror qabul qilish jarayoniga talabalarni jalg etish qo'llab- quvvatlanilsada, biroq tajribada keng foydalanilmaydi.

Shuningdek, sifatni baholash jarayonini tanlashda o'zga davlatlarga va OTMlarga bog'liq emas va mustaqildir. OTM tomonidan ma'lum bir fanni, dasturni, talabalar bilim va ko'nikmalarini baholash tizimini baholash bo'yicha mustaqil, mahoratli ekspertlar jalg etilishi mumkin. Bunda jalg etilgan espert tomonidan tayyorlangan hisobot maxfiy bo'lishi xam, ommaga taqdim etilishi xam mumkin. Biroq sifat agentliklari tomonidan amalga oshiriladigan tashqi baho va hisobot asosan chop ettiriladi va bunda chop etilgan hisobotda berilgan har bir band, ma'lumot uchun agentlik javobgar hisoblanadi. ekspertlar tomonidan

OTMlarning baholanishi. Sifatni baholash metodlari va vositalari sifatida maxsus akkreditatsiya orqali baholash, o‘zini- o‘zi baholash, OTMni bitirib ketgan talabalar fikrini o‘rganish, ish beruvchilar fikrini o‘rganish, AKTni keng qo‘llagan holda onlayn so‘rovnama kabilar qo‘llaniladi.

A’zo mamlakatlarning 25 tasida ish beruvchilarni sifatni o‘rganish va ta’minalash jarayoniga jalb etish tajribasi keng qo‘llanilib kelinmoqda. Jumladan, Daniya, Germaniya kabi mamlakatlarda ish beruvchilarni keng jalb etish eng asosiy talablardan biri hisoblanadi.

Boloniya tizimiga a’zo faqat 7 ta mamlakatda (Azerbayjon, Bosniya va Gersogovinya, Gruziya, Qozog‘iston, Moldoviya, Rossiya va Turkiya) OTMga qabul qilishda “o‘tirib” sinov topshirish tajribasi qo‘llaniladi. Shuningdek. 23 ta mamlakatda ba’zi yo‘nalishlarda qabul qilishda “o‘tirib” sinov topshirish tajribasi qo‘llaniladi. Xech bir mamlakat oliv ta’limga qabul qilinishidan oldin abiturent ish tajribasiga ega bo‘lishi kerak degan talabni qonunan talab etmaydi, biroq 16 ta mamlakatda talaba bo‘lishidan oldin o‘z yo‘nalishi bo‘yicha ish tajribasiga ega ekanligi ayniqsa magistraturaga qabul qilinishidan oldin qo‘llab quvvatlanadi.

So‘nggi yillarda ta’lim berishda va baholashda eng muxim tajribalardan biri bu OTMning ta’limni samarali tashkil etishida o‘quv jarayonini, jumladan o‘quv reja va dasturlarni rejalashtirishi emas, balki birinchi navbatda talabalar egallashi kerak bo‘lgan va ularning bo‘lg‘usi kasblarini egallahlarida asosiy hisoblangan bilim, ko‘nikma va malakalarni (kompetensiyalri) OTM tomonidan aniq belgilab olinganligi va ushbu natijalarga erishishda auditoriya va mustaqil ta’limning to‘g‘ri tashkil etilganligi muhim ko‘rsatkichga aylandi³. Bunda ayniqsa kompetensiyaga asoslangan ta’lim yondashuviga, talabalarning kelgusida qiyalmasdan ish bilan ta’minalishida zarur bo‘lgan shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarni egallahlariga e’tibor qaratildi.

Oliy ta’lim sifatini baholashning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilar dolzarb hisoblanadi:

OTMdagi sifatni ta’minalashda asosiy deb tan olingan tamoyillar

- ~ Responsibility (Ma’suliyatni xis etish)
- ~ Clarity (Shaffoflik, aniqlik, ravshanlik)
- ~ Thinking together (Birgalikda o‘ylash)

³ "Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European Higher education Area", European Association for quality Assurance in Higher Education; <http://www.bologna-bergen2005.no>

- ~ Effective communication (samarali muloqot)
- ~ Constructive exchange (Konstruktiv almashuv)
- ~ Continuity and consistency (Uzluksizlik va Mo'tadillik)
- ~ Student evaluation (Talabalar fikri va baxosi)
- ~ Peer review (Doimiy o'zaro fikr almashish)

Ta'limda eng ko'p takrorlanadigan sifat indikatorlari:

- ~ Dastur (talab va extiyojga javob beruvchi va yangilanib boruvchi) va o'quv jarayoni
- ~ Xavfsiz, sog'lom ichki va tashqi muxit
- ~ Kasbiy kvalifikatsiyani oshirish va malakani rivojlanish imkoniyati (o'qituvchi va talaba uchun)
- ~ Jamiyat va oila bilan xamkorlikning yo'lga qo'yilganligi
- ~ Liderlik, samarali boshqaruv va administratsiya

Jarayonga asoslangan indikatorlar

1) boshqaruv jarayoni:

- ~ boshqaruvning samaradorligi (shuningdek, boshliqning liderlik jihatlari);
- ~ boshqaruv administratsiyasi, o'qituvchi, ota-onasi o'rtaqidagi o'zaro xamjixatlik
- ~ maqsadni bir xil ko'ra olish, vazifalar va rejalarni bajarishda umumiyligida xarakatlanish.

2) talabalar uchun o'sish va rivojlanish jarayoni:

- ~ yo'l yo'riq va maslaxat berish;
- ~ ma'naviy va fuqarolik ta'limi;
- ~ talabalar tashkiloti(jamiyat, assotsiatsiyasi)ning mavjudligi;
- ~ jamiyat xizmatiga jalb etilishi.

3) tashqi aloqa jarayoni

- ~ boshqa ta'lim muassasalari, ta'lim, biznes, jamiyat, davlat idoralari bilan ta'lim sifatini yaxshilash yo'lida xamkorlik aloqaning o'rnatilganligi;
- ~ ish beruvchi bilan aloqa o'rnatilganligi.

4) natijalarga erishish jarayoni (outcome process indicators):

- ~ fuqarolik ma'suliyati va axloqiy(ma'naviy) munosabat;
- ~ sport va boshqa soxalarda ishtirok etish, muvaffaqiyatga erishish;
- ~ ijtimoiy va kommunikatsiya ko'nikmalar, ta'lim muassasasi va jamiyatga xizmat ko'rsatishga tayyorlik;

- ~ bosim va muammolarni yenga olish qobiliyati;
- ~ akademik muvaffaqiyat.

Angliyaning sifat agentligi (QAA)

- ~ 1997 yilda asos solingan (Yevropada birinchilardan bo‘lib)
- ~ Ma’suliyati cheklangan tadbirkorlikka asoslanmagan tashkilot
- ~ Xayriya tashkiloti sifatida ro‘yxatdan o‘tgan
- ~ Buyuk Britaniyaning barcha xududida faoliyat olib boradi
- ~ Moliyalashtirish(yiliga £12 million) ta’lim muassasalari a’zolik badali xamda oliv ta’limni moliyalashtirish milliy kengashi hisobiga;
- ~ Ofislari Gloster, Kardif, London va Glazgo shahlarida joylashgan;
- ~ 170 ta xodim va 500 ta tekshiruvchilar (shuningdek talabalar)bor.

Angliyaning sifat agentligi (QAA)ning asosiy xujjatlari bu Sifat Kodi ⁴va u 3 qismdan iborat:

A qism- akademik standartlar (kvalifikatsiyalar asosi, fanlar bo‘yicha benchmarking, kredit tizimi)

B qism-akademik sifat (doktorantura bo‘yicha nizom, ish beruvchilarni jalg etish, OTM o‘qituvchilariga talablar, talabalar fikr mulohazalari bilan ishslash, talabalar uchun yuklama va boshqalar)

S qism- oliv ta’limni yoyish bo‘yicha

OTMlarda sifat agentligi tomonidan o‘tkaziladigan besh bosqichli audit:

1. Tayyorgarlik va o‘z o‘zini baholash bosqichi
2. Taqdim etilgan xujjat va materiallarni o‘rganish bosqichi
3. OTMga tashrif
4. Asosiy hulosalar, hisobotni tayyorlash bosqichi
5. Kelgusi chora tadbirlar

OTMlar 4 ta yo‘nalish bo‘yicha baholanadi⁵:

- ~ Akademik standartlar
- ~ Ta’lim olish uchun xavola etilayotgan imkoniyatlar

⁴ Сифат кодекси. Англия сифат агентлиги. www.qaa.ac.uk/Qualitycode

⁵ O.L. Vorobjekina, Ye.B. Pokladok, L.N. Tarsyuk, Sistemy obespecheniya kachestva vyschego obrazovaniya v evropeyskix stranax (na primere Velikobritanii, Germanii, Fransii i Shveysarii). 2013.
http://misis.ru/Portals/0/IKVO/Selezneva/link_G.pdf

- ~ Takomillashtirish va rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarning ishlab chiqilganligi
- ~ Ma'lumotlarning taqdim etilishi

Sifat agentligining xulosasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- ~ Tavsiya etiladi
- ~ Buyuk Britaniya standartlariga mos keladi va javob beradi
- ~ Talablarga to'liq javob berishi uchun takomillashtirish lozim
- ~ Talabga umuman javob bermaydi

Oliy ta'limda sifatni ta'minlashga va nazorat qilishga asosiy e'tiborning qaratilganligi so'nggi yillarda Angliya OTMlarini dunyoda kuchli 20 talik, 10 talikdan joy olishi imkonini yaratdi.

Tayms Yevropa Oliy ta'lim reytingi 2016 (Times Higher Education Ranking 2016)

E'lon qilingan muddati: 15 mart 2016

Tanlash mezonlari:

- o'qitish muxiti
- ilmiy tadqiqotchilik va natijalar faoliyati
- sanoatdag'i daromad va internatsionalizatsiya

Dunyo bo'yicha 70 ta mamlakatdan berilgan 800 ta universitet bo'yicha natijalar asosida 2016 yili Yevropa bo'yicha tan olinganlari: 22 ta davlat 200 ta universitetlar

Ilg'or mamlakatlar	200 talikda	20 talikda
Buyuk Britaniya	23% - (46 ta davlat)	8 ta universiteti
Germaniya	18% - (36 ta universitet)	4 ta universiteti

Yevropaning distant ta'limni ilgari surish strategiyasi⁶

- ✓ Edinburg universiteti distant ta'limning tashabbuskori sifatida onlayn kurslar tashkil etdi. Besh yil davomida £5 million (€6 million) investitsiya ajratish

⁶ New modes of learning and teaching in higher education. High Level Group on the Modernisation of Higher Education. Report to the European Commission October 2014

oqibatida 48 ta magistratura va akkreditatsiyadan o‘tgan malaka oshirish kurslari taklif etildi. Maqsad 10 yil davomida onlayn va oflayn talabalar sonini tenglashtirishdir.

- ✓ *eCampus*- bu Norvegiya Ta’lim Vazirligi tomonidan ilgari surilgan davlat dasturi bo‘lib, maqsadi oliy ta’limda texnologiyalarni qo‘llash orqali ta’lim berish va tadqiqotchilikni rivojlantirishdir. *eCampus* dasturi doirasida masalan , 2017 yilga kelib 40% ma’ruzalarni onlayn variantlarda havola etish rejalashtirilgan.
- ✓ Shvesiya virtual kampus (SVC) dasturi- bu 8- yillik tashabus dasturi bo‘lib , uning maqsadi oliy ta’limda Ye-ta’limni ilgari surishdir. Hozirda davlat budgetiga OTMlarda Ye-ta’limni integratsiyalash bo‘yicha xarajatlar to‘liq kiritilgan.
- ✓ 2013 yil sentabrda Uels universitetlari tomonidan qabul qilingan *Ochiq ta’lim deklaratsiyasiga* ko‘ra, onlayn resurslarni o‘qituvchilar va talabalar tomonidan butun mamlakat oliy ta’lim tizimi bo‘yicha keng qo‘llanilishi amalga oshirilishi kerak.

Osiyo mamlakatlarda sifatni ta’minlash va nazorat qilish tajribasi

Dunyo sivilizatsiyasiga rivojlangan Yevropa mamlakatlari qatori bir qator rivojlangan Osiyo mamlakatlari xam o‘z xissalarini qo‘shib kelmoqda. Bu mamlakatlarga Xitoy Xalq Respublikasi, Yaponiya, Janubiy Koreya Respublikasi, Singapur, davlatdarini sanash bilan birga, jadal rivojlanishni yo‘lini tanlagan Xindistonne xam keltirish mumkin.



QA- Indian Experience

- Criteria of Assessment
 - Curricular Aspects
 - Teaching, Learning & Evaluation
 - Research, Consultancy & Extension
 - Infrastructure & Learning Resources
 - Student Support & Progression
 - Organisation & Management
 - Healthy Practices

02088



Хиндистан олий таълим тизимида сифатни баҳолаш мезонлари:

- ✓ Ўқув режа ва дастурлар;
- ✓ Ўқитиши, ўрганиш, баҳолаш;
- ✓ Илмий йўналиш, Илмий раҳбарлар фаолияти;
- ✓ Инфраструктура ва таълим олиш ресурслари;
- ✓ Талабаларни қўллаб қувватлаш, хизмат кўрсатиш, улардаги прогресс;
- ✓ Менежмент ва ташкилий ишлар;
- ✓ Соғлом турмуш тарзи.



Assessment Areas

Institutional Vision, Mission and Educational Goals	Programme Aims, Learning Outcomes, Curriculum Design and Delivery	Assessment of Students
Student Selection and Support Services	Academic Staff	Educational Resources
Programme Leadership and Administration	Programme Monitoring and Review	Continual Quality Improvement

02088



Малайзия олий таълим тизимида сифатни баҳолаш мезонлари:

- ✓ Таълим муассасасининг стратегияси, таълим мақсадлари;
- ✓ Ўқитилаётган фанлар; ўқув дастурларнинг ўқитиши билан чамбарчас бооғлиқлиги;
- ✓ Талабаларни баҳолаш;
- ✓ Талабаларни қабул қилиш ва уларни қўллаб қувватлаш, сервис;
- ✓ Профессор ўқитувчилар салоҳияти;
- ✓ Ташкилий, менежмент фаолият;
- ✓ Курсларнинг сифати назорати ва янгилик киритиб борилиши;
- ✓ Таълим сифатини доимий назорат қилиш ва яхшилаб бориш бўйича ишлар.

Xitoy tajribasi misolida⁷. O‘qitishning kredit tizimida bakalavr diplomiga ega bulish uchun jami 311 kredit yig‘ishi kerak. Har bir kredit 10 soat maruza darslari davomida tuplanadi. Amaliy darslardan 20 soat mashg‘ulotda 1 kredit to‘planadi. Talabalar o‘qishni 4 yilda tugatishi shart emas. Lekin 8 yildan ortiq o‘qish ham mumkin emas. Agar talabalar kreditlarning 80 % ini to‘plasa, bakalavr diplomiga ega bo‘ladi.


Mamlakat oliy o‘quv yurtlarida davomatga alohida etibor beriladi, agar talaba 1 fan buyicha mashg‘ulotlarning 1/3 qismini qoldirsa (agar kasallik varaqasi bo‘lsa ham), o‘z-o‘zidan imtihonga kiritilmaydi va shu fan buyicha kreditni bajara olmaydi. Natijada talaba oliy o‘quv yurtidan ketadi va kelgusi o‘quv yilida shu fanni o‘qishga va kredit to‘plashga majbur bo‘ladi.

Talabalarga fanlarni tanlab o‘rganish uchun katta imtiyozlar berilgan. Masalan: fizika fakultetining talabasi matematika va mexanika fakultetlaridan o‘zini qiziqtirgan fanlarini tanlab o‘qishi mumkin. Universitetlar ilmiy tekshirish muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari bilan mustahkam aloqaga ega. Universitetlarda ixtisosliklar bo‘yicha kichik ishlab chiqarish korxonalari mavjud. Amaliy mashg‘ulotlar bevosita ana shu korxonalarda olib boriladi. Talaba mashg‘ulot davomida birorta sxema, loyiha yoki detalni o‘z quli bilan yasab ko‘rsatishi kerak. Laboratoriya mashg‘ulotida tayyorlangan mahsulot umumiy texnikaviy nazoratdan o‘tgach, o‘quv topshirig‘i bajarilgan hisoblanadi. Oxirgi kurslarda ishlab chiqarish korxonalaridan, muassasalardan vakillar kelib, suhbat asosida bo‘lajak mutaxassis – talabani tanlab oladi va oliy talim muassasasiga shartnomaga asosida pul o‘tkazadi. Bunday omil imkon qadar talabalarning o‘zi egallayotgan ixtisoslikning malakali egasi bo‘lishiga undaydi.

2013 yilda moliyalashtirish ancha oshdi⁸. 2-rasmida 2013 yilda dunyodagi rivojlangan va boshqa davlatlarda ilmiy tadqiqot ishlariga sarflangan xarajatlar keltirilgan.

⁷ Rivojlangan Yevropa va Osiyo mamlakatlarining o‘quv, o‘quv uslubiy, ilmiy tadqiqot jarayonlarini tashkil etish bo‘yicha tajribalar tahlili. Muxamadiev A., Shodimetov X., Abduraxmonov S., Kalimbetov N., Mingliqulov Z. Loyiha ishidan. 2016 y. Toshkent.

⁸ Rivojlangan Yevropa va Osiyo mamlakatlarining o‘quv, o‘quv uslubiy, ilmiy tadqiqot jarayonlarini tashkil etish bo‘yicha tajribalar tahlili. Muxamadiev A., Shodimetov X., Abduraxmonov S., Kalimbetov N., Mingliqulov Z. Loyiha ishidan. 2016 y. Toshkent.



2-rasm. Ilmiy tekshirish ishlari va ishlanmalar uchun xarajatlar mlrd. dollar hisobida (Main Science and Technology Indicators, OECD ma'lumotlariga asosan)

Yuqoridagi rasmda sanoati rivojlangan davlatlarda ilmiy tadqiqot ishlarini moliyalashtirishning 50 % da kam bo'lмаган qismini sanoat sektori ta'minlashi ko'rsatilgan. Bu yerda eng yuqori natijalarni rivojlangan Osiyo davlatlari egallab turadi (Janubiy Koreya – 74,7%, Xitoy – 74,6%, Yaponiya – 75,5%). Bu davlatlarda ilmiy tekshirish va ishlanmalar natijadari zudlik bilan ishlab chiqarishga tadbiq qilinadi, chunki fan sanoat buyurtmasi asosida ishlaydi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (organizatsiya ekonomicheskogo sotrudnichestva i razvitiya – OESR) davlatlarida (35 ta davlat) sanoat sektori ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni moliyalashtirishni 60 % ini ta'minlaydi. Yevropa Ittifoqi davlatlarida -54,2 %.

Mavzu buycha savollar;

1. Rossiya Federatsiyasi ta'lim tizimi qanday tarkibiy tuzilishga ega?
2. Rossiya Federatsiyasida Ta'lim sifatini baholashning yagona tizimi qanday faoliyat yuritadi?
 3. Ta'limda sifat menejmenti tizimi qanday tamoyillarga asoslanadi?
 4. O'zbekiston-Rossiya munosabatlariga biror oliy ta'lim muassasasi misolida ta'rif bering.
 5. Akademik standartlar deganda nimani tushunasiz? Uning ta'limda sifatni ta'minlashga ta'siri qanday deb o'ylaysiz?
 6. Xorijdagi sifat agentliklarining qaysi bir tajribasi sizga ma'qul keldi?
 7. Jarayonga yo'naltirilgan sifat indikatorlari bilan tanishdingiz.O'zbekiston oliy ta'lim tizimida sifat indikatorlari nimalarni iborat?

8. OTMning asosiy vazifalari nimalardan iborat deb o‘ylaysiz?
9. OTMning tadbirkorlik faoliyati deganda nimalarni tushunishingiz mumkin?

2-MAVZU: XALQARO LOYIHALARNI REJALASHTIRISH (4 soat)

Amaliy mashg'ulotda xalqaro loyihalalar, loyihalarning muhim komponentlari, mamlakatimiz OTMlаридаги eng yirik xalqaro loyihalalar, xalqaro loyihalarni rejalshtirish kabi masalalar tahlil qilinadi.

Loyihaning asosiy etaplari quyidagicha:

- ~ Muammo va maqsadni to‘g‘ri aniqlab olish,
- ~ Tadqiqot o‘tkazish (o‘rganib chiqish)
- ~ Muammoni xal etish bo‘yicha mos keladigan metodlarni tanlash
- ~ Vazifalar va kutiladigan natijalarning aniq bayon etilishi
- ~ Resurslarni aniqlash
- ~ Xarakat rejasini ishlab chiqish
- ~ Rejani tadbiq etish
- ~ Natijalarni o‘rganish, kutilgan natijalar bilan solishtirish, taxlil qilish va xulosa chiqarish.

Erasmus Mundus ta’lim dasturi

Ta’lim sohasidagi xalqaro hamkorliklar samarali bo‘lmoqda⁹.

Ta’lim tizimini isloh qilish, uzuksiz ta’limni rivojlantirish, oliy ta’lim tizimini yanada mustahkamlashga qaratilgan ta’lim tizimini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilishda juda katta ahamiyatga ega. Uning asosiy maqsadi ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, rivojlangan mamlakatlar darajasida yuqori malakali va raqobatbardosh mutaxassissslarni tayyorlashga qaratilgan milliy ta’lim tizimini yaratishga qaratilgandir. Shu asosda amalga oshirilayotgan xalqaro hamkorliklar O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirmoqda.

Hozirgi kunda¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan Erasmus Mundus ta’lim dasturi doirasida Yevropa davlatlarining oliy ta’lim muassasalari bilan ta’lim sohasida bir qancha hamkorlik aloqalarini samarali amalga oshirmoqda.

Erasmus Mundus (Central Asia Student International Academic exchange with) CASIA xalqaro loyihalari Yevropa Ittifoqi bilan Markaziy Osiyo talaba yoshlari va professor o‘qituvchilarining xalqaro akademik almashinuv loyihasi,

⁹ Erasmus Mundus ta’lim dasturi istiqbollari” To‘lqin Eshbek (22.04.2016)

¹⁰ Dasturlar bo‘yicha hisobot. Mashkura Faxriddinova, Yeva Vietsma, Zafarjon Jabborov (Erasmus Mundus dasturi CASIA loyihasi koordinatorlar)

Erasmus Mundus “Training of Individuals through Mobility from Uzbek Republic to International Academic exchange with European Union –TIMUR” bo‘lib, shuni alohida qayd etish joizki, bu loyihada faqat O‘zbekiston talabalari va professor-o‘qituvchilarini malaka oshirishi uchun mo‘ljallangan ta’lim sohasidagi loyihalari hisoblanadi.

Erasmus Mundus dasturining TIMUR xalqaro loyihasi bo‘yicha Yevropaning hamkor universitetlari:

- Avstriya Vena Tuproqshunoslik universiteti (BOKU)
- Germaniya Xoenxaym universiteti (UHOH)
- Chexiya tabiiy fanlar universiteti (CULS)
- Slovakiya qishloq xo‘jalik universiteti (SUA)
- Shvesiya qishloq xo‘jalik fanlari universiteti (SLU)
- Ssent Istvan Yegitem Universiteti (SZIU)
- Italiyadagi Turin politexnika universiteti (POLITO)
- Fransiya Montpelier universiteti (SupAgro)
- Germaniya Djerj-Avgust Gyoettingen universiteti (GAUG)
- Latviya Lyublyana universiteti (UL)
- Ispaniya Las-Palmas Gran Kanaria universiteti (ULPGC)
- Polsha Adam Mikievich Universiteti (AMU)

O‘zbekistondan hamkor OTMlar

- Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti (O‘zMU)
- Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat universiteti (QDU)
- Qarshi injelerlik iqdisodiyot instituti (QarIII)
- Qo‘qon davlat pedagogika instituti (QDPI)
- Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti (TIMI)
- Guliston Davlat universiteti (GulDU)
- Namangan injelerlik pedagogika instituti (NamIPI)

Shu narsani alohida ta’kidlash lozimki, loyiha bevosita tuproqshunoslik, ekologiya, tabiiy resurslar va iqlim o‘zgarishini ta’siri va bilvosita biologiya – tuproqshunoslik, mexanika-matematika, fizika, kimyo, geologiya tabiiy yo‘nalishlari bo‘yicha bakalavr magistr talabalar, izlanuvchi tadqiqotchilar, doktorantlar va professor-o‘qituvchilari ishtirok etishiga mo‘ljallangan. Boshqa fakultet talabalarilari ilmiy mavzusini loyiha mavzusi bilan bog‘lagan holda motivatsiya berishi mumkin. Erasmus Mundus dasturi CASIA loyihasi Yevropa hamda Markaziy Osiyo mamlakatlari oliy ta’lim sohalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ya’ni, ular o‘rtasida bilim va tajribalar almashish, shu asosda

Yevropaning yirik Agrar universitetlari ayrim ta'limga yo'naliishlarini standart, o'quv reja, fan dasturlari, mustaqil ta'limga va o'quv dasturlari bilan tanishish, o'zaro hamkorlikni kengaytirish va rivojlantirishni talab qiladi.

Loyiha shartlariga ko'ra ingliz tilini puxta bilish talab etiladi. Shu bilan bir qatorda, odob-axloq, o'zlashtirish ko'rsatkichlari (sinov daftarchasi asosida), tavsiyanoma, loyiha mavzusiga mos motivatsiyasi, oilaviy sharoiti bo'yicha ma'lumot (nogiron, boquvchisi yo'qlar uchun) va turli yutuqlarga erishganligi to'g'risida ma'lumotlar e'tiborga olinadi.

O'zbekiston Milliy universiteti vakillari bu loyihada faol ishtirok etmoqdalar. Erasmus Mundus dasturi CASIA I loyihasi bo'yicha O'zMU dan 49 ta hujjat topshirilgan bo'lib, ulardan 16 kishi (6 bakalavr, 4 magistr, 1 aspirant, 1 doktorant va 4 nafar o'qituvchi) g'olib deb topildi.

Timur loyihasi bo'yicha 92 ta hujjat topshirilgan, ulardan 8 nafari g'olib bo'lgan.

O'zbekiston Milliy universiteti va YeI OTMlari o'rtaida loyihaning talaba va xodim akademik almashinuvi doirasida o'rnatilgan hamkorlik hozirgi kundagi ilmiy aloqalarni mustahkamlashga asos bo'ldi. Loyiha doirasida amalga oshirilgan almashinuv davomida YeI OTM Chexiya tabiiy fanlar universiteti, Chexiya va O'zbekiston Milliy universiteti Tuproqshunoslik va agrokimyo kafedralari o'rtaida magistr va tadqiqotchi izlanuvchilarga 2014 yilda ikki tomonlama ilmiy rahbarlik qilish bo'yicha kelishuv imzolandi.

Bu esa kelajakda ushbu magistr va doktorantlar vositasida o'zaro qo'shma ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishga yo'l ochib beradi. Xalqaro hamkorlik Yevropa va O'zbekiston olimlari o'rtaida ilmiy aloqalarni yanada mustahkamlashga zamin yaratdi. Bunday ilmiy aloqalar natijasida olimlar o'zaro konferensiyalarda ishtirok etmoqdalar, hamkorlikda ilmiy maqolalar chop etishmoqda. Loyiha doirasidagi almashinuvlari YeI va O'zbekiston oliy ta'limga muassasalari talaba va akademik xodimlari o'rtaida do'stlik va hamkorlik rishtalarini yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Milliy universitetidan mazkur loyihada qatnashgan talaba va xodimlar akademik almashinuv natijasida o'zlariga ham ma'naviy, ham moddiy manfaat ko'rmoqdalar. Shu bilan bir qatorda ularning dunyoqarashlari yanada kengayib, ilmiy va akademik potensiallari oshmoqda. Almashinuv jarayoni natijalariga ko'ra, loyiha qatnashchilari yangicha fikr va g'oyalar yaratish, innovatsiyalar ustida ishlash, hamkorlikda yangi loyihalar tuzish borasida qator ijobjiy natijalarga erishmoqdalar. Shu bilan bir qatorda talabalar dunyoviy bilimlarga yanada ko'proq erishayotgan bo'lsalar, akademik xodimlar yangilik

yaratish, xorijiy texnologiyalar sirlarini, chet tillarni mukammal o‘rganishga musharraf bo‘lmoqdalar.

Nazorat savollari

1. Quyidagilardan qay biri Sizni e’tiboringizni xorijiy tajriba sifatida jalb eta olgan? Qay birini samarasiz tajriba deb hisoblaysiz?

- standartlashtirish
- internatsionalizatsiya
- ta’lim berishda va administratsiyada sifatni ta’minlash
- ish beruvchilar va akademik sifat o‘rtasida bog‘liqlik
- ta’limni uzluksizligiga erishish (Lifelong learning)
- ta’lim berish orqali 21 asr (transferabl) ko‘nikmalarni rivojlantirish
- ta’limda (talabaga) individual yondashuv
- o‘qitish tadqiqot
- o‘zlashtirilgan ta’lim
- mobillik (talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida)
- distant ta’lim (MOODLE system, LMS, MOOC)
- muammoni xal qilishga asoslangan ta’lim (masalan, keys stadi, nilufar guli..)
- boshqa misol _____

2. Xalqaro xamkorlik OTMga nima beradi? Xalqaro munosabatlar, loyihalar O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida sifatni oshirishga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

3. Xalqaro loyihalarni yo‘lga qo‘yishda nimalar qilinishi kerak (qarorlarga o‘zgartirishlar, ma’lumot...)? Loyihalarni realizatsiya qilishda (amalga oshirishda) qiyinchiliklar nimalardan iborat?

4. Siz rahbarlik qilayotgan OTMdagi so‘nggi 3 yilda amalga oshirilgan eng samarali xalqaro loyiha haqida gapirib bering.

5. Xalqaro munosabatlar qanday asosiy yo‘nalishlarga qaratilgan bo‘lishi lozim?

6. Loyihalarning natijalari qanday tanishtirilishi lozim?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *New modes of learning and teaching in higher education.* High Level Group on the Modernisation of Higher Education. Report to the European Commission October 2014.
2. Erasmus Mundus ta'lim dasturi istiqbollari” To‘lqin Eshbek (22.04.2016)
3. Dasturlar bo‘yicha hisobot. Mashkura Faxrtdinova, Yeva Vietsma, Zafarjon Jabborov (Erasmus Mundus dasturi CASIA loyihasi koordinatorlar)
4. http://m.chorus-nnsu.ru/pages/e-library/vestnik/99999999_West_2011_3/1.pdf
5. <http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/26141/1/unup-2012-06-10.pdf>
6. file:///C:/Users/User/Downloads/IHE%20-%20Williams%20&%20Kluev%20(1).pdf
7. <http://www.britishcouncil.uz/en/programmes/education-society/professional -development>

V. GLOSSARIY

V. GLOSSARY

Ta'lim tizimini boshqarish – ta'lim sohasida davlat siyosatini shakllantirish; uning qonuniy asoslarini yaratish; ta'lim jarayonini standartlashtirish; moliyaviy rejalashtirish va ta'minlash; ta'lim muassasalarini samarali boshqarish va nazorat qilish; ta'lim sifatini baholash tizimi.

Primary schools – 2 dan 11 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar o'qiydilar. Ikkinchi bosqich imtihonlari natijalari Secondary School maktablariga o'qishga kirish uchun muhim hisoblanadi.

Junior Schools – 7 dan 13 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun. Bu yerda bolalar turli xil boshlang'ich umumta'lim fanlarini o'qiydilar va Common Entrance Examination imtihonini topshiradilar. Ushbu imtihonlarni ijobjiy topshirish – yuqori maktabga albatta qabul qilinadi.

Senior Schools — balog'at yoshidagi 13 dan 18 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan.

Fundamental talim – bu 3 - 4 semestrli o'qish bo'lib, uni tugallagan talabalar "litsensiat" darajasi.

Asosiy talim – bu 4 - 6 semestrli o'qish hisoblanib, ijobjiy tugallagan talabalar magistrlik diplomini olishi.

Duales Studium tizimi – 2 - 3 yil davom etadi. Ushbu o'qish vaqtida davomida o'quvchi haftasiga 3-4 kun o'zi bilan shartnomaga tuzgan firmada ishlaydi.

«Siokusan kogio» - ilg'or G'arb ishlab chiqarish texnologiyasi asosida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish.

YuNESKO – BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti. Universal xususiyatdagi hukumatlararo tashkilot.

ENQA - Oliy ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha Yevropa assotsiatsiyasi – The European Association for Quality Assurance in Higher Education.

EQAR - Oliy ta'lim sifati bo'yicha Yevropa reestri – The European Quality Assurance Register for Higher Education.

ALECSO - Arab davlatlari Ligasining Ta'lim, madaaniyat va fan masalalari bo'yicha tashkiloti – Arab League Educational Cultural and Scientific Organization.

IAU - Universitetlarning xalqaro assotsiatsiyasi – International Association of Universities.

ACA - Akademik hamkorlik Assotsiatsiyasi – Academic Cooperation Association.

OUVS - The Open University Validation Services - ta'lim muassasalarini faoliyatini akkreditatsiyalash hamda validatsiyalash.

OTSNK - Oliy Ta'lim Sifatini Nazorat Kilish Agentligi

Xomiy tashkilotlar - oliy ta'lim tizimini konuniy darajada baxolashda ishtirok etishlari majburiy bulib,uzlari moliyalashtirayotgan muassasani tekshirishda katnashadilar.

AKADEMIK SIFAT – tegishli malakani olish uchun talabalar kay darajada yaxshi sifatli bilim olish imkoniyatiga ega ekanligini anglatadi.

TAKOMILLASHTIRISH — jarayonida oliygox muntazam ravishda ta'lim sifatini oshirib, bilimni talabalarga uzatish yullari izlanadi.

Malaka – akademik standartlarga mos ravishda talabaning baxolashlar assosida zaruriy natijalarga erishganligini va standartlarga moslik darajasini anglatuvchi ibora.

ISO halqaro standartlash tashkiloti - sanoatni standartlashtirish sohasida sifatni boshqarish va oziq-ovqat mahsulotlarining havfsizligini ta'minlashgacha imkon beradigan, butun dunyo bo'yicha korxona va tashkilotlarning faoliyatiga turli shartlarni o'rnatadigan halqaro standartlashtirish tashkiloti bo'lib, eng qadimiy va eng katta tajribaga ega tashkilot.

YeOMS shartlar to'plamini boshqarish vositasi sifatida foydalanish uchun mo'ljallangan bo'lib, ta'lim muassasalarida talabalarning, professor o'qituvchilar, xodimlar, iste'molchilar va boshqa qizikuvchi tomonlarlarning shartlarini, ularo'rta sidagi integratsiyaning ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Standart – ta'limda yaratilgan me'yoriy reja, dastur, darsliklarni o'zlashtirish ekvivalenti, ya'ni ta'lim mazmunini o'zlashtirish darajasidir.

VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

VI. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.:O'zbekiston, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-sonli Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O'zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagи «Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 343-sonli Qarori.

15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi "Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2001 yil 16 avgustdagи "343-sonli qororiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 3-sonli qarori.

III. Maxsus adabiyotlar:

16. Apakaev P.A., Merlina N.I., Matveeva O.A. Sistemno-funksionalnyu analiz podxodov k ponyatiyu «kachestvo obrazovaniya» // Sovremennye problemy nauki i obrazovaniya. – 2012. – № 3. – S. 16-19.

17. Mirzaxmedov B.X., Norkulova K.T. Oliy ta'lim muassasalarida ilmiytadqiqot faoliyatini boshqarish va samaradorligini oshirish masalalari// "Oliy ta'lim tizimidailmiy-tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etish va natijaviyligini oshirishning dolzarb masalalari" Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ma'ruzalar to'plami, Toshkent, 11 dekabr, 2014 yil, 44-49 b.

18. Ryabov L.P. AQSh, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya kabi rivojlangan davlatlar oliy ta'lim tizimidagi innovatsion jarayonlar va ijobjiy o'zgarishlar tahlili. –M.: 2011.

19. Erkaeva G.P. Ta'lim sifatini oshirishda xorijiy hamkorlik // Ta`kbv, fan va innovatsiya. Toshkent. 2015. №3. 27-30 b.

20. American Association for Higher Education and Accreditation (AAHEA) Standarts.

21. Andreas Houecht (2006) Quality Assurance in UK Higher Education. Springler. Higher Educaation. 51. 541-563.

22. Campbell C., C.Rozniyai. Quality assurance and dvelopment od course Programes. Bucharest. – 2002. - UNESCO Series. - P. 14-15.

23. Cheng Y.C., Tam W.M. (Multy Models of Quality in Education. Quality Assurance in Education, University of Oslo. - 5. – P. 22-31.

24. Csizmadiya T. Quality Management in Hungarian higher education. The International Journal for Quality and Standarts. - 2002. -P. 14-17.

25. Diana G., What is Quality in Higher Education? Sicity for Research into Higher Education. - Ltd. London. – P. 1-21.

26. European Higher Education Area and Bologna Process.

27. Houecht A.. Quality Assurance in UK Higher Education. - Springler. - Higher Educaation. - 51. –R. 541-563.

28. International Organization for Standardization (2006). The ISO survey of certifications 2005. Genève: ISO Central Secretariat.

29. International Organization for Standardization. (2009a). ISO 9001: 2008 handbook for educational organizations –What to do: Advice from IWA 2 working group (2nd ed.). Switzerland: Author.
30. Quality Assurance and Accreditation. UNESCO [ISBN 92-9069-178-6].
31. Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European Higher Education Area (ESG).
32. The European Commission on New modes of learning and teaching in higher education. October, 2014. Luxembourg: Publications Office of the European Union. – 2014. – 68 pp.
33. Tibor Csizmadiya (2006) Quality Management in Hungarian higher education. The International Journal for Quality and Standards. P. 14-17.
34. U.S. Department of Education. Accreditation: Universities and Higher Education. Souncil for the Advancement of Standards (CAS) Professional Standards for Higher Education.
35. Vlasceanu L., L.Grunberg, D.Parlea. Quality Assurance and Accreditation: Glossary of Basic Terms and Definitions. -Bucharest: UNESCO [ISBN 92-9069-178-6].
36. World Bank. (1994). Higher Education: Lessons of Experience. Washington D.C. pp 66-76.

IV. Internet saytlari:

37. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
38. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
39. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
40. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portalı ZiyoNET
41. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.